Kanishka davrida Xindistondan tarkalgan Buddha dini davlat diniga aylandi. Oromiy va yunon yozuvlari bilan birga kushon yozuvi xam mavjud bulgan. Kushon sultanati davrida me'morchilik va tasviriy san'at yuksak darajada rivojlangan edi. Buni ulkamizning Ayrитом, Kuxna Termiz, Koratepa budda ibodatxonalar Fayoztepa, Xolchayon, Dalvarzintepa va boshka joylardan kazib olingen arxeologik topilmalardan kurishimiz mumkin. Muxtaram uchuvchi, talabalarimiz yurtimizdagи Uzbekiston davlat tarix muzeyi, Uzbekiston amaliy san'ati muzeyi va boshka muzeylardagi tarixiy eksponatlarni kurish jarayonida bunga uzi xam amin buladi. Kushon davri shaxarlari xarobalarini va kabrlarini urganish ulka xalklarning urf-odatlari, diniy karashlari tugrisida kimmatl ma'lumotlar beradi. Xususan, Dalvarzintepa ashyolari ushonlarning diniy e'tikodlari buddizm bilan zardushtiylik bulganiki kursatadi. Ayniksa, yapon olimlari bilan Darvarzintepada, frantsuz arxeologlari bilan Afrosiyobda olib borilgan tadkikotlar talabalarimizga muxim ma'lumotlar beradi.

Kushon sultanati inkirozi Xuvishka podshoxligi davridan boshlanadi. Bu jarayon Erondagi Sosonnylar davlatining tarix saxnasiga chikuviga asosiy omil buldi. Xususan, sosoniy xukmdorlardan Shopur I ning (milodiy 242-243 yillar) va Shopur II ning (mil, 309-379 yillar) Kushonlarga bergen zarbalari xal kiluvchi urin tutdi. IV asrga kelib Kushon podshoxligi asosiy xududlaridan maxrum buldi. Kushonlarning ayrim mulklari fakat Shimoliy Xindistonda ma'lum vaktgacha saklanib koldi.

Eftaliylar davlati, undagi boshkaruv tizimi.. Yerga egalik munosabatlarining shakllana boshlashi. Turk xokonligi, davlat boshkaruv tizimi.

Kushonlar davlati inkirozidan sung boshlanib ketgan tarkoklnk okibatida xar bir voxada aloxida ulka mulklar paydo buldi. Bu mulklarning xukmdorlari xar xil xudduda turlicha nomlar bilan yuritilgan: Buxoroda buxorxudot, Choganiyonda - choganxudot, Vardonzida -vardonxudot, Toshkentda - tudan, Samarkand va Fargonada - ixshid, Ustrashonada - afshin, Xorazmda - xorazmshox, Illokda -

deadon va xokazo. Bu xukmdorlarning odatda uz xarbiy kuchlari-chokarlari bulgan. Markaziy xokimiyat ana shu xukmdorlar uyushmasidan tashkil topgan edi. Mamlakatimiz xududida ilk urta asrlar davrida tashkil topgan yirik davlatlardan biri - Eftaliylarning etnik jixatdan kaysi kabilia-mansubligi, tillari tarixda yetarlicha tadkik kilingan emas. Eftaliylar tarxiga oid ayrim ma'lumotlar rimlik tarixchi Martsellin (IV asr), vizantiyalik tarixchi Paniyskiy (V asr), va boshka tadkikotchi olimlar asarlarida mayjud. Olimlarning xulosalariga karaganda, milodning IV asri urtalarida kushonlar bilan Eftaliylar boshka kabilalar bilan birlashganlar. Ularni xioniylar va kidariylar deb atashgan.

Ba'zzi tarixchilar xioniylar (xonlar)ni kushonlarning aynan uzi deb xisoblaydilar. Kidariylar nomi bilan atalgan kabilia (bu nom kabilia boshdigi va podshoxi Kidirnomi bilan boglik.) esa V asrda massaget kabilalaridan kabilalaridan ajralib chikkan, deb taxmin kilinadi. Xullas, nima bulganda xam muarrixlar eftaliylarni asli Urta Osiyoda ilgaridan yashab kelgan sak-massaget va xunn kabilalarining birikmasidan kelib chikkan deb xisoblaydilar. «Eftal» suzi esa eftaliylar shoxi Vaxshunvor Eftalon nomi bilan boglikdir. Vaxshunvor 457 yildan e'tiboran Chogniyon, Toxarisgon, Badaxshonni uziga buysundirib Urta Osiyoda katta davlatga asos soldi. V asrning ikkinchi yarmi va VI asr boshlarida Eftaliylar davlati xududlariga Urta Osiyo, Sharkiy Eron, Shimoliy Xindiston va Sharkiy Turkiston yerlari kirar edi.

Eftaliylar zamonida sultanat yakka xukmdor tomonidan boshkarilgan. Davlat boshkaruv tipi konfederativ podshoxlik bulib, boshcharuv shakli cheklangan monarxiya bulgan. Taxt vorisini aniklab, takdim egadigan kengash mavjud bulgan. Bu kengash sulolaning multabar vakillari, amirlar, yirik arkonlardan iborat bulgan. Eng muximi, Eftalitlar davrida davlatimiz konunlar asosida boshkarilib, bu turkiy tuzuklardan iborat bulgan. Katta xududni egallagan bu davlatda ba'zi katta viloyatlar maxalliy sulolalar tomonidan boshkarilgan. Eftaliylarning xarbiy kushinlari katta kuchga ega bulgan. Askarlari kulida xarbiy kurol-yaroklardan gurzi, uk-yoy va asosiysi kilich muxim urin tutgan. Ular lashkarlariniig asosini otlik askarlar tashkil etgan.

Milodiy V asrda sosoniylar va eftaliylar davlati urtasidagi xarbiy tuknashuvlarda eftaliylar kushinining ustun kelishi ular xarbiy maxoratining yukori darajada ekanligidan dalolat beradi. Sosoniylarning sharkka yurishlari eftaliylarning karshiligi tufayli tuxtadi. Ular Eron podshoxlarining ichki siyosatiga xam aralashib turdilar, xatto shoxlardan kaysi birini saylash va tayinlash masalasini xal kilish ularning kulida bulgan. Eron davlati xar yili etaliylarga ulpon tulab turgan. Eftaliylar davlatining poytaxti xakida ma'lumotlar yuk. Bunday markaz Poykan (Boykent) yoki Balx bulgan degan taxminlar bor. Vizantiyalik muarrix Prokopiyning xulosalariga kura, eftal podshoxlari yuritgan siyosat Vizantiya yoki fors podshoxlari yuritgan adolatli siyosatdan kam bulmagan. Eftaliylar davlati

xududidagi Kushoniya (Kattakurgan yakinida), Rivdad, Poykand, Samarkand, Termiz, Gurgon, Varaxsha kabi shaxarlar katga axamiyatta ega bulgan. Bu davrda jamiyagda yerga egalik munosabati shakllanayotgan bulsada, kollar mexnatidan foydalanish davom etgan. Karor topayotgan yerga egalik kilish munosabatlariga kura, katta yerlarni egallab olganlar dexkon nomi bilan atalgan. "Dexkon" kishlok xokimi ma'nosini anglatgan. Uzining kichikrok yerida xujalik yuritganlar kashivarzlar, yeridan ajralib kolib dekkon xujaliklarida yollanib ishlaganlar kadivarlar deb nomlangan.

Eftaliylarning bir kismi kuchmanchi bulib, chorvachilik bilan shugullansalar, asosiy kismi shaxar va kishloklarda yashaydigan utrok axoli bulgan. Kupgana xududlarda, xususan, Kashkadaryo va Zarafshon vodiylarida galladan tashkari sholi xam yetishtirilgan. Shuningdek, kuplab guza ekilgan va Markaziy Osiyoning paxtasi, xatto Xitoyda xam mashxur bulgan. Yilkichilik bilan shugullangan axoln asosan tog va tog oldi yerlarda yashashgan, zotdor argumoklar Fargona vodiysida kupaytirilgan. Sugoriladigan yer maydonlarining ma'lum bir kismi feodal munosabatlarning karor topa boshlashi bilan mulkdor zodagon tabaka vakillari - "dekxonlar" kuliga utaboshlagan. Bu esa erkin dexkonlarning zodagon dexkonlarga karam kadivarlarga aylanishiga asos bulgan. Dexkonchilik vokalarida Eftaliylarning V-VI asrlarda utroklashuvi kuchayadi va sugorma yerlarga talab ortadi. xozirgi vaktda xam mavjud bulgan Zaxarik. Buzsuv, Dargom kanallari V asrda barpo etilgan eng yirik sugornish tarmoklaridan bulgan.

Shu davr me'morchiligida kasrlar kurilishi ayniksa axamiyatli bulgan. Bu kasrlar 2 kavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoksimon kilib yopilgan bir necha xonadan iborat bulgan. Saroy va kasrlar kurilishida V asrdan boshlab pishik gishtlar ishlatila boshlangan. Saroy ibodatxonalar devorlari rangdor tasvirlar bilan bezatilgan. Eftaliylar me'morchiligining ajoyib namunalaridan biri Buxoro yakinidagi Varaxsha saroyi bulib, u buxorxudotlarning VI-VII asrlardagi karorgoxlari bulgan. Eftaliylar davrida xunariandchilikning kulolchilik, shishasozlik, chilangirlik, buzhilik, zargarlik, kurolozlik kabi turlari yaxshi tarakkiy etgan. Chochda yasalgan uk va yoy "kamoki chochiy" nomi bilan mashxur bulgan. Eftaliylar Eron, Vizantiya, Xindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan elchilik, savdo-sotik munosabatlarini olib borishgan. Xususan, 456 yili Eftaliylar Xitoya uzi elchilarini yuborganlari tarixda kayd etilgan.

V-VI asrlarda diniy e'tikod va tasavvurlari bilan uzviy boglik bulgan sopol xaykalchalarni yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Ulkan xududga yeyilgan Eftaliylar davlatida turli diniy e'tikodlar turlicha bulgan. Sugdda zardushtiylik keng tarkalgan. Toxariston va Sharkiy Turkistonda esa buddiylikka e'tikod kiluvchilar kup bulgan. Shaxarlarda nasroniyalar va yaxudiylar jamoalari xam mavjud edi. Shunday kilib, V-VI asrlarda yurtimizda Eftaliylar sulolasiga 100 yildan ortik xukmronlik kildi. Bu sulola vakillari tarkok mamlakatni birlashtirib, siyosiy,

iktisodiy, madaniy munosabatlar va tashki alokalar tarakkiyotining yuksalishiga erishdi. Ammo 563-567 yillarda turk xokonlari tomonidan berilgan zarbadan sung Eftaliylar inkiroz sari yuzlandilar va xokonlik ta'siriga tushib koldilar.

VI asr urtalarida Oltoyda Turk xokonligi tashkil topdi. Davlatning asoschilari Ashina urugidan bulmish Asan va Tuular turkiy kabilalar ittifokini tuzgan edilar. Tuuning ugли Bunin 551 yilda Markaziy Osiyoda eng kuchli xisoblangan jurjanlar xonini yengib, Turk xokonligi davlatiga asos soldi Xokonlikda birinchi xukmdor Bumin bulib, u taxtga Ili xokon unvoni bilan utirdi. 553-572 yillarda xukmronlik kilgan Mugan Xokon davrida esa xokonlik Markaziy Osiyoda siyosiy ustunlikni uz kuliga oldi. Aynan mana shu, davrda turklarning garbda jurjan kabilalari va eftaliylarga karshi faol xarbiy xarakatlari boshlandi. 552-555 yillardayok Buminnnng ukasi Istami "un tuman kushinining" sarkardasi bulib, garbiy yerlarni uziga buysundira boshlagan edi. Eftaliylar davlati tor-mor etilgandan sung bosnb olingen xududlar bevosita goliblarning oliv xokimiyatiga buysundirilgan edi.

Xokonlik usha davrnnnng eng yirik davlatlari Vizantiya, Sosoniylar Eroni, Xitoyning siyosiy va iktisodiy munosabatlari tizimiga kushildi va Buyuk itak yuli ustidan nazorat urnatish uchun kurasha boshladi. Turk xokonligining tarixi uzluksiz urushlar va uzaro ichki kurashlar bilan tulgan edi. Buning natijasida 581-603 yillar oraligida u ikki kismga Sharkiy va Garbiy turk xokonliklariga bulinib ketdi.

Garbiy xokonlik tarkibiga Yettisuv, Chu vodiysi, Irtish, Ishim daryolari buyidagi yerlar. Urta Osiyodagi Yarim mustakil davlatlar kushib olingen edi. 630-632 yillarga kelib garbiy turk xokonligi uz yuksalish chukkisiga yetdi. Garbny xokonlikda Istami Yabguning ugли Kopa Churin xokon buldi. U tadbirkor va aklli xukmdor edi. Ammo undan keyingi olti xokon davrida mamlakatdagi vaziyat keskinlashdi, xalk kuzgolonlari boshlandi. 585-586 yillardagi Obruy boshchilagidagi chuzgolon bunga yorkin misoldir. 618 yilda garbiy Turk xokoni Sheguy vafotidan sung taxtga utirgan Tun Yabgu davrida xokonlik yana uz kaddini biroz tiklab oldi. Tun Yabgu 12 yil ichida garbiy xokonlikni kuchaytirdi. Uning davrida boshkaruv tartiblari (tizimi) islok etildi.

Kadimgi turklarning tasavvuriga kura, davlatchiliki uzida mujassam etuvchi shaxs xokon yoki uning sulollsi bulgan. Xokon uch kuchga tayanar edi. Bular Osmon-Tangri irodasi, yer-suv saxovati va turk xalkining faoliyati edi. Xokonning rafikasi xotun unvoniga ega bulgan. Keyinchalik bu unvonni olgan ayol etnik mansubligidan kat'i nazar umuman xukmdorning rafikasini anglatadigan bulib koldi.

Taxtga vorislik tartibiga kura, taxt otadan ugilga emas akadan ukaga, kichik amakidan katta jiyanga meros edi. Shaxzodalar uzlarining xukmdorlik navbatlari kutib, ungacha uzlariga berilgan uluslarda xokimlik kilar edilar. Xokimiyatni xukmron sulola kulida jamlash odati Markaziy Osiyo davlatlarida boshkaruvning

an'anaviy usuli bulib, u ikki yoklama samara berardi. Bir tomondan, kuchmanchi chorvachilik xukmron bulgan sharoitlarda boshkaruvning va mudofaaning barkarorligi ta'minlansa, ikkinchi tomondan, sulolaning uz ichida xam nisbatan osoyishtalikka erishilar edi.

Davlatning asosini yer bilan xalk tashkil etardi. Xokonlik davlatchilikning mustakil va an'anaviy Urta Osiyo shakllarini rivojlantirdi. Davlatni boshkarishda xokonga uning karindoshlari, eng avvalo, xukmron sulola a'zolari va ular tomonidan yaratilgan boshkaruv apparata yordam berar edi. Xokonning karindoshlari va oga-inilariga tegin unvoni berilgan. Davlatda turli-tuman lavozimlar bulib, ulardan beshtasi oliv mansab xisoblangan: yabgu, shad, teginlar, eltabarlar va tudunlar. Barcha mansablar meros kilib koldirilgan. Tudunlar buysundirilganlar ustidan nazorat kilish va soliklar yigish vazifasi bilan shugullanganlar.

Turk davlati yetarli darajada ishlab chikilgan jinoiy konunchilikka ega bulgan. Jazoning asosiy turlarini katl etish, kompozitsiya, ya'ni tovon tulash va talion xisoblangan. Ulim jazosi davlatga karshi jinoyatlar uchun (isyon kutarish, sotkinlik va xokazo) xamda odam uldirganlik uchun berilgan. Odam uldirganlik uchun katl etish yoki odam a'zosini kesib tashlash talion deyilgan. Shaxsga karshi karatilgan boshka jinoyatlar kompozitsiya, ya'ni yetkazilish zararni un barobar kilib tulash, tovon kabi usullar kullanilgan. Xokonlnkda axoli va kushin bulinishida unlik tizimi mavjud bulgan. Ular orasida shaxsiy soxchilar, xokonlarning zirixli gvardiyasi ajralib turgan. 10, 20 va 40 kishilik aloxida kushilmalar shadlar yoki yobgu kumondonligida bulgan. Kushin xizmat kilish majburiy xisoblangan. Davlat, odatda 100 ming kishilik kushin olish kuldratiga ega bulgan. Bunday kushin davlat kudratining asosiy tayanchi xisoblangan. VII asr urtalarida kelib xokonlik zaiflashib bir necha kismlarga bulinib ketgan. Bu vaziyatdan Xitoyning Tan sultanati foydalanib Urta Osiyo yerlariga bir necha sukilib kirishga xarakat kilab kurgan. Xokonlik ulkan xudud ichida tinchlik saklashga erishgan buysundirilgan xalklarning ichki ishlariga aralashmagan ularning xujalik, savdo-sotik, madaniyat soxalaridagi faoliyatiga tuskinlik kilmagan. Zabt etilgan yerlarning maxalliy axoli uz ijtimoiy tuzilmalarini saklab bu tuzilmalar ustidan noib-tutuk nazorat kilib turgan.

Turk xokondigi kulida birlashgan xalklar tarakkiyotning xar xil boskichida edilar. Turk kabilalarining bir kismi VI-VII asrlarda utovlarda yashaganlar va tut gildirakli aravalarda kuchib yurganlar. Mamlakatda ziroatchilik, bogdorchilik, shaxarlarda kurilish, xunarmandchilik, savdo-sotik avj olgan, kulolchilik, kurolozlik, shishasozlik rivojlangan. Turklar yasagan kurol-yaroklar, zebi-ziynat buyumlari xilma-xilligi va pishik-puxtaligi bilan ajralib turgan. Buyuk ipak yuli samarali ishlashda davom etib, xokonlik davlatining asosiy savdo xamkorlari Eron, Xitoy, Xindiston, Vizantiya bulgan. San'at xam tarakkiy etgan. Xaykaltaroshlik,

uymakorlik, nakkoshlik, musika, pakc san'atlari rivojlangan. Bunyodkorlik ishlari sugarish inshootlari, kurgonlar, shaxarlar barpo etishga e'tibor oshadi.

Kup kabilalar tan olgan yagona xudo Tangri deb atalgan, unga kurbonlik keltirganlar. Ular rux abadiyligi, narigi dunyo borligiga yashonganlar. Axoli orasida buddnylik, xristianlik va boshka dinlar xam tarkalgan edi. Xalk sayillari orasida Navruz juda katta tantanalar bilan utkazilgan. Xokonlikda oromiy yozuvi, sugd yozuvi, Xorazm yozuvi bilan bir katorda "Turk Run yozuvi", "Urxun-Enosoy, "Kuk-Turk yozuvi" kabi yozuvi kullanilgan. Bu yozuvlar tugrisida tularok ma'lumotni prof. N. Raxmonovning "Turk xokonligi" risolasidan olish mumkin.

Urta Osiyoning turk xokonligi tarkibida bulganligi ijobiy axamiyatga ega edi. U turkiy kabilalarning jipslashuviga xizmat kildi, bir kator turkiy xalklarning shakllanishiga acoc soldi. Xokonlikning kuddratli Xarbiy tashkilot Xitoy va Eronning Urta Osiyoga sukilib kirishiga yul kuymadi. Ulkan davlat birlashmalarining tashkil topishi xunarmandchilik va savdo-sotik rivojlanishi uchun kulay imkoniyat yaratdi.

Xulosa kilib aytish mumkinki, Turk xokonligi davlatchilik Urta Osiyoning kadimiylarini an'analari va turklar-kuchmanchilar tomonidan keltirilgan an'analar asosida uziga xos xususiyat kasb etdi. Bunda siyosiy ittifok, Urta Osiyodagi mustakil va yarim mustakil mulklarning federatsiyasi shakllandi. Bu esa federatsiyada tashkil topgan davlatchilik ma'lum ma'noda yukori boskichga kutarilgan bulib, usha davrning xayotiy talablari va xususiyatlarini uzida aks ettirgan. Bu esa uzbek davlatchiligi poydevorini mustaxkamlash tomon kuyilgan muxim kadamlardan biri buldi.

Arablar istilosini va xukmrokligi davrida Urta Osiyo.

VII- VIII asrlarda markazlashgan Arab xalifaligi Misr, Suriya, Falastin, Irok, Vizantiya va Eronni buysundirib, kuchli imperiyaga aylanadi. Xalifalik Urta Osiyo yerlariga xam yetib keldi. Arablar Amudaryo (Jayxun)ning shimolida joylashgan yerlarga "Movarounnaxr", ya'ni "daryoning ortidagi yerlar" deb nom beradi. Xozirgi Afgonistonning shimoli, Eronning shimoli-sharkiy kismi xamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bulgan xududlar esa Xuroson deb yuritilgan. Avval boshida Xurosonning markaziy shaxri Marv, keyinchalik Xirot bulgan.

Arablarning Movarounnaxrga karshi xarbiy yurishlari uz maksad va rejalar bilan 2 davrga bulinadi. 1-davrda Xalifalik istilo etishni emas, balki xarbiy jixatdan tayorgarlik kurish. Maxalliy xukmdorlar kuch-kudratini sinab kurish, geografik, xarbiy, iktisodiy, siyosiy joylashuvini urganish, kichik yurishlar orkali uljalar orttirish rejasini amalga oshiradi. Bu davr 650-704 yillarni uz ichiga oladi. Xalifa Abdumalik ibn Marvon (685-705) davrida ichki nizolarga chek kuyilgandan sunggina arab siyosiy arboblari va zadagonlari Movarounnaxrga xarbiy yurish vakti keldi, deb topdilar. Yangi tayin etilgan Xuroson noibi Kutayba ibn Muslimga Movarounnaxrn ni butkul egallah va kat'iyat bilan xarakat kilish topshiriladi.

Markaziy Osiyodagi siyosiy parokandalik va kichik davlatlar urtasidagi nizolar Kutaybaga kul keldi. Uz xarbiy yurishlarini Kutayba 705 yili Balx viloyatini bosib olish bilan boshladi. Bu yurish bilan arablarning Movarounnaxrga 2-asosiy xarbiy xarakati boshlandi. Balxdan tashkari Kutaybaga Chagoniyon, Shuman, Markaziy Osiyodagi kichik viloyatlar buysunardi. 706 yili Kutayba katta kushin bilan Movarounkaxrga kirib keldi. Tarixchi Tabariyning ma'lumotiga kura, Kutayba obod va boy shaxarlardan biri Poykant tomon xarakat kildi va ogir janglardan sung u arablar kulga utdi. Arablar ketma-ket Movarounnaxr yerlarini egallay boshlaydilar. 708-709 yillar mobaynida Kutayba Buxoroga bir necha bor xujum kilib shaxarni zabit etadi. Sung Xorazm va Samarkandni uziga buysundiradn.

Kutayba 713 yili Choch kushinini tor-mor etib, uni egallaydi, Ustrushonada xal kiluvchi jang olib borib, Xujand va Kosonni zabit etadi. 714-715 yillar boshida Kutayba Kashkargacha bulgan yerlarni kulga kiritadi. Usha yili arab xalifasi Volid vafot etadi. Xalifalik taxtiga Sulaymon ibn Abdumalik utiradi. Kutayba Sulaymonga nisbatan ganimlik munosabatida bulib uni kullamas edi. Kutayba uning taxtga chikishidan norozi bulib, isyon kutaradi. Natijada bu isyon muvaffakiyatsiz tugab, Kutaybaniig uzi 715 yili Farkonada uldiriladi.

Urta Osiyo bosib olinganidan sung bu xududlarni boshkarish markazi Marv shaxri bulib kolgan edi. Bu yerda xalifalikning noibi turgan va u Movarounnaxr va Xurosonni idora kilgan. Dexkonlar xalifalik noibining maxalliy axoli orasidan bulgan vakiliga buysunganlar. Bunday kishilar amir unvoniga ega xisoblanar edilar.

Xalifa davlatni boshkarishda vazir ul-vuzaro (ulug vazir)ga tayangan. Xarbiy ishlar, umuman, xarbiy kushinlar amir ul-umaro kuli ostida bulgan. Xalifa turli masalalarni devon ad-dar, ya'ni kengashda kurib chikar edi Devon ad-dar uchta asosiy devonga bulingan, ular devon al-mashrik, devon al-magrib va devon al-xarajdan iborat bulgan.

Movarounaxrga tegishli masalalar devon al-mashrikda xal etilar edi. Dexkonlar orasida yer-mulk, shaxsiy uy-joy va kurgonlar masalasida nizo va janjallar chikib kolsa, muammoni xalifa xal kilar edi. Xar bir xukukiy muammo konun-koidalariga binoan kurib chikiltan. Islom xukukshunosligining asosini shariat tashkil kilgan. Shariat asosan kuyidagi manbalarga tayanadi:

1. Kur'oni Karim-musulmonlarning mukaddas kitobi.
2. Xadisi Sharif-Mukhammad paygambarning nasixatlari, kursatmalari va faoliyati bilan boglich axlokiy xukukiy me'yorlar.
3. Idrokli xalifalarning odil karorlari va farmoyishlari.
4. Jamoada nufuzli, obru-e'tiborli musulmon xukukshunoslarning turli savollarga javoblari va tavsiyalari.

Yukoridagi muxim manbalar katorida shariatda urf-odatlar bilai xam xisoblashilgan. Udumlar turli xalklarda xar xil bulganligi sababli, ular shariat asoslariiga mos xolda kabul kilingan. Urga Osiyo xalklarining zardushtiylik davridan saklanib kolgan marosimlari, tuylardagi ayrim udumlar, bayramlar va shunga uxshash an'analar islom dini bilan muvofiklashtirilgan.

Islom dinida fatvo atamasi keng kullanilib, u islom konunshunosi oliy martabali va nufuzli shaxslarning, dunyoviy xukmdorlarning karorlari va farmoshshrini yozma ravishda tasdiklashni anglatgan.

Islom konunchiliginini amalgga oshiruvchi xukukshunoslar ma'lum nomga ega bulib, ular uz ilmiy darajalariga muvofak muayyan pogonada turishgan.

Iktisodiy xayotni uz kullaridan chikarmaslik maksadida arablar bu yerda sosoniyalar tartibidagi solik tizimini joriy kildilar. Bu tizimga yer soligi-xiroj, chorva, xunarmandchilik, savdo-sotikdan zakot xamda Islomni Kabul kilingan shaxslardan olinadigan juz'ya soligi xam kushildi. Movarounnaxrning xiroj tulovchi mexnatkashlar "xarros" atamasi bilan nomlangan. Solik yiguvchilar "amil" degan nomda aytilgan. Bogdoddan maxsus solig yiguvchi Buxoroga kelib soliklarni uzi jamlab olib ketgan. Soliklar pul yoki maxsulot shaklida tulanib turilgan. Xiroj xalifalikning mulki va xazinaga tushadigan daromadning asosini tashkil etar edi. Yer soligining bir kismi sugarish inshootlari barpo etishga sarflangan, boshka kismi esa xalifa xazinasini tuldirar edi.

Xalifalik davrida mulkchilikni belgilovchi me'yorlar Urta Osiyoga xam oid edi. Yerning xukuiy asoslarn kuyidagi tartibda shakllandi:

1. Vakf-masjid, madrassa-maktab va mukaddas joylar uchuy ajratilgan mulk bulib, ular solikdan ozod etilgan.
2. Mulk-xususiy yer egalariga karashli yerlar.
3. Ikta-xizmati uchun beriladigan muvakkat yerlar.

Solik undirish ogir kechgan. Solik yiguvchilarning uzboshimchaliklari, talontarojlik, urushlar tabiat injikligidan zarar kurgan axolining kup kismini xonavayron bulishiga olib keldi. Movarounnaxrda bu jarayon ijtimoiy toifalar orasidagi farkni keskin uzgartiradi. Solik yigish va xalifalik xazinasini tuldirishning boshka bir usuli-bu Islomni kabul kilmaganlardan jon soligi va xiroj olinishi bulgan. Isyon kutargan va kuzgolonlarda katnashgan axolining mulklari tortib olinar, uzlari-katl etilar, ular joylashgan yerlar ikta tarikasida xarbiylar va amaldorlarga bulib berilar edi. Arablar olib borayotgan bunday siyosatga karshi kuplab xalk ozodlik xarakatlari bulib utdi. Gurak, Devashtich, Mukanna kabi vatanparvarlar boshchiligidagi ozodlik xarakatlari shular jumlasidandir. 720-722 yillarda Samarkand ixshidi Gurak va Panjikent xokimi Divashtichlar boshchiligidagi Sugdiyona axolisi arablarga karshi bosh kutarib chikdi. Kattik kurashlardan sung Xuroson noibi Sayd ibn Amir al-Xoroshiy kuzgoloni bostirdi va kuzgolonchilardan shafkatsizlarcha uch oldi.

723 yilda Farkonada kuzgolon kutarildi. Uni Shosh, Nasaf va boshka xududlarning axolisi kullab-kuvvatladilar. 725-729 yillarda esa Samarkand, Buxoro va Xutalon axolisi bosh kutardi. Bu davrlarda Urta Osiyoning boshka shaxarlarida xam norozilik xarakatlari bulib utdi, Ogori axvolga tushib kolgan istilochilar Xuroson va Movarounnaxr noiblarini bir necha bor uzgartirishga majbur buldilar. VIII asrning 70-80 yillarida arablarga karshi Xoshim ibn-Xakim-Mukanna (nikobdar) boshchiligidagi kuzgolon bulib utdi. Tarixda bu kuzgolon "Ok kiyimliklar" kuzgoloni deb xam yuritiladi. Kuzgoloning markazi Kesh yakinidagi Som (Sanam) kal'asi bulgan. Bu xarakat Kashkadaryoda boshlanib butun Urta Osiyoga tarkaldi. Kuzgolonchilar 10 yil davomida kuzgoloni bostirish uchun yuborilgan arab kushinlari bilan tengsiz kurash olib bordilar. Kurashning xal kiluvchi, oxirgi boskichi Kesh vodiysidagi toglar orasida olib borildi. Som kal'asi uzok va surunkali kamalga olindi. Natijada tinkasi kurigan kuzgolonchilar taslim bulishga majbur buldilar. Ammo Mukanna oxirgi dakikaga kadar xam dushmanga taslim bulmadi. Shu tarifa arablar siyosatiga karshi un yildan ortikrok davom etgan Mukanna boshchiligidagi ok kiyimliklar kuzgoloni maglubiyatga uchradi.

Shunday kilib, VIII asr urtalariga kelib Movarounnaxr xududada siyosiy boshkaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Sugdiyonada buxorxudotlar va boshka xukmdorlarning kuli ostidagi ma'muriy-idora usuli uz shaklini saklab kolgan bulishiga karamay, xokimlarning xalifa noibiga etishlari shart edi. Maxalliy davlat boshliklarining-kupchiligi uz xukuklari va imtiyozlarini saklab kolishga xarakat kilgan edilar. Shu tarazda arablar Movarounnaxr siyosiy tizimi va diniy e'tikodiga uz ta'sirini oldi.

VIII asr oxiri IX asr boshlarida Urta Osiyodagi ijtimoiy, siyosiy axvol. Movarounnaxrda Somoniylar davlatining vujudga kelishi va uning boshkaruv tizimi.

VIII asr oxirlari va IX asrning boshlarida Arab xalifaligining siyosiy tang axvolga tushib kolishi Urta Osiyoda mustakil davlatlarning tashkil topishia kulay shart sharoitlar yaratdi. Bunday davlatlar dastlab Movarounnaxrning shimoliy va shimoliy sharkiy xududlarida xalifalikka buysundirilmagan ulkalarda tashkil topdi. Ulardan biri Korluklar va ikkinchisi ugiz davlati edi. IX asr boshlarida xalifa Xorun ar-Rashid vafotidan keyin arablar zabit ettan mamlakatlar birin- ketin mustakillikka erisha boshladilar. Bu jarayon Movarounnaxr va Xurosonda xam boshlandi. Xususan ulkaga xukmronlik kilgan toxiriylar sulolasasi davrida (840-860) mustakil davlatga aylanishda dastlabki natijalarga erishildi. 860-870 yillarda esa Urta Osiyo Somoniylar sulolasidan bulmish aka-ukalar Nasr va Ismoil ibn Axmadlar xatti-xarakati tufayli tula mustakillikka erishdi.

Somoniylar mustakil davlat yaratish uchun, avvalo, kuchli markazlashgan xokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunar edilar. Birok aka-uka urtasidagi kushxokimiyatchilik uzokka bormadi. Natijada Nasr va Ismoil urtasida xokimiyat

uchun kurash kuchayib ketadi va bu ularning xarbiy tuknashuviga sabab buladi. 888 yilda Ismoil akasi ustidan uzil-kesil galaba kozondi. 892 yildan boshlab esa Ismoil Somoniy Movarounnaxrning yagona xukmdori bulib koladi. Ismoil Somoniy uz davrining kobiliyatli, sergayrat va zukko davlat arbobi bulib, Movarounaxr xududida yirik markazlashgan davlatga asos soldi. U uz davlatiga doimo xavf solib turgan kuchmanchilar ustiga 893 yilda kushin tortdi, Taroz shaxrini egallab, shimoldan buladigan xujumlarga bardam berdi. Kuchayib borayottan va mustakillikka intilayotgan Ismoil Somoniy siyosati Arab xalifaligini tashvishga solayotgan edi. Shu bois xalifa Mu'tazid Somoniy bilan Xuroson noibi Amr ibn Laysni tuknashtirib, uz maksadiga erishmokchi buldi. 900 yilda Ismoil xal kiluvchi jangda Amr ibn Laysni yengib, Xurosonni xam uziga kushib oldi. Natijada xalifa Somoniy davlatini tan olib, unga xukmdorlik yorligin yuborishga majbur buldi. Ana shu tarika IX asr oxirlarida Movarounnaxr Arab xalifaligi xukmronligidan xalos buldi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, islom dini umumiylar bulib, mintakada u asosiy e'tikodga aylanib bordi. Somoniylar davlatida markaziy va viloyatlar boksharuvi tizimi Ismoil Somoniy davrida uzil-kesil karor topdi. U davlat boshkaruvini takomillashtirish maksadida bir kancha isloxitlar utkazdi. Davlat boshkaruv tizimini tashkil kilish va takomillashtirishda ma'rifatli vazirlar bulmash Abdullo Muxammad Jayxoni va Abu Fazl Bal'amiylarning xizmati katta bulgan.

Somoniylar davlati tepasida amir turgan. Amirlikning ma'muriy tizimi kuyidagicha bulgan: dargox (amir saroyi) va devon (davlat idorasi). Saroydagi eng ulug mansabdor xojibi buzurg (ulug xojib) bulib, unga saroy axliga kuz-kulok bulib turish vazifasi yuklatilgan edi. Undan keyin soxibi xaros (saroy sokchilari boshligi) gурган. Amiri xaros oliy xukmdor farmonlarini ijro etgan. Dargoxning xujalik ishlari bilan vakil shugullangan. Davlat boshkarovi Buxoro Registoni atrofida joylashgan unta devon kulida bulgan.

Devoni vazir yoki xojayi kalon barcha ma'muriy, siyosiy na xujalik muassasalarini nazorat kilgan. Vazir barcha xarbiy kuchlarni xam boshkargan. Somoniylar davrida kuyidagi devonlar bulgan:

1. Devoni mustavfiy - moliyaviy ishlar devoni, uni xazinachi boshkargan
2. Devoni amid - elchilik va muxim davlat ishlarini boshkargan. U devoni rasoyil, devoni insho xam deyilgan.
3. Devoni soxibushrot - sipoxiyarlari va shox saroyini moddiy jixatdan ta'minlagan. Yiliga turt marta lashkar sipoxiyalariga maosh berilgan.
4. Devoni soxibbarid - davlat elchilari va viloyag yokimlari ustidan maxfiy nazorat ishlarini boshkargan.

5. Devoni muxtasib-bozorlarda tarozu va narx-navoni, keyinchalik axoli tomonidan shariat konun-koidalariga rioya kilinishini nazorat kilib turuvchi muassasa.

6. Devona mushrif (nazorat kiluvchi) - xazina kirim - chikimi va boshka mukim davlat ishlarini nazorat kilgan. Bundan tashkari:

7. Devoni kozi

8. Devoni ziyo

9. Devoni mamlakai xos (davlat mulklerini boshkargan)

10. Devoni vakf mavjud bulgan.

Barcha devonlarning viloyat va shaxarlarda bulimlari bulib, xokimlarga buysungan. Fakat devoni barid muassasalari markaziy davlatga buysungan. Shaxarlar maxsus raislar tomonidan boshkarilgan. Amaldorlar orasida ruxoniylarning nufuzi yukori bulib, ular shayxulislomga itoat kilganlar.

Somoniylar kushinlari muntazam va maxalliy xokimlar kulidagi ixtiyoriy yollangan lashkardan tashkil topgan edi. Somoniylarda sud ishlari shariat konun-koidalariga asoslangan edi. Sud ishlari kozilik devoni tomonidan boshkarilgan. Sud jarayoni kozikalon, kozilar, mufti, raislar tarafidan amalga oshirilgan. Oqir jinoyat kilganlar ulimga yoki uzok muddat kamok jazosiga maxkum etilgan.

Davlat xizmatchilari (amaldorlar) boy dexkonlar (yirik yer egalari)dan tayinlangan. Bunda ular yukori tabakadan bulishlaridan kat'i nazar, bilimdon, ma'rifatli kishilar bulishlari shart edi. Amaldorlar arab va fors tillarini, shariat koidalari (konunlary)ni yaxshi bilishlari talab kilingan. Shuningdek, ular dunyoviy bilimlardan xam yaxshi xabardor bulishlari kuzda tutilgan. X asrlarda xujalikning barcha soxalari rivojiana boshladi. Jumladan konchilik nixoyat darajada tarakkiy etdi. Temir, mis, kurgoshin, oltin, kumush, feroza va boshka kimmatbaxo toshlar kazib olindi. Xatto Fargonada toshkumir va neftъ topib ishlagilgan. Bu davrda mamlakatda bir tomon dan dexkonchilik yakkinci tomon dan xunarmandchilikning rivojlanishi ichki va tashki savdoning kuchayishiga olib keldi. X asrda tashki savdo muomalasida sarroflik cheklaridan keng foydalanilgan. Ichki bozorda "fals" deb atalgan mis chaka, savdo sotikda esa kumush tanga-dirxamlar ishlatilgan.

Somoniylar "ismoiliy", "muxammadiy", "gitrifiy" nomlari bnlan bir necha kumush dirxamlar chikarganlar. Somoniylar davlati yer egaligiga asoslanganligi tufayli undagi mulkiy bulinish xam turli xil shakllarga ega bulgan. Bular kuyidagilardir:

1. Mulki sultoniy-sulton (amir)ga tegishli yerlar. Undan tushadigan daromadlar davlat xazinasiga utkazidar edi. Bu daromad juda katta yer-mulkarni, shu jumladan, kup sonli dexkon mulklerini xam uz ichiga oladi.

2. Mulk yerlari-xususiy mulk yerlari. U asosan xukmron sulola vakillari xamda yukorn tabaka namoyondalari ixtiyoridati yerlar.

3. Vakf yerkari-bu machit, Madrasa va boshda diniy muassasalar tasarrufiga berilgan yerlar. Ulardan keladigan barcha daromadlar musulmon ruxoniylari manfaatlari uchun sarf kilingan. Bu yerlar solik tulashdan kisman yoki butunlay ozod etilgan.

Somoniylar davrida xam kupchilik dexkonlar ommasi turli xil solnk va tulov turlaridan tashkari davlat tomonidan kuplab majburiyatlarni utashga jalgan. Suv inshootlarini tozalash, ta'mirlash, tugonlar, kupriklar, yullar kurish shular jumlasidandir. Kishloklarda esa yersiz ziroatchilar kadevarlar, ijarachi bulib ishlaganlar barzigar deb atalgan. Yirik mulkdorlar shy korandalar, yollanib ishlovchilar mexnatidan keng foydalanganlar. Markazlashgan davlatdagi siyosiy barkarorlik jamiyat xayotining turli tomonlarining rivojlanishiga ta'sir kursatdi. Bu jarayon ijtimoiy xayotda iktisodiyot va madaniyatga xam uz ifodasini topdi. Bu yerdagi shaxarlar kiska muddat ichida musulmon Sharxining xar tomonlama rivojlangan Yirik shaxarlariga aylandi. Bu esa, uz navbatida, davlatiing ijtimoiy-iktisodiy va madaniy xayotida muxim axamiyat kasb etadi.

Somoniylar davlati xar kancha kuchli bulib kurinsa-da birok u barcha ijtimoiy ziddiyatlarni xal eta olmadi. Bu oxir okibatda uni ichdan yemirdi. Somoniylar davlati ichidagi uzaro ziddiyatlarning kuchayib borishi, kambagal tabakalar va yersiz axolinnng kuzgolonlari uning zaiflashuviga olib keldi. Shuningdek, oliy xokimiyat tizimi bilan maxalliy xokimlar urtasidagi ixtiloflarning chukurlashib borishi esa uning inkirozi bilan tugallandi. Buning natijasida X asr oxirigi kelib, bu xududda koraxoniylardan iborat yangi sulolaning xukmronligi vujudga keldi va mustaxkamlanib bordi.

### Urta Osiyoda Koraxoniylar davlati.

Koraxoniylar davlati. X asr urtalariga kelyab Yettisuv va Kashkar xududida yashovchi korlun, chigil va yagmo kabilalarining birlashuv jarayoni yangi pallaga kirdi. Korluklar madaniy tarakkiyotda boshka kabilalardan ancha yukori turgan. Koraxoniylar davlatining vujudga kelishida chigillar, tuxsilar, argunlar, yarmolar, turgashlar, kipchoklar, ugizlar, kirgizlar singari urug kabilalari xam muxim rolъ uynadilar. Bu davlatga yagmo urugidan chikkan, uz kavmi bilan islom dinini kabul kilgan Sotun Abdul- Karim Koraxon (Bugroxon) asos solgan, "Kora" iborasi kadimgi turkiy tilda "buyuklik", "uluglik" ma'nolarini anglatgan.

X asrning oxiriga kelib siyosiy jixatdan kuchaygan, xarbiy kudratga ega bulgan Koraxoniylar davlati Movarounnaxr sarxadlari tomok yurish boshlaydi. Bu davrda Somoniylar tushkunlikka yuz tutib, xukmdorlarining nufuzi va ta'siri tushib kettan edi. Somoniylar xokimiyatining asosiy tayanchi bulib kelgan turk gulomlari, ularning sarkardalari somoniylarining izmiga buysunmay kuygan edilar. Natijada 999 yilga kelib Buxoro Koraxoniylar tomonidan ishgol kilindi. 1001 yilda M. Gaznaviy bilan tuzilgan shartnomaga kura, Amudaryoning shimolidagi barcha

xududlar koraxoniylarga tegishli bulib koldi. Shu tarika Somoniylar davlati urnida 2 ta- Koraxoniylar va Gaznaviylar davlati tashkil topdi.

Koraxoniylar Movarounaxrni (va butun Urta Osiyon) egallashlari natijasida bu yerdagи siyosiy, ijtimoiy va iktisodiy xayotda katta uzgarishlar ruy berdi. Somoniylar davrida vujudga kelgan markazlashgan davlat urnida mamlakatni udel tizimi (ayrim viloyatlarga bulingan tizim asosida boshkaruv urnatildi. Kashkardan Amudaryogacha chuzilib ketgan katta xudud bir necha viloyatlarga bulingan edi. Movarounnaxr viloyatlarining poytaxti Samarkand, Frgonaning poytaxti esa Uzgan bulib, Kashkarda bosh (xokon) istikomat kilgan.

Shunday ulkan xuddagi barcha yerlar koraxoniylar xonadanining (sulolasining) shaxsiy mulki xisoblanib, uning tepasida ulug (bosh) xon turgan. Sulola boshligi "xonlar xoni" yoki "sultonlar sultoni" nomi bilan yuritilgan. Rasman 6u "Tamgachxon" deb atalgan.

Udellar (viloyatlar)ni koraxoniylar avlodi vakillari boshkargan. Masalan, Sharofuddin ismli Tamgachxon viloyatlarni aka-ukalari, ugillari va karindosh-uruglariga bulib bergen, uzi esa bevosita Kashkar va Bolasogunni boshkargan. Demak, ilgarigi xonlar, amirlar singari davlat boshkaruvida sulola vorisligi saklanib kolgan. Ammo "xonlar xoni" (Tamgachxoy) bilan viloyat xonlari (ilokdonlar) urtasida aloka, munosabatlar mustaxkam bulmagan.

Koraxoniylar davlati boshligi lavozimi - xokon taxti merosiy sanalgan. Ma'muriy idoralar ikkiga bulingan: dargox va devonga. Xokonning ulug xojibi xokon bilan fukaro urtasida vositachilik kiltan. Xokon xarbiy kushinlari cherik deyilgan, unga suboshi yoki sipaxsolar kumondonlik kilgan. Kushin unlik, yuzlik, mingliklarga bulingan. Xokon koshida doim tukkizta sarik bayrok xilpirab turgan. Xokonlikda elchi yalovoch yoki yalafar deb atalgan. Tamgachxonlar uz pullarini chikarganlar. Bu pullar misdan yasalgan (zarb atilgan) tangalardan iborat edi. Milliy pul chikarash, ma'lumki, davlat mustakilligining muxim alomatlaridan biridir. Koraxoniylar uz xususiyatlarini saklab kolgan xolda, somoniylar davridagi idora atish (boshkaruv) tartib-koidalalarini kullaganlar va somoniylar davlatida xizmat kilgan kuyi pogonadagi ilmlı xodimlardan foydalanganlar.

Xokonlik xududlari el viloyatlarga bulingan. El-yurt xokimlari "Ilakxon" viloyat noiblari "takin" deb yuritilgan. Ilakxoklar uz nomlari bilan chaka tangalar zarb kilar, viloyatlarning mustakilligi uchun intilar edilar. Viloyat boshkaruv ma'muriyatida somoniylar davridagidek soxibbaridlar, mustavfiylar xizmat kilardi. Shaxarlar va shaxar xokimi, rais va muxtasiblar tomonidan boshkarilardi-Xar bir xon uziga mustakil bulishga intilgan, bu esa davlatning zaiflanishiga olib keladi. Imomlar, saidlar, sadrlar katta imtiyozga ega bulganlar. Koraxoniylar ularni izzat kilib kullab-kuvvatlaganlar.

Koraxoniylar davrida bir kator ijtimoiy uzgarishlar sodir buldi. Ularning asosiy tayanchi bulmish kuchmanchi chorvadorlarning bir kismi dexkonchilik

bilan shugullanib utrok xayotga utdi. Utrok dexkon axolisi urtasida feodal munosabatlarning rivojlanishi tez sur'atlar bilan bordi va sinfiy tabakalanish jarayoni kuchaydi.

Ilgari jamiyatda, davlatda katta mavkega, imtiyozlarga ega 6ulgak yirik yer egalari (ma'lumki, ular dexkonlar deb atalardi) koraxoniylar xukmronligi davrida uz imtiyoz-ustunliklarini yukotdilar, xatto kuplari yerlaridan maxrum buldilar, oddiy xalk katoriga tushib koldilar. Illy vaktdan boshlab "dexkon" suzi yerda ishlaydigan oddiy tabakaga tegishli bulib koldi. Davlat ixtiyoriga utgan dexdon yerlari xarbiylar, ruxoniylar va boshka oliv tabaka vakillariga xizmatlari evaziga ikta sifatida bulib beriladi. Shu davrdan boshlab, zamindorlar "iktadorlar" deb atala boshlandi. Koraxoniylar davrida xududimizda turklashish jarayoni, ya'ni turkiy kabilalarning, turkiy tilning bu zaminda yashab kelayotgan sharkiy eron tilida suzlovchi kabilalarga, elatlarga ta'siri, turkiy urf-odatlarining yoyilishi, xayotga kirib borishi kuchaydi. Koraxoniylar xukmronligi davri uzbek, uygur, kozok, kirgiz, turkman, korakalpok va boshka turkiy xalklarning etnik shakllanishida muxim boskich buldi. Turkiylarning mavkei oshdi, utrok axoli son jixatdan kupaydi, axoli urtasida ijtimoiy tabakalanish jarayoni kuchaydi. Mamlakatda dexkonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik, me'morchilik, madaniyat, san'at ravnak topdi.

XI asrning 40 yillariga kelib koraxoniylar urtasidagi sulolaviy kurashlar okibatida xonlik ikkiga bulinib ketadi. Garbiy xonlik markazi Buxoro bulib, unga Movarounnaxr va Fargonalning garbiy xududlari knrgan. Sharkiy xonlik markazi Bolasogun bulib uning tarkibiga Talos, Isfijob, Shosh, Fargonalning sharkiy kismi, Yettisuv va Kashkar yerlari kirgan. Koraxoniylarning yer, mol, dunyo va davlat talashib Gaznaviylar, salju'kiylar za koraxoniylar bilan olib borgan urushlari natijasida davlat kuchsizlanib boradi. 1130 yilda Koraxoniylar davlati saljukiy Sulton Sanjarga karam bulib koldi. 1211 yilda esa Xorazmshox Aloviddin Muxammad koraxoniylarga sunghi zARBANI berdi va Movarounnaxrda koraxoniylar sulolasini tugatdi.

Gaznaviylar davlati. X asrning ikkinchi yarmiga kelib Gazna shaxri Xurosonning siyosiy markaziga aylandi. 962 yili Sobuktakin Gaznaviylar davlatiga asos soldi. Ular kelib chikishiga kura turkiy kavmga mansub edi. Sobuktagin 987 yilda vafot etadi. 998 yili Sobuktakining tungich ugli taxtni egallaydi. Ilmiy adabiyotlarda kupinchha Maxmud Gaznaviy deb yuritilgan Abdulkosim Maxmud (998-1030 y) xukmronligi davrida olib borilgan keng kulamdag'i istilochilik siyosati natijasida buyuk Gaznaviylar davlatini barpo etildi va by saltanat 200 yildan ortik xukm surgan. 1017 yil Maxmud kushinlari Xorazmni bosib oldi. 1002 yilda Seistonni, 1010-1011 yillarda Afganistonning shimolidagi Tog viloyati Gurni kulga kiritdi. Maxmud Xindistonga 1002-1026 yillarda gayridinlarga karshi mukaddas urush shiori ostida 15 martadan ortik yurish kildi.

Sulton Maxmud davrida Gaznaviylar davlati xar tomonlama rivojlanib bordi. Mamlakat poytaxti Gazna va boshka shaxarlarda kuplab masjidu madrasalar, kurkam karvonsaroylar bonyod etildi. U ilm ma'rifatga e'tibor berdi. Saroyda ilm-fan arboblari va adabiyot axlining anjumanlari muntazam utkazilib turilgan. Ulug alloma Abu Rayxon Beruniyning xam sulton saroyida kup muddat faoliyat kursatganligi buni isbot etadi. Lekin Maxmudning ugli va valiaxdi Mas'ud xukmronligi davrida (1030-1041) Gaznaviylar davlati uz kul ostidagi xududlarni birin-ketin kuldan chikara borib, tanazzulga yuz tuta boshladi.

Gaznaviyarning asosiy rakibi Saljukiylar buldi. 1040 yil Dandanakon yakinida bulgan jangda sulton Mas'ud kushini saljukiylar tomonidan malubiyatga uchratildi. 1186 yili guriylar sulolasidan bulgan Giyosiddin Muxammad kushinlari Panjob bilan cheklanib kolgan Gaznaviylar xokimiyatini uzil-kesil tor-mor kildi.

Saljukiylar davlati. Urta Osiyo xalklari tarixida muxim iz koldirgan Saljukiylar davlati dastlab IX asrning ikkinchi yarmi va X asr urtalarida Orolbuyi va Kaspiybuyi xududlarida yashagan uguzlar ittifoki negizida shakllangan edi. Uguzlarning muayyan sabablar bilan xozirgi Turkmaniston yerlariga utib, islam dinani kabul kilgan va usha joydagi yerli axoli bilan singishib ketgan kismi turkmanlar nomini olgan. Uguzlarning yobgusi (etakchisi) Saljukbek yangi davlatga asos solgan. Uning avlodlari-Tugrulbek, Chagribek va Shakarbeklar bu davlatni buyuk sultanat darajasiga kutardilar. Uguzlar turli xalklarning, chunonchi, uzbek, turkman, turk gagauz va boshka elatlarning etnik shallanishiga sezilarli ta'sir kursatganlar. Saljukiylar davlati Sulton Sanjar (1118-1157) davrida uz xududlarini yanada kengaytiradi. Bu davrda Xorazm rasman Saljukiylar nomidan boshkarilgan. Koraxoniylar xoni Arslonxon (1102-1130) xam Sulton Sanjar bilan xisoblashishga majbur bulgan. 1130 yilga kelib Sulton Sanjar koraxoniylar poytaxti Samarkandni egallagach, amalda butun Movorounnaxrga xukmron bulib oladi. Birok 1141 yilda Katvon chulida koraxoniylar bilan bulgan tuknashuvda saljukiylar kakshatgich zarbaga uchragach, ularning xukmronligi xam inkirozga yuz tutadi. 1157 yil Sulton Sanjar vafotidan keyin Saljukiylar davlatining Movarounaxrdagi ta'siri amalda bardam topdi.

Xorazmshoxlar davlati. Undagi siyosiy, ijtimoiy, iktisodiy xayot. VIII asr oxiri IX asr boshlarida Urta Osiyodagi ijtimoiy, siyosiy axvol.

Xorazmshoxlar davlati 1017 yilda Maxmud Gaznaviy tomonidan zabit etib, uz mustakilligidan maxrum bulgan Xorazm kup vakt utmay (1044), saljukiylar davlatiga karam bulib koldi. Saljukiylar xukmdori Malikshox uz ma'murlaridan Anushtakinni Xorazmga noib xukmdor kilib tayinlaydi. Anushtakin vafotidan sung Xorazmda uning vorisi Kutbiddin Muxammad (1097-1127) noiblik kildi. Xorazmning mustakilligi uchun kurash XII asrning ikkinchi choragidan boshlanadi. U Kutbiddin Muxammadnikg ugli Otsiz (1127-1156) nomi bilan boglikdir. Moxir diplomat va gayratli lashkarboshi Otsiz va uning vorislari

Xorazmni saljukiylar tasarrufidan ajratib olib, mustakilligi yulida Movarounnaxr va Eronda sodir bulgan turli kulay siyosiy vaziyatdan foydalandilar. Shunday kilib, Otsiz Kaspiy dengizi soxillaridan to buyuk okimiga kadar bulgan yerlarda, keyinchalik buyuk davlat sifatida shuxrat topgan Xorazmshoxlar davlatning poydevorini barpo etdi. Otsiz siyosatini uning vorislari Elarslon (1156- 1172) va Alouddin Takash (1172-1200Y.) davom ettirdilar.

1156 yilda Sulton Sanjarga karshi kuchmanchi guzlar isyon kutardi. Buning okibatida Saljukiylar davlati keskin zARBAGA uchrab, parchalanib ketdi. Xorazmning xukmronlik doirasi kengayib, uning mustakilligi yanada mustaxkamlandi. Xorazm davlati, ayniksa, Otsizning nabirasi Takash davrida kengaydi. U 1187 Yili Nishopurni, 1192 yilda Rayni, 1193 yilda Marvni egalladn. 1194 yilda Saljukiylar sultoni Tugrulbek II ga zarba berdi. 1195 yilda Ironii egalladi. Butun Shark va garbiy Eron xududlari Takash kuliga utdi na Xorazmshoxlar davlatining yerlari ikki barobardan kuprok kengaydi. Takash davlati xarbiy feodal davlat edi. Uning doimiy 150 ming kishilik kushini bor edi. Xorazmshoxlar davlatining siyosiy tizimi ancha samarali edi. Unda devon bosh idora xisoblanar edi. Devon tepasida turgan vazir davlat ichki va tashki siyosatini uz kuli ostidagi xodimlar orkali amalga oshirar edi. Takashning xotini Turkonxotun tufayli Xorazmga kelgan turk zodagonlari va kipchokdar davlatning barcha mas'uliyatli lavozimlarini va kushinda kumondonlik urnini egallaydilar. Takashdan sung uning ugli Sulton Muxammad Alovuddin (1200- 1220) xam Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettiradi. Dastlab u Xirot va uning atroflari xamda Xurosonning Xorazm davlatiga kiritilmagan viloyatlarini egalladi, U koraxoniylarga zarba berib, Movarounaxni ular kulidan tortib olishga xarakat kildi.

XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Unnng shimoliy-garbiy va garbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi soxillaridan janubiy garbda Irokka kadar borar edi. Janubiy-sharkiy xududlari Razna viloyatidan, shimoliy-sharkiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Kipchokdan utar edi. Bu ulkan davlatning poytaxti Urganch shaxri edi. Birok kulga kiritilgan muvaffakiyatlar xorazmshox Alovuddin Muxammadni esankiratib kuydi. U uzini dunyoda eng kudratli, yengilas shox deb xisobladi. Shu bilan birga uzini "Iskandari soniy" (Ikkinci Iskandar) deb xam atay boshladi uz mamlakatida jabr zulm kuchaygani sababli xalk kuzgolonlari bulib utdi. 1217 yil Xorazmshox lashkarlarining Bogdodga karshi yurishida omad uncha bokmadi. Birok 1219 yil mugullar Movarounnanrga xujum boshlaganligi tugrisida xabar keldi. Xorazmshox fakat tashki kurinishdangina kuchli kurintr edi. Viloyat xukmdorlarining isyonlari, xalkning norozilik xarakatlari Xorazmshox davlatnni zaiflashtirdi. Chingizzon boshlik mugullar xujumiga bardosh bera olmay, saltanat tez fursatda kuladi.

Markazlashgan mugullar davlatining tashkil topishi. Chigatoy ulusi. Undagi siyosiy, ijtimoiy-iktisodiy axvol.

XI-XP asrlarda mugullar ijtimoiy, iktisodky va madaniy xayotda kolok xisoblanar edi. Ularda xali urug-aymokchilik munosabatlari kuchli bulib, asosan chorvachilik, ovchilik va uzaro tovar ayirboshlash, savdo-sotik bilan shugullanib kelishgan. XII asr oxiri - XIII agr boshlarida mugul urug boshliklari orasida ichki kurashlar avj oldi. Bu kurashlarda Temuchin ismli baxodir golib chikib, 1204-1205 yillarda kuchmanchi chorvador uruglarni siyosiy jixatdan birlashtirishga muvaffak buldi. 1206 yilda u Onon daryosining yukori kismida kurultoy chakirdi. Bu kurultoyda Temuchinga Chingizzxon unvoni berildi, ya'ni kuchli, kattik, shiddatli dengizdek xon ma'nosini bildirgan.

Ana shu tarika Temuchin kup sonli jangari kabilalar sultanating kuchli xukmdoriga aylandi. Bu sultanat kudratining uzagini Chingizzxon yurgizgan kattikkul va xukukiy jixatdan asoslangan, markazlashgan siyosat tashkil etdi. Diniy va ijtimoiy faoliyatning barcha soxalarini uz ichiga olgan bu xukukiy siyosat 1206 yildagi kultoyda kabul kilingai "Yaso" konunida asoslab berilgan edi. Ta'kidlash joizka, "Yaso" kup yillik xayot tajribasi, kabilia va uruglarning urfu-odati, an'anasi, uzini oklagan udumlar asosida tuzilgan edi. Mintakada tarixida dastlab xykykiy xujjat bulganligi bois "Yaso" moxiyatiga bir oz tuxtalmok lozim. Unda:

- xonning vazifalari va xukuklari belgilangan.

Xattoki ulug xon uz burchini tulik bajarmasa, uni xokimiyatdan chetlashtirish fikri xam aks ettirilgan;

- kushinni tashkil etish tamoyillari yoritilgan. (un, yuz, ming, tuman...) tizimi uzok asrlar davomida kator mamlakatlarda kullanilgan. Uziga xos xolat shundaki, kushinga davlatning xech kanday mablag xarajati kuzda tutilmagan bulib, xar kaysi jangchi uz ovkati, kuroli, zarur buyum va anjomlari uchun uzi kaygurishi kerak bulgan. Ya'ni yashash va kurash mezoni olinadigan uljaga boglik kilib kuyilgan, xayotiy zarurat darajasiga kutarilgan edi. Jang uslubi oddiy, yoppasiga, birvarakayiga xujumga utishga asoslangan bulib, kurkoklik, sotkinlik kattik jazoga tortilar edi;

- jazo chorralari aks ettirilgan. Suvni yeki sutni ataylab tukib yuborish dasht sharoitida kechirilmas jinoyat sifatida koralar edi. Ugrilik, ochik talon-tarojlik razil odal sanalar, ugirlangan mol tukkiz barobar mikdorida undirib olinardi;

- ayollar xukuklari ta'kidlangan. Xususan, urush sharoitida avlodlar kelajagini ta'minlash sifatida baxolangan ayollarning uz eriga xiyonati konun tomonidan kechirilgan.

"Yaso" koidalalarini xamma bajarishi shart emasdi. Mamlakat oldidagi buyuk xizmatlari uchun shaxsan Chingizzxon marxamatiga erishib "tarxon" unvoniga ega amaldorlar uni xatto 9 marta buzishlari mumkin bulgan. Birinchi kurultoydayok bir

ba'zi bir muallimlarning rafikalari yoki savodxon ayollar otinoyilik kilganlar. Ular kizlarning savodini chickarganlar. 1897 yilda Andijon atrofida paxta zavodi koshida dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Shundan keyin bunday kata shaxarlarda xam maktablar ochila boshlandi. Yangi usul maktablari uz oldiga kuyidagi vazifalarni kuygan: 1. Yosh avlodga xozirgi zamon xayotida kerak bo'ladigan bilimlar berish; 2. Eski usul ta'lif mazmuniga yopishib kolmasdan, zamonaviy ta'lif usularini kulash: Rossiya mustamlakachiligi Turkiston axolisini rus muxitida tarbiyalash, sungra ruslar bilan maxalliy xalklarni aralashtirib yuborib, shu yerda Yevropacha turmush tarzining galabasini tula ta'minlashga intildi. 1880 yilda imperiya Davlat kegashida Turkistondagi maxalliy axoli bolalarini ruslar bilan birqalikda ukitish masalasi kutarilib, unga xarbiy vazir general-ad'yunan graf Mulyutin, maorif vaziri graf Tolstoylar rozilik berishdi. Bu masalaga ya'ni rus tuzem maktablarini shu jabxadan turib xal kilishni Rozinbay gayrat bilan kirishib, u boshlangich maktablar "rus tuzem" maktablari tarmogini yaratish loyixasini ishlab chikdi. 1884 yilda Toshkentda birinchi rus tuzem maktabi ochildi. 1888-1899 yillarda shaxsan general-gubernatorning tashabbusi va faol ishtiroki bilan dastlab katta yeshdagi turkistonliklar keyin esa keyin esa ukuvchilar Rosssiyaga sayexatga yuborildi. Bundan kuzatilgan maksad xakida Turkiston ulka bilim yurtlari bosh inspektori F. Kerenskiy shunday fikr bildirgan-Sartlar va kirgizlarning bolalari Rossianing ulugvo ligi, kudrati va boyligini kurib, axolisining mashgulotlari, mexnat unumi, sanoati va savdo sotigi bilan tanishib, bu xakda uzok vakt eslab, boshkalarga gapirib yurishadi. Birinchi saexatchilar 1899 yilda xarbiy vazirning shaxsan uzi kabul kilib, ularni "aziz mexmonlar" deb atadi. Vazir ularga sovga tarikasida 300 sum berdi. Saexatchilarni Sarskoe seloga tamoshaga yuborib, ularga yul boshlovchi kilib general shtab polkovnigini tayinladi. Zieratchilar Sarskoe seloda kurikni kuzatishaetganda ularning oldiga general, shtab boshligi, sungra imperotorning amakisi buyuk knyaz kelib kurinish berdi. Toshkent, Samarkand, Andijon, Kukon kabi shaxarlardan kelgan 14-18 yeshlardagi 15ta uzbek, 2ta kozok, 1ta tojik ukuvchi "davlat panox imperator"-ok podshoning iltifotiga sazovor buldilar. Turkiston yeshlari ikki oy davomida Sank-peterburg, Moskva va boshka yirik shaxarlarni kurdilar. Keyingi ikki ekskursiya xam shunday dabdabali ravishda uyushtirildi.

Chorizmning Turkiston ulkasi axolisini ruslashtirish siesatining riekorligi shunda ediki, rus amaldorlari uzbek, kozok, kirgiz, turkman, tojik xalklari orasidan yetishib chikkan va ruschani mukammal urgangan odamlarni xushlamay ulardan chuchib turgan va urni kelganda ta'kib kilgan. Chunki bunday ma'rifatparvarlar uz xalklarining kuzini ochishlari, xak-xukuklarini tanishlari va milliy onglarini ustirishlariga bevosita ta'sir kursatishlari mumkin edi. Rus amaldorlariga esa ruschani yaxshi bilgan va xalkning kuzini olib gaflat uykusidan uygotadigan zielilar kerak emas edi. Mustamlaka ma'muriyati Turkiston zielilari katta mavke va mansabga erishsa, uz xalklari uchun sadokat bilan xizmat kilishlari,

mustamla ka tartiblariga karshi chikishlari va bu xarakatga bosh bulish lari mumkunligidan xavfsirashgan. Shuning uchun xam ularni ma'lum chegarada saklab, eng muxim masalalar xal etiladigan idoralardan chetlatishgan. K.Pobedonostsev rus ma'muriyati xizmatiga kanday odamlar olinishi lozimligi xakida bunday degan edi-"Bizga ruschani gapirganda tutilib-tutilib kizaradigan, ruscha xatni chala savodlarcha yezadigan, fakat gubernator ordangina emas, balki balki xar kanday amaldordan xayikib, kul kovushtirib turadigan nomzodlar ma'kul". Mana shu ko'rilgan yul-yuriklarning ulkada amalga oshirilishi ulka farzandlarining rus-tuzem mакtablarida xakikiy ilm olishlariga emas, balki imperiya uchun yet millatlardan sodik mutelar tayerlashdek siesiy maksadlarga yunaltirilganligidan dalolat beradi.

#### 4.Turkiston (Qo'qon) muxtoriyati

Bolsheviklar boshchiligidagi sho'rolarning bunday shovinistik siyosati o'lka xalqining ular yetakchilarining noroziligiga sabab bo'ldi. Shu sababli muxtoriyat uchun kurash oktyabrb to'ntarishidan so'ng musulmon sho'rolari va firqalarning bosh vazifasiga aylandi. Ularning bu kurashiga bolsheviklar rahbarining barcha musulmon aholisiga tenglik, ozodlik, o'z taqdirini o'zi belgilash, ajralib chiqish huquqlari berilganligi haqidagi murojaati ham turtki bo'ldi. 1917 yil 27 noyabrda Qo'qon shahrida "Shuroi Islomiya", "Ulamo", va "Alash O'rda" partiyalari xalq ommasining istaklarini ifoda etib, IV o'lka musulmonlari favqulotda S'ezdiga to'plandilar. S'ezdda Farg'ona, Sirdaryo, Samarkand, Buxoro va Kaspiy orti viloyatlaridan ikki yuzdan ortiq delegatlar qatnashdi. Shuningdek, yaxudiy tashkilotlardan vakillar ham bor edi. S'ezdda Mahmud xo'ja Bexbudiy S'ezd xay'atiga nomusulmon vakillarini ham kiritishni taklif etdi. S'ezd delegatlaridan biri bu masalaga to'xtalib: "Xay'atga saylov viloyatlar va alohida diniy hamda milliy guruhlar bo'yicha emas, balki bilimdon zukko va ishbilarmonligiga ko'ra o'tkazilishi kerak", -degan edi.

S'ezdda Turkiston avtonom hukumati "Turkiston muxtoriyati" tuzilib, Alash O'rda rahbari Muhammadjon Tinishpoev unga boshliq qilib saylandi. Biroq ko'p o'tmay hukumat raisligiga "Sho'roi Islomiya" rahbari partiyasining Mustafo Cho'qaev tayinlandi. Hukumat tarkibiga 54 kishi kiritilib, Islom Shoahmad o'g'li moliya noziri, Mahmud o'g'li adliya noziri, Potyalyaxov oziq-ovqat noziri, Mustafo Cho'qaev ayni bir vaqtida tashqi ishlar noziri, Ubaydulla xo'ja harbiy nazir etib saylandi. Polkovnik M.Chanishev bosh qo'mondon, Saidnosir Mirjalil esa xazinachi lavozimini eg'alladi.

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, Turkiston muxtoriyati boshqaruva kengashida 54 o'rindan 18, ya'ni uchdan bir o'rin o'lkadagi ovrupalik millatlar tashkilotlarga ajratildi. Shu tarzda muxtoriyat a'zolari demokratik va umummanfaat asosida saylangan edi. "Turkiston muxtoriyati"ning tuzilishi va uning atrofiga bolsheviklarning zo'ravonligidan norozi bo'lgan rus oq gvardiyachilarining, rus

kapitalistlarining va boshqa oppozitsiya kuchlarining birlashishi bejiz bo'lмаган, albatta. Turkiston muxtoriyati qo'l ostida harbiy kuch va mablag' bo'lmasligi orqasida har jihatdan yaxshi uyuştirilgan va qurollangan Qizil Armiyaga bas kelishining xech iloji yo'q edi. Shu boisdan muxtoriyat rahbariyati rus oq gvardiyachilari va kapitalistlari hamda xorijiy mamlakatlar ko'magida maqsadga erishish mumkinligini yaxshi anglagen edi. Ular o'zlarining qiyin ahvolini hisobga olgan holda bo'lajak barpo etiladigan Rossiya davlatining tarkibida Turkiston muxtoriyatini tashkil etishni rejalashtirganlar. Bu o'sha vaqtdagi sharoitda juda to'g'ri qilingan ish edi. Muxtoriyat hukumati sirdan qaraganda muxtoriyat shaklida yagona Turkiston davlatini tuzishni mo'ljallagan edi. Lekin amalda mustaqillikni ta'minlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Bu haqda Muxtoriyat hukumatining xalq ommasiga yo'llangan murojaati guvoxlik beradi. Bu Turkistonning barcha fuqarolari musulmon, rus, yaxudiy, ishchi, askar, dehqonlarga qaratilgan chaqiriqda bunday deyilgan edi: "O'lkada yashovchi barcha qabila va xalqlar, shahar va zemstva kengashlari, siyosiy, jamoat, kasaba tashkilotlari va uyushmalar, barcha davlat, jamoat xususiy masalalarini Turkiston xalq hokimiyati atroflicha jipslashishga va unga yuklangan og'ir vazifalarni xayotga tadbiq qilmoq uchun yetarli yordam berishga chaqirdi. Shunday vaqt keldiki, endi kishanlardan qutilgan Turkiston o'z yerining egasi bo'ladi va o'z tarixini o'zi yaratadi. Oldimizda turgan vazifalarning jiddiyligi va ulug'vorligini anlab, ishimizning haqligiga chuqrishongan holda biz bu mehnatlarimizga ollohning rahmati yoyilishini tilaymiz va ishga kirishamiz. Ko'rinish turibdiki, Muxtoriyat hukumati millat va diniy etiqodidan qatiy nazar o'lkadagi barcha mazlum xalqlarni demokratik asosda mustaqillikka erishishiga da'vat etgan. Turkiston muxtoriyatini o'lka ahli to'la yoqladi. Bu haqda 1917 yil dekabrida Toshkentda ikki marotaba o'tkazilgan umumhalq yig'inda Munavvar Qori, Mulla Odil Mufti, Sayd G'anixon, Sherali Lapin, Pirmuhammad A'lam nutq so'zladilar. Shuningdek, o'zbek ishchilari, kasb hunarmandlaridan 15 kishi so'zga chiqdi. Bu yerda 13 dekabrda Xayit kunida katta namoyish o'tkazishga kelishdi. Shu kuni qizil askarlar xalq namoyishini o'qqa tutdilar. Bir necha kishi kamoqqa olindi. O'sha yilning 26 dekabrida Qo'qonda musulmon ishchi va askar vakillarining I favqulotda s'ezdida "Qo'qon (Turkiston) muxtoriyati"ni yoqlovchi qaror qabul qilindi.

Xullas, Turkiston muxtoriyatining tarafдорлари kundan-kunga ko'chayib bordi. O'lkaning Sovet organlari esa muxtor Turkiston muvaqqat hukumatini tan olmasliklarini birinchi kunlaridayoq ma'lum qildi. Ular bu hukumatni "Turkistonning bir to'da boylari va ruhoniylari" manfaatlarini ifoda qiluvchi aksi inqilobiy, burjua inqilobi deb baholadilar. Muxtor hukumat tarafida bo'lganlar jazolana boshlandi. Toshkent shahar dumasi tarqatildi. "Turkistanskiy vestnik" gazetasi yopildi. Samarqand "Shuroi Islom" tashkilotining faoliyati taqiqlandi. Halqning aksariyat qismining muxtoriyatni qo'llab-quvvatlashi, sho'ro

hukumatining muxtor hukumatga qarshi targ'ibotlari, ayniqsa 1918 yil yanvarida bo'lib o'tgan ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlari IV o'lka se'zdi qarorlari ikki hukumat muholifligini yanada keskinlashtirdi. Buning ustiga muxtor hukumat ichida ham ziddiyatlar vujudga kela boshladi. "Sho'roi Islomiya" bilan "Ulamo" o'rtaсидаги avvalgi qarama-qarshiliklar yana qalqib sirtga chiqdi. Ular muxtoriyatning asl mohiyatini va uni qo'lga kiritishning usul amallarini har-xil tushunar edilar. 13 dekabrda Toshkentda sho'rolar hukumati tomonidan begunoh odamlarning qonini to'kilishidan norozi bo'lgan "Ulamo"chilar 1918 yil 5 yanvardagi mitingda muxtor hukumatga norozilik bildirdilar. Bu norozilik muxtor hukumat rahbariyati almashuviga ham sabab bo'ldi. M. Tinishpoev o'rniga M. Chukaev bosh vazir etib tayinlandi. Moddiy ta'minot, harajatlar sarfi oshib boraverdi. 1918 yil yanvariga kelib, Qo'qonning o'zida ham vaziyat keskinlashdi. Qo'qon Soveti qo'lida bo'lgan yangi shahar bilan Muxtor hukumat qo'lidagi eski shahar o'rtaсидаги qarama-qarshilik ham yanada avj ola boshladi. Mana shunday ikki tomonning bir-biriga dushmanligi oshib turgan bir vaziyatda 1918 yil 30 yanvar kuni noma'lum kishilar telefon stantsiyasi va Qo'qon Soveti binosiga hujum uyushtirdilar. Aynan shu harakat keyingi fojiali voqealarga sabab bo'ldi. Favqulodda holat joriy etildi. Qo'qon Soveti muxtor hukumatga aybdorlarni tutib berish, qo'lga olinganlarni 3 soat ichida ozod qilish haqida ul'bitmatum topshirdi. Yalpi safarbarlik e'lon qilinib, Toshkent va boshqa shaharlardan madad so'raldi. 31 yanvarga o'tar kechasi Skobelevdan K. Osipov otryadining kelishi bilan zo'rayib qolgan Qo'qon Soveti qurolli kuchlari ertalabdan eski shaharni pulemyotdan o'qqa tuta boshladi. O'z navbatida qarshi tomonidan ham o't ochish boshlandi. Revkom K. Osipovga muvaqqat hukumatni kamoqqa olish va ularni artileriyadan o'qqa tutishga ruxsat berdi. Shaharning Muxtor hukumat joylashgan qismida yong'in boshlandi, o'g'irliklar avj oldi. G'azablangan xalq ham qo'liga nima tushsa, qurollanib hukumat harbiy qismlari bilan ko'cha janglariga kirib ketdilar. Biroq bu urinishlar bexuda ketdi. Omon qolib nochor qolgan aholi sarosima ichida shahardan qochib yaqin atrofdagi qishloqlarga yashirindi. Muvaqqat hukumat militsiyasi boshlig'i Ergash va uning tarafdarlari hokimiyat to'ntarishi yasadi. M. Chukaev mahamasi ag'arildi. Harbiy kengash raisi M. Chanishev va uning eng yaqin safdoshlari rus ofitserlari kamoqqa olindi. Chukaev hukumatining demokratik qnotini tashkil etuvchi boshqa a'zolar Ergashdan yashirinib Qo'qonni tashlab chiqib ketdilar. Faqat ichki milliy kuchlarga tayanuvchi Turkiston mustaqilligi uchun oxirigacha kurashga jazm qilganlargina qoldi, xolos. 1918 yil 5 fevraldan 6 fevralga o'tar kechasi Turkiston xalq komissarlar Soveti tomonidan o'lka harbiy komissari Ye.O. Perfil'ev boshchiligidagi ikkinchi etalon harbiy qismlar Qo'qonga kelib, 6 fevralda ular eski shaharga bostirib kirdilar. Muxtoriyat qo'shinlari vahimaga tushib tinch aholi bilan shaharni tashlab chiqa boshladi. Bu harakat natijasida eski shaharning uchdan bir qismi

yakson bo'ldi. Aholi o'rtasida ko'p qurbanlar bo'ldi. O'sha davrdagi "ulug' Turkiston" gazetasida yozilishicha "Qo'qon o'lilar shahri"ga aylantirildi. Muzokalar boshanib, 9 (22) fevral kuni "Tinchlik shartnomasi"ni imzolandi. O'qqa tutilgan, talangan, taxqir qilingan aholi Sovet hokimiyatini tan olishga majbur etildi.

Muxtoriyatchilarning Sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etilishi tarixda "Qo'qon fojiasi" deb nom oldi. "Turkiston muxtoriyati"ning o'zi esa o'lka xalqlari ozodlik harakatining qudratli, haqiqat ramziga, erkinlik va mustaqillik uchun kurash ramziga aylandi.

### 5.Xiva xonligi va Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat.

Oqtyabrb to'ntarishi va Turkistonda Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin O'rta Osiyo xonliklarining ichki va tashqi siyosiy ahvoli keskin o'zgarib bolsheviklarga nisbatan adovati, ularning Turkistondagi hukumatni tan olishdan bosh tortishi kuchaydi. Ikkala xonlik jadallik bilan o'z qurolli kuchlarining jangavor saloxiyatini oshira boshladi. Zo'rayib borayotgan ochlik, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarning xaddan tashqari ko'tarilishi, harbiy zulm xonliklarning ichki siyosiy hayotida beqarorlikni yuzaga keltirdi. Turkiston bolsheviklari va sho'ro hukumati xonliklarning ichki ishlariga qo'pol suratda aralasha boshladi. Kolesov 2 mart kuni qizil gvardiyachi otryadlar va Yangi Buxoro ishchi drujinalariga Eski Buxoroga bostirib kirish to'g'risida buyruq berdi va amirni sulh tuzishga rozi bo'lishiga majbur etdi. 1918 yil 25 mart kuni Qiziltepada sulh bitimi imzolandi. Bu ishlardan maqsad Buxoro amirini ogoxlantirish va uning sovetlarga qarshi istehkomga aylanib ketishiga yo'l qo'ymaslik edi. 1919 i 9 aprel kuni Xevaga yaqin Taxtada RSFSR bilan Xeva o'rtasida yarash to'g'risida shartnomasi imzolandi. 1919 yilning yozidan boshlab Sovet Turkistoni bilan Buxoro va Xeva o'rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashdi. 1920 yil 2 fevralda Sayd Abdulla taxtdan voz kechdi, butun hokimiyat muvaqqat inqilobiy hukumatga topshirildi. 1920 y. 26 aprelda Butunxorazm 1 qurultoyi Xorazm xalq Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi. Hukumat xalq nozirlari soveti tuzildi. Uning raisi qilib Polvonniyoz Yusupov saylandi. Buxorodagi voqealar ham xuddi shunga o'xshash rivojlanib bordi. Buxoro amirgini M.V.Frunze «Sovet tanasidagi jarohat» deb atagan edi. 1920 i 10 avgust kuni RKP(b) Markaziy komitetining Siesiy Byurosi Turkiston frontining Inqilobiy harbiy Kengashi uchun Buxoro masalasi yuzasidan maxsus direktivalar qabul qilindi. Tayergarlik RKP(b) Markaziy Komiteti tomonidan ishlab chiqilgan reja bo'yicha olib borildi. Amirlik ag'darildi. 1920 y. 14 sentyabrda Abduqodir Muxiddinov raisligida UmumBuxoro inqilobiy komiteti tuzildi. Hukumat- xalq nozirlari Soveti tuzilib, ularga rais F.Xo'jaev tayinlandi. 1920 yil 6-8 oktyabrb kunlari bo'lib o'tgan xalq vakillarining I UmumBuxoro qurultoyi Buxoroni hokimiyati ishchi va dehqonlar qo'lida bo'lgan Xalq Sovet

Respublikasi deb e'lon qilindi. Mana shu tariqa bolsheviklar rahbarligidagi sho'rolar o'z orzu-istikclarini amalga oshira borib, O'rta Osiyoda mustaqil faoliyat ko'rsatayotgan ikki xonlikda ham istibdod tuzumini o'rnatdi. Bu tuzum va uning istibdodi natijasida O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy, ma'naviy qaramligi qanchalik ko'payganligi va Qatag'onlik tufayli qanday oqibatlar ro'y berganligini keyingi ma'ruzamizda muxokama etamiz.

6.Sovet xokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy tadbirlari va ularning muctamlakachilik mohiyati.

80-yillarning o'rtalariga kelib SSSRda tanglik holati keskin kuchaydi, u mamlakat hayotining barcha sohalarini qam-rab oldi. Mustabid tuzum sharoitida davlat mulki monopoliya-si va boshqaruvsda ma'muriy — taqsimlash tizimi hukmronligi tobora kuchayib bordi, natijada ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, yalpi mahsulot hajmi, mehnat unumdonligi shid-dat bilan pasayib ketdi, ishlab chiqaruvchilarining ishlab chi-qarish vositalaridan, mehnat samaralari va shu kabilardan begonalashuvi yanada ortib bordi? Xalq xo'jaligini tanazzulga olib kelgan chuqur izdan chi-qish jarayonlari, xalq ijtimoiy manfaatlarining nazar-gtisand qilinmasligi kabi boshqa omillar bilan birgaliqda KPSSning ulkan, lekin kutilayotgan natijalarni bermayotgan iqtisodiy siyosati butun ijtimoiy-siyosiy tizimning oqsa-shini oldindan belgilab berdi. Chunki bu vaqtga kelib, xalq-ning bunyodkorlik g'ayrati partkya-davlat tuzilmalarining siyo-siy,hukmronligi bilan butunlay siqib qo'yilgan edi. (Sarf-xarajatlarga to'lib-toshgan sovet iqqisodiyotining jiddiy nuqsonlari, boshqaruvs tizimining o'ta markazlashganligi va taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotganligi markaziy siyosiy rahbariyatni bu yo'nalishda muayyan islohotlar o'tkazishga un-dadi

Mustabid tuzum ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati, fan-texnika taraqqiyoti bo'yicha birin-ketin mavqeni qo'dtsan boy bera boshladi, jahoning ancha rivojlangan mam-lakatlariga nisbatan oradagi farq xavfli ravishda ortib bordi. Sovet iqtisodiyoti jahonda bu borada yuz berayotgan yangi-liklarga butunlay e'tibor bermaydigan bo'lib qoldi, mutaas-sibligi va puxta emasligi bilan ajralib turdu, broq asosiy xavf shundan iborat ediki, mehnatga nisba-tan qiziqtirish tizimining nuqsonlari odamlar ruhiyatining buzilishiga, boqimandalik kayfiyatlarining avj olishiga olib keldi. Ya'ni, I.A.Karimov so'zlari bilan aytganda, «Markaz-dan boshqarishning amaldagi tizimi, uning idoralari, xo'ja-lik yuritish uslub va usullari iqtisodiyotining yanada ri-vojlanishiga sezilarli turtki bo'lishiga, keskin ijtimoiy muammolarni hal qilishga qodir emasligi yaqqol ayon bo'lib qoldi»

80-yillarning o'rtalarida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'r-satkichlar bo'yicha respublika ittifoqda oxirgi o'rnlardan bi-rini egallar edi. Aholi jon boshiga milliy daromad hrsil qilish O'zbekistonda o'rG'gacha iggifoq darajasiga qaraganda ikki

baravar kam edi. Uzbekiston aholisining mamlakatdagi boshqa mintaqalarga nisbatan moddiy va ijtimoiy ne'matlar bilan ta'mishxanish darajasidagi farq jiddiy ravishda ortib ketgan edi. Yshlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning yangi mus-tamlakachilik rejasiga ko'ra respublika iqtisodiyoti uchun bir tomonlama, faqat «xom ashyo» yo'nali shida bo'lish oldindan bel-gilab qo'yilgan edi. Natijada, respublikada sanoatning xom ashyoga birlamchi ishlov berish bilan bog'liq tarmoqpari ko'proq rivoj topdi. Sanoatdagi tayyor mahsulotning salmog'i umumiyligi mahsulotlarning faqat 25%ni, xalq iste'mol mollarini ish-lab chiqarish esa o'rtacha itgifoq darajasining faqat 40%ini tashkil qildi? Respublika xalq xo'jaligining bir tomonlama (paxtachilik-ka) ixtisoslashganligi, inson sog'ligi uchun zararli bo'lgan kimyo va boshqa ishlab chiqarish korxonalarining o'ylamasdan aholi zinch yashaydigan joylarda qurilishi, qishloq xo'jaligi-da, ayniqsa paxtachilikda kimyoviy moddalardan, zaharli pestitsidlardan keng foydalanishi atrof muhit, atmosfera, millionlab kishilarining yashab turgan joylarining ekologik axvolini murakkablashtirib yubordi. Butun jamiyat ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar qilish zarurligini taqozo qila boshladi. Biroq markaziy mustabid davlatning M.S.Gorbachev boshchiligidagi yuqori partiya-sovet rahbariyati jamiyatda tub islohotlar o'tka-zishni tezlashtirish zarurligini faxmlasa-da, lekin uni amalga oshirishda shoshilmadi va bu masalaga yondashuvda jiddiy xato-utarga yo'l quydi.

Tub islohotlar o'tkazishda sustkashlik qilish, ichki vaziyat-ning keskinlashuviga, yomon oqibatlarga olib kelish xavfini tug'dirardi.' Boshi berk murakkab vaziyatdan chiqish yo'lini qiyinchilik bilan izlash boshlandi. Nihoyat, 1985 yilning ba-horida KPSS Mqning aprel plenumi sovet jamiyatini tubdan qayta qurish, uning barcha sohalarini chuqur isloq qilish yo'li-ni e'lon qildi. «qayta qurish» sovet jamiyatini rivojlantirishning ob'ektiv ehtiyoji, unda yashovchi millatlar va xalqpar mansMatlari taqozo etgan hayotiy zarurat sifatida ta'riflandi. Avvalgi tugallanmagan isloxrtlardan farqyai o'laroq 1985 yilda jamiyatni har tomonlama yangilashga o'tish zarurligi e'ti-rof qilindi. qayta qurishning tarkibiy qismi sifatida jamiyat hayotini demokratlashtirish va tub iqtisodiy islohotlar utkazishdir, deb e'lon qilindi.' (Usha yillardagi partiya-hukumat hujjatlarida jamiyatni «turg'unlik» illatlaridan tozalashga, uni «inqilobiy yangi-lash»ga, oddiy inson ehtiyojlariga diqqat-e'tiborni kuchayti-rishga chaqiriqlar yangi kuch bilan yangradi.

Siyosat va ijtimoiy munosabatlar sohasida fikr erkinligiga, rahbar lavozimlarga saylashning muqobilligiga yul qo'yish, mahalliy sovet organlari vakolatlari va mas'uli-yatinining kengaytirilishi nazarda tutildi. Xususan, mahalliy sovet organlari sanoat korxonalarining o'zlariga bo'ysunishi-dan tashqari ular faoliyatini nazarat qilishlari, joylardakeng iste'mol qilinadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlarini qidirib topishlari, ularning sotilishini nazarat qilishlari lozim edi. Davlat tizimini isloq qilishda ustivorlik milliy

respublikalarga ko'proq mus-taqillik berilishiga qaratilmog'i kerak edi. Ittifoqdagi mav-jud yakkapartiyaviylikning siyosiy va mafkuraviy hukmronli-gini hech bo'limganda cheklash, ekvivalentli bo'limgan iqtisodiy ayriboshlashga, qishloq xo'jalik va mineral xom ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashtirishga, respublikalar, ayniqsa, O'zbe-kiston uchun zararli bo'lgan ana shunday iqtisodiy yo'naliшgа barqam berilishi zarur edi. Biroq qayta qurish «kontseptsiyasi» avvalboshdanoq noil-miy bo'lib, u mag'lubiyatga mahkum edi. qayta qurish borasi-dagi dastlabki tajribalarning ko'rsatishicha, mamlakat siyosiy rahbariyati birinchi kundanoq «qayta qurish» mafkurasini angdab yetishda nihoyatda soddalashgan nuqtai nazar bilan yon-dashdi. qayta qurish «kontseptsiyasi» «qardosh» ittifoqdosh respublikalarning hayotiy manfaatlari va muammolarini chu-kur ilmiy taxlil qilishga, ularni bilishga asoslanmagan edi. Usha davrda sovet sotsialistik tuzumi iqtisodiy, siyosiy jihatdan ulkan imkoniyatlarga ega deb hisoblandi, tarixiy istiqbol sotsializm tomonida deb qaraldi. Sotsializmga sun'iy ravishda demokratik qiyofa berilib, mustabid tuzum-ning mavjud yaramas illatlarini «tasodifiy hol», ular uchun «sotsialistik jamiyatda asos yo'q», shuning uchun ularni, ay-niqsa, boshqaruv tizimidan olib tashlash kifoya deyildi. Shu bilan birga, sovet iqtisodiyotining, butun xo'jalik tizimi-ning ana shu illatlari kelib chiqishi jihatidan sotsialis-tik ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyatiga, bozor iqtisodiyoti imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanishni in-kor qiluvchi kommunistik mafkura monopoliyasiga bog'liq ekanligi tan olinmadi. Boshqacha aytgana, «qayta qurish» tajribasi faqat partianing ijtimoiy-siyosiy rahbarligini mustahkamlashni, jamiyatni sotsialistik asosda tashkil etishni yanada takomillashtirishni, uning faqat qismangina, shunchaki, «pardoz berish» tarzida yangilanishini na-zarda tutgan edi.

Eskicha uslubda yondashuvlar ta'siri shunga olib keldiki, hatto amaldagi xo'jalik yuritish mexanizmini shunchaki o'zgar-tirishga qaratilgan oddiy bir kontseptsiya ham taklif qilin-magan edi. Mo'ljallangan islohotlarning tub mohiyati va xusu-siyatlari g'o'g'risidagi tasavvur ham qaror topmagan edi. Jamiyat xayotini tubdan qayta qurish yo'lidagi asosiy to'siq mustabid tuzum illatlari, sovet iqtisodiyoti samarasizligi, «qayta qurish» ishboshilarining mavjud tuzumni o'zgartirishga qodir emasligi va buni mutlaqo istamasligida edi. 80-yillarning ikkinchi yarmi mobaynida ro'y bergan «qayta qurish» islohotlari turkumi sub'ektiv tarzda, faqat ichki his-hayajonga asoslanib, ixtiyoriy ravishda shunchaki sinab ko'rishlar va xato usullar bilan tashqi tomondan ta'sirchan bo'lishini umkd qilib, aniq ilmiy jihatdan savodli ishlab chiqilgan, siyosiy jihatdan asoslab berilgan dastursiz amalga oshirildi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda, ijtimoiy-madaniy sohada amalga oshirilayotgan, hatto eng yuzaki «qayta qurish» jarayonlari ham odatda shunchaki, oshkora siyosiy tus berilgan jarayonlar edi. Iqtisodiy va ilmiy-madaniy salohiyatga ega bo'lgan O'zbe-kiston ham qayta qurish oqibatida puxta o'ylab ko'rilmagan

volyuntaristik islohotlar oqimiga jalgan qilindi. Sovet raxbariyatining 1985 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish yuzasidan ilga-ri surgan vazifasini bajarish borasidagi dastlabki urinish-lari omad keltirmadi. Iqtisodiy tizimni qayta qurish, uning moddiy bazasini qayta ko'rib chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish, yuqori darajadagi boshqaruv tizimi asosida iqqigisodiyotni vajtimoiy sohani jadal rivojlantirish mo'ljal-langan edi. Masalan, O'zbekiston xalq xo'jaligini jadallahash-tirish umumdavlat dasturini ta'minlash rejasida 1990 yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 24 - 27%ga oshirishga erishish, tarmoqda mehnat unumdarligini 19%ga, quri-lishda 14%ga ko'tarish nazarda tutilgan edi. Ayni vaqtda 300 dan ortiq yirik sanoat ob'ektini ishga tushirish, fan-texni-ka taraqqiyotini belgilab beruvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish sur'atlarini jadallashtirish, nooziq-ovqat mol-lari ishlab chiqarishni 1,4 baravar oshirish mo'ljallandir. Korxonalarining «xo'jalik hisobiga», «o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashga» va «o'z-o'zini boshqarish-ga» o'tkazilishi dastlabki vaqtarda mehnat jamoalari orasida o'z huquqdarini to'laroq amalga oshirish bilan bog'liq bo'lган kagga umidlar uyg'otdi. Bu esa respublikada xo'japik xdsobida ishlashga o'tish tashabbusining avj olishiga sabab bo'ldi. Biroq mehnat jamoalaridagi ayrim xodimlarning qo'lga kiritgan yuqori ishlab chiqarish natijalari ham oqsash jara-yonlarining ortib borishini yashira olmadi. Puxta o'ylab ko'rilmagan qarorlar, ularni joriy qilishdagi jiddiy nuqsonlar, ma'muriy siqvuning davom etishi, jadallashtirish kontseptsiyasidagi kamchiliklar xalq xo'jaligiga o'zining salbiy ta'si-rini ko'rsatdi, qayta qurish darhol oqsay boshladи.

Ziddiyatli «qayta qurish» siyosati oqibatida respublika iqtisodiyotida tanglik holati chuqurdashib, sanoat ishlab chi-qarishning samaradorligi pasayib ketdi. Mehnat unumdarli-gining ko'rsatkichlari ham keskin yomonlashdi, fondlar hisobidan keladigan foyda kamaydi. Masalan, ishchilar va xizmatchilarining ish haqi O'zbekistonda umumittifoq bo'yicha 1975 yildagi 93,7%dan 1987 yilda 81,3%ga tushib qoldi, aholi jon boshiga iste'mol fondi hajmi tegishli ravishda 66%dan 5\$%ta kamaydi. Natijada xalqning davlat tomonidan e'lon qilinayotgan o'zgarishlariga ishonchi yo'qola bordi, uning qayta qurishga bo'lган munosabati o'zgara boshladи. Ko'pgina mahsulot turlarini ish-lab chiqarish hajmi pasaydi, moddiy va moliyaviy nomutano-siblik kuchaydi, iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayib ketdi, tovarlar tanqisligi tobora kengayib bordi. Masalan, 1989 yilda har ikki muxim mahsulotdan biri bo'yicha topshiriq bajarilmadi, qar uch mahsulotdan biri bo'yicha ishlab chiqarish hajmi pasaydi. «A» turuhi tarmoqlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejadagidan 3 baravar kam bo'ldi. Mashinasozlik, kimyo va agrosanoat majmui korxonadari reja topshiriqlari-ni bajarishni ta'minlay olmadilar. Mehnat unumdarligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish sohalarida ham si-fat o'zgarishlari ko'zga tashlanmadи! «qayta qurish»ning so'nggi yillarida respublika ishchila-ri va xizmatchilarining ijtimoiy rivojlanishida murakkab va

ziddiyatli jarayonlar sodir bo'ldi. Ularning miqdor jihatidan o'sishida sifat o'zgarishlari yuz bermadi, bu ko'rsatkich aholining tabiiy o'sishidan orqada qoldi, bu hol ishchi kuchi-ning ancha ortiqcha bo'lib qolishiga olib keldi.

Ish bilan band aholi mehnatdagi faolligining pasayib ketishi salbiy holatlar ortib borishining taxlikali belgi-laridan biri edi. Mehnat unumdorligining rejalahtirilg'an 18% o'sishi o'rniga sanoatda o'rta daobda 1985 yilga nisbatan faqat 12%, qurilishda 7% bo'ldi, yengil sanoat tarmoklarida esa hatto 2% kamayib ketdi. Shunday qilib, mustabid Sovet davlatida qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari sanoat ishlab chiqarishining yuqori samarada rivojlanishiga ob'ek-tiv ravishda to'siq bo'ldi. Markazning amriga bo'ysungan respublika industriyasi mahalliy aholining tub manfaatlari-ni hisobga olishga mo'ljallanmagan edi, shu sababdan uni sotsialistik asosda isloh qilishga urinish muqarrar ravish-da barbod bo'ldi. Salbiy holatlarning ortib borishi natijasida Uzbekis-ton qishloq xo'jaligining samaradorligi yildan-yilga pasa-yib bordi. 1989 yilning boshlarida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hatto o'rtacha yillik darajaga ham bormadi, 3 mil-liard so'mlikdan ko'proq mahsulot berilmay qoldi. g'alla, paxta, poliz ekinlari tayyorlash rejalar surunkasiga baja-rilmay keldi. Faqat 1986—1987 yillar mobaynida yetkazib be-rilmagan paxtaning miqdori 1.576 ming tonnadan ortiq edi. Asosiy dehqonchilik ekinlarining hosildorligi barqaror pa-sayib bordi."

Paxta yakkahokimligi bilan bog'liq illatlar respublika-ning qishloq iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishda davom etdi. Chigit ekiladigan maydonlar ko'p bo'lishiga (75%) qara-masdan, paxta ekiladigan yerlar doimiy ravishda ko'paytirib borildi. Ayni vaqtda paxta yetishtirish reja topshiriklari ham ko'paydi, bu O'zbekistonning imkoniyatlariga mutlaqo mos kelmas edi. Mazkur muammoni qushib yozishlar, ko'zbo'yamachilik-lar, paxta terimi davrida shaharliklar, talabalar, maktab o'quvchilarining mehnatidan surunkali foydalanish evaziga hal qilishga intildilar. «Yalpi» paxta hosili, poliz va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari mikdori ortidan quvib, ko'pgi-na xo'jaliklar ularni yetishtirish teshologiyasini buzdilar, ekinlarga oshirilgan miqdorda azotli o'g'itlar solindi, ayniqsa, paxta zararkunandalariga qarshi kurashda, uning bar-gini to'kishda zaharli kimyoviy modtsalardan me'yorsiz foyda-lanildi. Natijada atrof muhit zaharlandi, yerning tarkibi buzildi, insonlar sog'ligiga zarar yetkazildi

Respublikaning yangi rahbariyati dastlabki kundanoq O'zbekiston xalqlari-mil-liy manfaatlarini himoya qilib chiqpi, ularning azaliy, yillar davomida to'planib qolgan ehtiyojlarini izchil hal qilishga intildi. Diqqatga sazovori shundaki, yangi rahbariyat paxta yakkahokimligiga qarshi keskin kurash olib borajagini o'sha mustabid tuzum «hayotligi»dayoq ochiq e'lon qildi. I.A.Ka-rimov achinish bilan qayd qilib o'tganidek, «Paxta yakkaho-kimligi respublikaga Markaz amri bilan tiqishtirilgan bo'lib, O'zbekistonga, uning aholisiga bexisob zarar

keltirdi. AYNI vaqtda paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarining boshqa turlari mahsulotlari narxlarini qayta ko'rib chiqish masalasi ko'tariddi. 1989 yilda xo'jalik yuritishning yangi shakli fermerlik vujudga keldi. Uzbekistonda o'sha yillarda fermer xo'jalikla-ri soni birmuncha kamroq edi. Ular hali ko'p jihatdan agrokorxonalar ma'muriyatiga bog'liq edi. Yerga, mablag'larga egalik qilish, yetishtirilgan mahsulotlarni tasarruf qilish huquqi-ning yukligi dehqonni haqiqiy dehqon bo'lish imkoniyatddan maxrum etgan edi. Lekin shunday bo'lsa-da, 70 yil davomida «sovetcha» «kolxozchi» bo'lishga odatlanib qolgan o'zbek dehqoni uchun fermer xo'jaliklarini tuzishdek «yangi yo'l» ularni kelajak sari ilhomlantirdi. Shuning uchun ham bu yangilik qisqa muddat ichida keng tus oldi. 1991 yil 1 aprelda respublikada 6143 ta fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, ulardan 4666 tasi sut yetishtirishga, 1477 ta fermer xujaligi esa qoramollarni bo'rdoqiga boqib parvarish qilishga ixtisoslashtirilgan edi. Biroq agrar sektordagi bu ijobjiy holatlar juda sustlik bilan, noizchil va o'z-o'zicha borardi. Chunki qishloq xo'jaligi-ni boshqarishdagi o'sha odatdagi hukmronlik tizimi hamon saq-lanib turgan edi. Paxta yakkahokimligi, shuni aytish kifoyaki, chigit eki-ladigan maydonlar O'zbekistonda 1970 yildagi 1 mln. 709 ming ga.dan 1988 yilda 2 mln. 17 ming ga bo'ldi, ya'ni 18%dan ko'proq oshdi.<sup>1</sup> Bundan tashqari, hisobga kiritilmagan maydonlarni qo'shganda (1987 yilda qariyb 23 ming ga) bundan ham ortiq bo'lar edi. SSSR bo'yicha paxta yetishtiradigan xo'jaliklar soni 1155 tadan 2294 taga yetdi (holbuki, AqShda paxta yetishtiradi-gan xo'jaliklar soni shu davrda muntazam qisqarib bordi va paxta yetishtirish markazlashdi)<sup>2</sup>, respublika mashinasozligi esa asosan yetishtirilgan paxtani yig'ishtirib olish uchun va uni qayta ishslashning xilma-xil turlari uchun texnika va me-xanizmlar ishlab chiqarishga bo'ysundirildi

Paxtachilikda pestitsidlarni haddan tashqari ishlatish oqibatida bevosita ko'zga tashlanib turuvchi ijtimoiy-ekolo-gik ofat yuz berdi, ya'ni atrof muhit (tuproq, suv manbalari, havo) yo'l qo'yib bo'lmas darajada ifloslandi. Ekologik tang-likning ikkinchi sababi — vazirliklarning zararli kimyoviy korxonalarini Chirchiq, Samarqand, Navoiyda, shuningdek, ko'proq ekologik tizim juda zaif bo'lgan va aholi zinch yashay-digan hududlarda joylashtirilishi bo'ldi: Farg'ona vodiysi ana shunday joylardan bo'lib, bu yerda «Farg'onaazot», «Fergananefteorgsintez» birlashmalari, qo'qon kimyo zavodi, Yangi qo'qon kimyo kombinati va boshqa korxonalar joylashtirilgan.

Orol dengizining qurishi xalqaro ahamiyat kasb etgan jiddiy muammo sifatida namoyon bo'ldi, u butun bir mintaq-a-ning yashash muhitiga xalokatli ta'sir ko'rsatdi, bunga ko'p jihatdan nooqshyuna va zo'rlik bilan amalga oshirilgan paxta-chilik ekspansiyasi sabab bo'ldi. Bu jihatdan, ayniqsa, qora-qalpog'iston jiddiy zarar ko'rdi. Shunday qilib, O'zbekiston iqtisodiyotining xom ashyo yo'naliishida bo'lishi umumitgifoq mehnat taqsimoti bilan mus-tahkamlandi va uni

rivojlantirish paxtachilik bilan qatwy bog'landi, «qayta qurish» yillarida esa paxta agrosanoat maj-muining xo'jalik mexanizmini takomillashtirishga qaratil-di, bu mexanizm Rossiya va ayrim sotsialistik mamlakatlar to'qimachilik sanoatini zarus miqdorda va turdag'i tola bilan ta'minlashdan iborat vazifani bajardi. Uzbekistonni shu yo'sinda ixtisoslash va uning milliy daromadi, demak, aholi-ning turmush darajasi ham past bo'lishini oldindan belgilab berdi. Ma'lumki, bu ixtisoslashuvni saqpagan holda sanoat va qishloq xo'japigini rivojlantirishni, zamonaviy fan-texnika negiziga o'tkazishni, shuningdek, mutaxassislarga ta'lim berish va tayyorlash tizimini yangi darajaga ko'tarish va bu yo'l bilan qolok^likning boshi berk ko'chasidan chiqib olish amalda mumkin emasdi; Markaz esa bu borada g'oyat samarasiz siyosat o'tkazardi. Respublikada keragidan ortiqcha mehnat sarflanishi va ishsizlik (birgina Farg'ona vodiysining o'zida kamida 1 mln. ishsiz bor edi), bularga yana bir qator muammolarning — ko'p mikdordagi aholining, ayniqsa, mahalliy aholining qish-loq joylarda to'planganligi kabi eski muammoning qo'shili-shi, jamoa qadriyatları va manfaatlарining (urug'chilik, oilaqarindoshchilik) shaxsiy manfaatlardan ustivorligi, yoshlar-da istiqbol va kelajakka umidvorlikning yo'qligi, masalan, ularning Farg'ona vodiysida va boshqa joylarda ko'proq namo-yon bo'lishi1, O'zbekistondagi vaziyatning haddan tashqari keskinlashtirib, uni ichki tomondan ziddiyatli va beqaror qilib qo'ydi.

80-yillarning o'rtalariga kelib qataqonlik va qonundan chekinishlar yana bo'y ko'rsata boshladи. Galdagi qataqonlik to'lqiniga nafaqat ijod ahli, balki xo'jalik xodimlari va davlat arboblari ham tortildi. O'zbekistonning milliy ziyoililari hech qachon, hattoki mustabid tuzumning «gullab-yashnagan» davrida ham o'zbek xalqining milliy mustaqilligi qoyalaridan voz kechmadilar. Ochiq kurash imkonni bo'limganda ham milliy mustaqillikni ³o'lga kiritish uchun zimdan kurash olib bordilar. O'zbekistonda qonunchilik va huquqiy tartiblarni tiklash, partiya davlat organlarini kadrlar bilan mustahkamlash degan ni³oblar bilan Markazdan katta vakolatga ega bo'lgan mas'ul xodimlarning «desant» guruhlari kela boshladи. Ularga partiya, sovet va sud organlaridan muhim ahamiyatga ega bo'lgan lavozimlar berildi. Uydirma, to'qib chiqarilgan «paxta ishi» va «o'zbeklar ishi» deb ishlarga siyosiy tus berildi. Oqibatda go'yoki butun O'zbekiston jinoyatchilar makoniga aylanib qolgandek tasavvur uyqotishga harakat qilindi. Ittifoqning Gdlyan va Ivanov boshliq emissarlar guruhi respublikadagi turli sohalarda ishlayotgan bir necha minglab rahbar xodimlarni tergov jarayoniga tortdilar.

Ularga poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik va jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlaridagi aybnomalar qo'yildi. Mahbuslarni «o'z aybiga iqror qilish» uchun jismoniy zo'ravonliklar, ruhiy azoblar qo'llanildi. O'zbekiston Kompartiyasi MK ning sobiq birinchi kotibi Sh.R. Rashidov nomiga ham nohaq tuhmatlar qilindi, o'zbek xalqining milliy qururi toptaldi. Bunda O'zbekiston SSRning o'sha davrdagi qo'qirchoq rahbarlarining mash'um hissasi bo'ldi. Ommaviy qamoqqa

olishlar avj oldi, qiyonoqlarga ko'plab halol, sof vijdonli kishilar ham tortildi. Jo'shib yozishlar, ko'zbo'yamachilik va poraxo'rlik kabi illatlar sotsialistik jamiyatda tabiiy holat bo'lib, o'sha paytdagi barcha respublikalarda mavjud hodisa edi. O'zbekistonga nisbatan «paxta ishi» oldindan, maxsus tayyorlangan uzoqni mo'ljallab tashkil qilingan siyosiy fitnadan boshqa hech narsa emasdi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng «paxta ishi» qayta ko'rib chiqildi va minglab begunoh kishilar oqlandilar. O'z navbatida O'zbekistonning mohir, taniqli davlat va jamoat arbobi Sh.R. Rashidovning pok nomi tiklandi. Shuningdek, mehnatkash o'zbek xalqining yuzi yoruq ekanligi asoslandi. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan 2000 yil 12 mayda Toshkent shahrida Yunusobod mavzesida mustabid sovet rejimi davrida qataqon qilingan shahidlar xotirasiga baqishlab o'rnatilgan yodgorlik majmuining ochilishi bugungi minnatdor avlodning ajdodlarimiz oldidagi chuqur ehtiromi ramzidir. Sho'rolar tuzumining qariyb 70-yillik hukmronlik davrida to'planib qolgan muommalar 80-yillar o'rtalariga kelib yuzaga chiqa boshladi. Endi kuch bilan ittifoqni saqlab qolish mumkin bo'lmay qolgandi. M.S.Gorbachev sobiq ittifoq hukmron partiyasi rahbari bo'lgach yangi hokimiyat sho'ro jamiyatni to'qnash kelgan qiyinchiliklar va to'planib qolgan muammolarni hal qilmasdan turib mavjud davlat va tizimni saqlab qolish mumkin emasligini anglab yetdi. Natijada jamiyatni yangilash, ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy xayotda jiddiy o'zgarishlar qilish yo'llari izlana boshladi. Hukmron Firka markazqumining 1985 yil (aprel) plenumi mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilib, sho'ro jamiyatini va yangilash zarurligi borasida ko'rsatmalar berdi. Natijada O'zbekistonga "kadrlar desanti" yuborildi. SSSR prokuraturasi xodimlari, ashaddiy shovinistlar Gdlyan va Ivanovlar rahbarligidagi tergovchilar guruhi O'zbekistonga kelib "eng shimarib" ishga kirishdilar. Gdlyan va Ivanovlar boshchiligidan yuborilgan tergovchilar markazning qo'llab quvvatlishi bilan ular "o'zbeklar ishi", "Paxta ishi", "o'zbek mafiyasi" degan soxta uyudirmalarni to'qib chiqardilar. Bundan maqsad o'zbek xalqini, O'zbekistonni nafaqat ittifoqda, qolaversa dunyoda badnom qilish, jazolash va shu yo'l bilan boshqa ittifoqchi respublikalarni cho'chitib qo'yish edi. Afsuski, O'zbekistonning o'sha vaqtdagi rahbarlari buni ko'rabilia turib lomlim demadilar, aksincha desantchilarga ko'maklashdilar. Buning oqibati esa ularning o'zlarini uchun ham halokatli bo'ldi.

Desantchilar o'zbek xalqini ko'z bo'yamachilikda, poraxo'rlikda, qo'shib yozishlarda, boqimandalikda va haqozolarda ayblab, firqa va davlat rahbarlaridan tortib oddiy dehqonlargacha taqib ostiga oldilar. Birgina soxta, uylab chiqilgan "Paxta ishi" natijasida 25 mingga yaqin respublikamiz fuqarolari qiyonoqlarga solindi, sudsiz, tergovsiz qamaldi. Bularni orasida keksalar, xomilador ayollar, nogironlar ham bor edi. Aybsiz kishilarga jismoniy kuch ishlatalish, qo'rqtish yo'li bilan ayblar qo'yildi. Oddiy mehnatkashlardan katta miqdorlarda pul, o'z

rahbarlari to'g'risida noto'g'ri ko'rsatmalar berish talab qilindi. Respublikada "adolatsizliklar", qo'shib yozishlar haqida markaziy gazeta-jurnallarda, radio va televideniyada muntazam xabarlar bosilib, millatimiz sha'ni badnom, sharmanda qilindi. Bunday holat respublikada amalga oshirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy islohotlarga ham chuqur salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatdagi mavjud ma'muriy islohot tizimi, "kadrlar desanti" siyosati natijasida yanada ko'chaygan "qo'rquv" iqtisodiy va ijtimoiy sohada jiddiy qayta qurilishlarga olib kelmadidi. Xo'jalik hisobi yoki brigada pudratiga o'tkazilgan bir qancha sanoat sohalari, qurilish va transport korxonalari, paxtachilik brigadalari, sovxoziylar bulimlari deyarli isloh qilinmagan vazirliklar va idoralarning eskicha to'ralarcha ish olib borishlari natijasida islohotlar yo'lidan bora olmadilar. Bu hol mehnat jamoalari tashabbusi va faolligini bo'g'ib qo'ydi, fan-texnika taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ldi. Natijada butun sobiq ittifoqda bo'lganidek, O'zbekistonda ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda tub o'zgarishlar yaratishga qaratilgan qayta qurish muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Qayta qurishning ittifoqchi respublikalar maqomi va huquqni kengaytirish haqidagi rejalari ham amalga oshmadi. Respublikaning oltin, tog'-kon, gaz, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo kabi muhim sanoat tarmoqlari xam markaz ixtiyorida qolaverdi. Shuni aytish kerakki, bu davrda ittifoq rahbariyati O'zbekistonda faqat paxtani qayta ishlashdan 75 mlrd.rubl foyda olishni bilgani holda, respublikamizni datatsiyalar va moliyaviy yordamga muxtoj, deb uni boqimandalikda ayblashda davom etdilar. Sobiq ittifoqda va respublikada vujudga kelgan vaziyat, milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarning toptalishi, xalqimiz orasida turli ko'rinishlarda markaz siyosatidan noroziliklarning ko'chayishiga olib keldi. Taxqirlash va kansitishlardan bezib qolgan xalq o'z haq huquqini talab qilishga kirishdi. Machitlarning yopilishi, diniy e'tiqodning ta'qib qilinishi, hatto eng yaqin kishisi vafot etganda ham uni oxirgi manzilga kuzatishdan cho'chib turish, "Navro'z" bayramining soxtalashtirilib "Navbahor" deb e'lon qilinishi, o'z go'dagiga alla aytib ovitishni ham unitish, millatlararo munosabatlarning atayin keskinlashtirilishi (Farg'ona, Ush, Qo'qon, Parkent voqealari) va boshqa holatlar xalqimizning ko'zini ocha boshladidi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. 80-yillarning o'rtalaridagi inqirozni muohiyati.
2. Qayta qurishni moxiyati nimada.
3. Xalq xo'jaligidagi "qayta qurish"ning samarasizligini sabablari.
4. Xalq milliy ongingin o'sib borishi sabablarini ko'rsatib bering.
5. "Paxta ishi"ning moxiyati.
6. 1991 yil avgust voqealarining moxiyat-mazmuni.

### **TAYaNCh IBORALAR:**

Shayboniyxonlar – sulolarning boshkarishi boshlaishi

Ashtarxoniyalar - sulolari.  
Xonlik – boshkarish tizimi  
Amirlik – boshkarish tizimi  
Monarxiya, sièsiy parokandalik, beqarorlik  
jaraeni, diniy mutaassiblik, etnik guruhbozlik, yagona  
elat. “Qayta qurish” Isloh qilish, Mustabidchilik, “Turg’unlik” “Inqilobiy  
yangilash», Kommunistik mafkura, Inqiroz, “Besh yuz kun” Xo’jalik hisobi, “O’z-  
o’zini boshqarish”, “A” guruhi tarmoqlari, GKChP.

### **ADABIYotLAR:**

7. Murtazaeva R. O’zbekiston tarixi. T. 2000 yil
8. Jo’raev M va b. O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davri. T.2000 y
9. O’zbekiston tarixi. T. O’.A.I.B. T-2003
10. G’ulomov S. Mustaqil O’zbekiston T.2003 yil

### **4-MAVZU**

#### **Mustakil milliy davlatchilikning tashkil topishi.**

#### **REJA:**

- 1.O’zbekistonda davlat mutsaqilligining e’lon qilinishi.
- 2.I.A.Karimov-O’zbekiston mutsaqilligining asoschisi va O’zbekistonning  
birinchi Prezidenti.
- 3.O’zbekiston Respublikasi Kontsitusiyasi va davlat ramzlarining qabul  
qilinishi.
- 4.Siyosiy islohotlar.
- 5.O’zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi.
- 6.Siyosiy partiyalar, milliy siyosat, ommaviy axborot vositalari.
- 1.O’zbekistonda davlat mustaqilligining e’lon qilinishi

Tarixda hech bir xalq yoki millat o’z ozodligi va mustaqilligini osonlik bilan  
qo’lga kiritmagan. Shu jumladan bizning ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz ham bir  
necha bosqinchilar zulmi ostida yashab, doimo ozodlik uchun kurashib keldi.  
Bularga To’maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin  
Kubro, Timur Malik, Mahmud Tarobiy, Amir Temur singari qaxramonlarimiz  
boshchiligidagi kurashlar, so’ngi 130 yildan ortiqroq iskanja va istibdod davridagi  
ozodlik kurashlari guvohidir. Shu bilan birga, istiqlolga erishish va uning

ne'matlaridan bahramand bulish bir kunlik va hatto bir necha yillik ish emasligi ham tarixdan ma'lum. Uzoq davr ozodlik kurashlarida million-millionlab otabobolarimiz shahid ketdilar. Biz bugun erishgan istiqlolimiz ana shu qurbanlar, kurashlar evaziga ekanligini ham hech qachon yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Yana shuni ta'kidlash joizki, kurashlar olovida necha bor kuyib yongan bu tabarruk zamin, jonajon Vatanimiz-O'zbekiston o'zining og'ir, musibatli o'tgan tarixi bilangina emas, balki jahon madaniyatiga o'z munosib hissasini qo'shgan fozilu-fuzalolarni yetishtirib bergenligi bilan ham jahonga mashhurdir. Mustaqil yurtimizning bu buyukligi va zaminimizning muqaddasligi haqida Prezident I.Karimov: «Butun umrini imon va e'tiqod, vatanparvarlik va insonparvarlik, poklik va xalollik, ilm va ma'rifat, adolat va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo''tabar xoklari makon topgan zamingina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo'lmasa, ular dahosining nafasi sezilib turmasa, har qanday zamin oddiy tuproq bo'lib qolaveradi», - deb bejiz ta'kidlamagan edilar.

Darhaqiqat, ana shunday kurashlar, yurt va xalq buyukligi vatan ozodligiga olib keldi. Qisqa bo'lsada, keng mazmunga boy mustaqil taraqqiyot yo'lini bosib o'tmoqdamiz. XXI asr bo'sag'asida Vatanimiz tarixida buyuk voqeа sodir bo'ldi. Prezident Islom Karimov 1991 yil 31 avgust kuni Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O'zbekistonning Davlat mustaqilligini e'lon qildi. Sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida» Oliy Kengash Bayonoti qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi, - deb ta'kidlanadi Bayonotda, to'la davlat hokimiyatiga ega, xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, oldindan hech qanday shart qo'yagan holda barcha sheriklar bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o'zini ochiq deb e'lon qiladi».

Mazkur sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» qaror qabul qilinib, 1 sentyabrь O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi va 1991 yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi. Shuningdek, Oliy Kengashda «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» Qonun qabul qilindi. 17 moddadan iborat ushbu qonunning birinchi moddasida: «O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir», - deb qonunlashtirilib qo'yildi.

O'zbek xalqining muqaddas, tarixiy orzusi ushaldi. U siyosiy mutelik va asoratdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bir mustaqil, ozod, suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekistonning Davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasi bo'ldi. O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligini quvonch bilan kutib oldi va ma'qulladi. Prezident I.Karimov yurtimiz istiqloli imkoniyatlari haqida tuxtab: «Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi.

O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan yaratadigan bo'ldik. Hayotimiz va umumiylarimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umum e'tirof etilgan demokratik mezonlarga monand kilib qurishdek noyob tarixiy imkoniyatlarga ega bo'ldik»1,- deb ta'kidlagan edi.

«O'zbekiston xalqi mustaqillik tufayli quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ldi:

1. o'z taqdirini o'zi belgilash, davlat va jamiyatning siyosiy tizimini mustaqil yaratish, demokratik yo'l asosida saylangan organlar orqali hokimiyatni butun to'laligi bilan boshqarish;

2. ishlab chiqarish va ilmiy-texnik imkoniyatlarga, tabiiy va xom ashyo resurslariga to'la egalik qilish, ulardan mamlakat manfaatlari yo'lida foydalanish;

3. taraqqiyot yo'lini jahon tajribalari, tarixiy an'analar va xalqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil tanlash;

4. milliy davlatchiligidan an'analariga asoslangan holda huquqiy demokratik davlat qurish;

5. ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish;

6. tariximizni xolisona yoritish, milliy va diniy qadriyatlarimizni qayta tiklash, hayotimizni eski hukmron mafkura va mustabid tuzum asoratidan xalos etish;

7. yosh avlodni haqiqiy vatanparvar etib tarbiyalash, ularga zamon talablari darajasida bilim berish va kasb-hunar o'rgatish;

8. ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini to'la namoyon etish;

9. yurtimiz xavfsizligi, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash;

10. xalqaro munosabatlarda mustaqil sub'ekt sifatida ishtirok etish, barcha nufuzli tashkilotlarga teng huquqlilik asosida a'zo bo'lib kirish, boshqa mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli shartnomaga va bitimlar tuzish. Shunday qilib, mustaqillik xalqimizga o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini berdi.

Xalqimizga berilgan huquq va imkoniyatlar erishgan istiqlolimizni mustahkamlashga xizmat qila boshladi. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?» mavzuida 1991 yil 29 dekabrdagi o'tkazilgan referendum natijalarida yaqqol ko'rindi. Umumxalq referendumida saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi yoki 9 mln. 898 ming 707 kishi qatnashdi. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini yoqlab 9 mln. 718 ming 555 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi ovoz berdi.

Demokratik qoidalarga to'la amal qilib o'tkazilgan Prezident saylovining natijalariga ko'ra saylovda ishtirok etgan fuqarolarning 86 foizi Islom Abdug'anievich Karimov nomzodini yoqlab ovoz berdilar. Ana shu tariqa dunyo xaritasida yana bitta, katta imkoniyatlarga ega bo'lgan mustaqil davlat –

O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Bu tarixiy voqeani nafaqat xalqimiz, xorijiy mamlakatlardagi do'stlarimiz, vatandoshlarimiz katta xursandchilik va umidlar bilan kutib oldilar. Qisqa fursatda dunyo davlatlari tomonidan mustaqil O'zbekistonning tan olinganligi esa erishgan istiqlolimizning olamshumul ahamiyatidan darak edi.

Ko'p ukladli iqtisodiyot va bozor munosabatlariga o'tish Uzbekistonda MDXdagi boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq ishlab chiqarishning inqirozlarisiz, aytaylik mamlakat xayotining ta'minlaydigan asosiy yunalishlarda yoqilg'i-energetika va oziq-ovqat bilan o'zini-o'zi ta'minlash kabi sohalarda ijobjiy siljishlar sezilmoqda. Xalq xo'jaligini jiddiy ravishda qayta qurish amalga oshirilmoqda, o'zaro manfaatli tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanmoqda. Respublikamizda kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilib, keksalar va nogironlar, kup bolali onalar va yoshlari xaqida g'amxo'rlik, o'tish davridagi og'ir sharoitlarda shaharlarni obodonlashtirish, qishlohning gaz va suv bilan ta'minlash, ta'lim va sog'likni saqlashni rivojlantirish bo'yicha qilinayotgan ishlar xalqimizda qizg'in xayrioxlik uyg'otmoqda. Ma'naviy-ruxiy tiklanish, milliy an'analarga qaytish, kishilardan diniy e'tikod va tuyg'ulariga xizmat qilish xalqimiz tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Davlat ramzlarining qabul kilinishi. Jaxon tajribasi shuni ko'rsatadiki, Mustaqil demokratik xuquqiy davlatni tashkil topishi va rivojlanishi asosiy sharti davlat va jamiyatining siyosiy qurilishini belgilaydigan, fuqarolarni erkinliklari va xuquqlarini ximoya qiladigan, xalqni muayan tarixiy tajribasi va kabul kilingan xalkaro me'yorlarga javob beradigan konstituttsiyasini mavjudligidir. Uzbekiston Respublikasi konstituttsiyasini ishlab chikish goyasi "Mustakillik Dekloratsiyasi"ning kabul kilinishi munosabati bilan ilgari surilgan edi. Oliy Kengashni ikkichi sesiyasida (1990 yil iyun) Prezident Karimov boshchiligidagi 64 kishidan iborat konstitutsiya loyixasini taylorlash bo'yicha komissiya tuziladi. Konstituttsiyaviy komissiya deyarli 2,5 yil davomida konstitutsiya loyixasini taylorlash ustida ishladi. Ajdodlarimizning davlatchilik kurilishi, uning mustaxkamlash yulidagi goya va fikirlar, xalqaro xuquqiy va siyosiy tafakkur, jahondagi yetakchi davlatlarni konstituttsiyaviy tajribasi asosida Uzbekiston konstituttsiyasi loyixasi ishlab chiqildi. Konstituttsiyasi loyixasi 1992 yil sentyabrda matbuotda e'lon qilindi va 3 oy davomida umumxalq muxokamasida bo'ldi. Xalq tamonidan olti mingdan ortiq takliflar va muloxazalar berildi. Respublika Oliy kengashini un birinchi sessiyasida 1992yil 8 dekabrda "Uzbekiston Respublikasining konstituttsiyasini qabul qilish tug'risida" konun kabul kildi. Konstituttsiyasi kabul kilingan kun 8 dekabr umumxalk bayrami va dam olish kuni deb e'lon kilindi.

Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy printsiplari (tamoyillari)

1) Davlat suvereniteti.

- 2) Xalk xokimyatchiligi.
- 3) Fukaro (inson) erkinliklari va xuquqlarini daxilsiz va ustivorligi.
- 4) Demokratizm.
- 5) Davlat va shaxsning uzaro ma'sulligi.
- 6) Konuniylik.
- 7) Konstitutsiyasianing ustunligi.
- 8) Xokimiyatning konun chikaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatiga bulinishi.
- 9) Maxalliy o'z-o'zini boshkarish.
- 10) Sud xokimiyatini mustakilligi.

Konstitutsiyasiya VI bulim 26 ta bob va 128 moddadan iborat. Uzbekiston Respublikasi konuni bilan tasdiklangan uz razmlari bayrog'i, Gerbi va Madxiyasiga ega. (Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 5 modda).

"Uzbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida" qonun 1991 yil 18 noyabrda Uzbekiston Respublikasi Oliy kengashining sakkizinch sessiyasida kabul kilindi. Uzbekiston Respublikasi Davlat bayrogi ramzi mamlakatimiz xududida ilgari mavjud bulgan goyat kudratli sultanatlar bayroklariga xos bulgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan xolda respublika tabiatiga xos xususiyatlarni, xalkimizning milliy va madaniy uzligini xam aks ettiradi. Bayrokdag'i xavorang-zangori osmon va musaffo suv ramzidir. Moviy-lojuvard-xavorang Sharkda azaldan kadirlangan. Soxibkiron Amur Temur bayrogi xam shu rangda bulgan. Oq rang tinchlik va poklik ramzidir. Yashil rang - tabiat timsolidir. Yarim oy musaffo osmon va tinchlik ramzidir. 12 yulduz tasviri mukammallik timsoli xisoblanadi. Davlat bayrogi-bizning utmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimiz ramzidir. Davlat bayrog'i-mustakil davlat va unda yashovchi fukarolar daxlsizligini shartli ifodasidir. Davlat bayrogi davlat mustaqilligini ramzi sifatida davlat raxbari, xukumat, oliy konun chiqaruvchi organ, davlat tashkilotlari, elchixonalar, konsulliklar binolarida, xalqaro qatnovdagi xavo va dengiz kemalarida ko'tariladi. Davlat bayrog'ini xaqorat qilgan shaxs jazoga tortiladi. Uzbekiston Respublikasi Davlat gerbi tug'risidagi qonun 1992 yil 2 iyulda Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining uninchi sessiyasida qabul qilindi. Gerbning markazida tasvirlangan Xumo qushi-baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Navoiy-Xumo qushi barcha tirik mavjudodlar ichida eng saxovatlisi deb ta'riflagan.

Davlat gerbi-davlat ramzi: davlatning milliy siyosiy, iqtisodiy xukumatlari xamda ijtimoiy va davlat tuzumi, geografik va boshqa belgilarni shartli ravishda ifodalaydigan tamga-belgi. Gerb davlat muxrida, rasmiy blankalarda, muxim xujjat, pul va davlat zaemlarida aks ettiriladi. Gerbning barcha xususiyatlari maxsus konun bilan yeki Konstitutsiyasi bilan rasmiylashtiriladi. Davlat gerbi eramizdan avvalgi uch minginchi yillardan boshlab ma'lum. Davlat gerbi

davlatning o'ziga bo'lgan ishonchi, uz mustakilligini ximoya qilishga tayyor ekanligi, bunyodkorlik maqsadlarini shartli rasm, belgi tarzida ifodalaydi. Davlat gerbi ba'zi axamiyatli rasmiy binolarda xukumat, Oliy sud, Prokuratura, diplomatik, konsullik binolarida aks ettiriladi. Gerb fukarolik pasportlarida, chegara ustunlarida xam aks ettiriladi. Davlat gerbining xakorat kilgan shaxs Jinoyat kodeksiga binoan jazolanadi.

4. Siyosiy islohotlar. Mustakillikka erishilishi munosabati bilan Uzbekiston Respublikasi oldida muxim strategik axamiyatga ega bulgan masala uzining yangi davlatchiligi va uni amalga oshirishning bosh va asosiy tamoyillarini anikab olish masalasi ko'ndalang bo'lib turadi. Juhon tajribalariga, xalqning tarixiy tajribasi va o'ziga xos xususiyatlari muvofik shunday tuxtamga kelindi: sobiq SSSR paytida davat va ijtimoiy xayot tizimini belgilab bergen avtoritar idora uslubi va ma'muriy-buyruqbozlik tuzumdan tamomila voz kechib, Uzbekiston demokratik xuquqiy davat va fukarolik jamiyatni quradi. Mamlakatda davlat kuriishi va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning besh yillik tajribasi respublikaning o'z xalqi an'analari va xususiyatarini xisobga olgan xolda ijtimoiy-siyosiy xayotning xalqaro tan olingan madaniy me'yorlariga, demokratik va xuquqiy tamoyillariga sodiq ekanligini tasdiqlamoqda. Demokratiya yunoncha so'z bo'lib, tarjimada xalq xokimiyyati (demos-xalk, kratos-xokimiyyat) ma'nosini bildiradi. Demokratik deb oliy xokimiyyat bevosita xalqqa tegishli bo'lgan va xalqning xoxish-irodasi bilan amalga oshadigan davlat jamiyatga aytildi. Umumiylar tarzda demokratiya deganda xammaning manfaatlari yo'lida ko'pchilikning xokimiyyati va ozchillikning irodasini xurmat kilish tushuniladi. Batafsil taxlil kilganda esa demokratiya-xalkning uz erkinligi va mustakilligiga karashli ham, har bir shaxsning manfaatlari va xuquqlarini o'zbo-shimchalik bilan cheklashlar va shu yo'sindagi xarakatlardan ximoya kilish xam, fukorolarning o'z-o'zini boshqarish shakli ham ekanligi ayon bo'ladi. Tarixiy tajriba va nazariy tafakkur davlat va uning mohiyatiga oid bir qancha, xilma-xil kontseptsiyalarni biladi. Ulardan bir mucha keng tarqalganlari quyidagilar: Sinfiy davlat kontseptsiyasi marksizm-leninizm ta'limotining asosini tashkil etib, u davatning moxiyatini bir sinfning ikkinchi bir sinf ustidan xokimiyatini ta'minlashda ko'radi. Bunday yondashuvga muvofiq davlat iqtisodiy xukmron sinf qo'lida boshqa sinflarni bostirib turish uchun qurol, mashina vazifasini bajaradi. Bu kontseptsiyaga muvofiq davlat bor joyda hech qanday demokratiya xaqida gap bo'lishi mumkin emas: xox burjuaziya xokimiyyati bo'lsin, goh proletariat xukmronligi bo'lsin, zo'ravonlikka asoslanarmish. Bunga qarama-qarshi ularoq manarxiya-xokimiyyatsizlik kontseptsiyasi kishilar erkinligini cheklaydigan har qanday xokimiyyatchilikni tashkilot sifatida rad etadi.

Liberal-demokratik kontseptsiya zaif davlat tug'risidagi tasavvurlardan kelib chiqqan bo'lib, uning vazifasi jamiyatdagi turli sinflar va ijtimoiy katlamlarni uzaro murosaga keltirishdan iborat. Totalitar davlat kontseptsiyasi esa ijtimoiy

xayotning barcha soxalarini yalpi davlatlashtirishni, xar kanday ijtimoiy qatlam va guruxlar manfaatlarining va xatto har bir fuqaro manfaatining davlat manfaatlariga bo'ysundirishni talab qiladi. Bu va boshka kontseptsiyalar, shu jumladan etnokratik, teokratik, korporativ va boshkalar turli shakl va tipdagi davlatlarni nazariy jixatdan qo'llab keladilar. Hozirgi davrda ham davlatlarning ko'plab tur va shakllari mavjud: monarxiya va respublika, demokratik va avtokratik kabi. Bunday davlatlar xam uz ichida muayyan farklarga ega: masalan, mutlok va chegaralangan monarxiya, Parlamentar Respublika, Prezidentlik Respublikasi va shu kabilar. Mustaqillikka erishgan har bir halq davlat qurilishining u yoki bu turini aniq siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlariga, tarixiy an'analari va ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga qarab o'zi tanlaydi.

Shuning uchun xam xar bir mamlakat va xalqning davlat qurilishi o'ziga xos farqli xususiyatlarga ega bo'ladi. Shunga qaramasdan, xalqaro tan olingan bir qancha tamoyillar borki, ular insoniyat tarixiy taraqqiyotining xozirgi boskichida madaniy, demokratik davlatning asosiy xususiyatlarini ifodalaydi.

Birinchidan, davlat jamiyat tarakkiyotining maxsuli, insoniyatning buyuk kashfiyotidir. Davlat-bu zaruriy ob'ektiv reallik bulib, jamiyat mavjudligi va faoliyatning, xayotni adolatli xukuiy asosda tashkil etishning asosiy shartidir. Bu jixatdan, marksizm va manarxsizmdan farkli ularok, davlatning ilmiy kontseptsiyasi uning zaifligidan, o'lishi yoki yo'q qilinishidan emas, balki rivojlanishi, takomillashuvi, faoliyatining samaradorligini ta'minlash xususiyatidan kelib chickadi.

Ikkinchidan, davlat-bu shunchaki zaruriy ob'ektiv reallik bo'libgina qolmay, u jamiyatning extiyoji, uning barcha a'zolari uchun muayyan kadriyat hamdir.

Uchinchidan, demokratik davlat ayrim bir ijtimoiy katlamlar, guruxlar va sinflarga emas, balki butun jamiyat manfaatlariga xizmat qilish uchun kerak. U butun xalq, butun jamiyat manfaatlarini ifodalaydi.

To'rtinchidan, demokratik davlat xuquqni, faoliyat usullari va mexanizmlarini takomillashtirish, fukorolik jamiyatiga tobora yaqinlashish yo'lidan muntazam rivojlanib boradi.

Beshinchidan, demokratik davlatning vazifasi inson va fuqarolar erkinliklari va xuquqlarini kafolatlashdan iborat. "Xaqiqatdan ham demokratiya-faqat nazariya yoki siyosiy jarayon bo'lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruxiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlari xamdir... "Demokratiya jamiyatning kadriyatiga, xar bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas", deb "Islom Abduganievich Karimov" ta'kidlaydi.

Shu ma'noda demokratiyani davlat kurlishini tashkil etishning shunday bir shakli deb belgilash mumkinki, unda siyosiy xokimiyatni tashkil etishda, uning faoliyatini bosh yunalishlarini belgilashda va nazorat kilishda xalk ishtirok etadi.

Jaxon tajribalarining guvohlik berishicha, insoniyat taraqqiyotining xozirgi bosqichida davlat qurilishining, oliy, madaniy shakli demokratiyadir va u kuyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- xalqning erkin xoxish irodasi;
  - fuqorolarning teng xukulkiligi;
  - inson xuquqlarining ustivorligi;
  - xokimiyat organalirining saylab kuyilishi;
  - ularning saylovchilarga bo'ysunishi;
- tayinlash yuli bilan shakllanadigan davlat organalarining saylab kuyiladigan organlar oldida xisob berishga burchliligi:
- xokimiyat tarmoklarining taksimlanganligi.

Konstitutsiya mamlakatning asosiy konuni xisoblanadi. Konstitutsiyada jaxon xamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan me'yorlar aks etgan. Xuquq tushunchasi ham davlat tushunchasi kabi ko'p tomonlama murakkab xususiyatga ega. Xuquqiy davlatda hech qanday mafkura ta'siriga berilmagan. Xuquqiy davlat barcha fukorolar uchun ularning ijtimoiy axvoldidan kat'iy nazar, qonunlarning ustunligi ta'minlanadi. Xuquqiy davlat qonunlarni qabul qilishda majburiylikka asolanmaydi. Uzbekiston Respublikasi konstitutsiyasida davlat xokimiyati organlari o'zining qonuniy ifodasini topgan. Konstitutsiyaning 9-moddasida shunday deyiladi: "Jamiyat va davlat xayotining eng muhim masalalari xalq muxokamasiga taqdim etiladi, umumiyo ovozga qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi. Bunday referendumni 1991 yil dekabr va 1995 yilning 26 martida bulib utgan. Referendum-bu xalkning to'g'ridan-to'g'ri, bevosita xoxish irodasidir. Biroq, mutlaqo shak-shubxa yo'qki, davlat va ijtimoiy xayotning barcha masalalari bo'yicha referendum o'tkazish mumkin emas. Shuning uchun ham, butun madaniy olamda bo'lganidek, xalq xokimiyatchiligi, asosan vakillar yo'li bilan, ya'ni xokimiyat organlari umumxalq saylovlarini orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyaga muvofiq ularga davlat va ijtimoiy xayotning asosiy masalalari buyicha qarorlar qabul qilish topshiriladi. To'g'ridan-to'g'ri, teng va umumiyo ovoz berish yo'li bilan saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis xalqning ana shunday muxtor xuquqli vakillari xisoblanadilar. Shunday qilib, xalq xokimiyati saylovda qatnashish yo'li bilan amalga oshiriladi va saylov xuquqi bilan aniqlanadi. Saylov tizimi mamlakatda saylovlar xaqidagi qonunchilik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIII bobida keltirilgan saylov xuquqlarining asosiy tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi saylov qonunlari quyidagilarga asoslanadi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risidagi qonun (1991 yil 18 noyabr).

O'zbekiston Respublikasi prezidentiga saylovlar to'g'risidagi qonun (1991 yil 18 noyabr).

Viloyat, tuman va shaxar deputatlari kengashiga saylovlari to'g'risidagi qonun (1994 yil 5 may).

Fuqorolarning saylov xuquqlarini kafolatlari to'g'risidagi qonun (1994 yil 5 may).

O'zbekiston Respublikasi davlat xokimiyatining tizimi va tashkil etilishining muhim demokratik tamoyili konstitutsiyaning 11-moddasida beriladi. Unga muvofiq xokimiyat organlari qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatiga bo'linadi. Xokimiyat organlari bir-biri bilan o'zaro bog'lik. Ular o'z vakolat doirasida erkin va mustaqil xarakat qiladilar. Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasida yagona qonun chiqaruvchi organ xisoblanadi. Oliy Majlisda 250 nafar deputat mavjud. Oliy Majlis qonunlari qabul qiladi, ularga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritadi, konstitutsiya qabul qiladi, ularga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritadi. Oliy Majlis o'z ishini boshlash uchun jami deputatlarning 32 qismi jam bo'lganda xaqiyqiy xisoblanadi. Deputalarning vakolat muddati 5 yil. quydagilar Oliy Majlis deputatligiga nomzodini ko'rsata olmaydilar:

- milliy xavfsizlik xizmatchilarining xodimlari;
- qurolli kuchlarning xarbiy qismlari boshliqlari;
- ichki ishlar xodimlari;
- prokuratura organlari mansabдор shaxslari.

Prokuratura organlari o'z nomzodlarni qo'ygan taqdirda o'z lovozimidan vaqtinchalik olinadi. Parlament ishini tashkil etish uchun Oliy Majlis rahbarligida uning kengashi tashkil etiladi. Lavozim bo'yicha uning tarkibiga: rais o'rribosari, Oliy Majlis komitalari, mandat komissiyasi raislari, blok va fraktsiyalar vakillari kiradi. Oliy Majlis quydagi tartibda tuziladi: Oliy Majlis sessiyasi, Oliy Majlis raisi, o'rribosarlari, kengashi, Oliy Majlis kotibiyati, Oliy Majlis komitetlari va komissiyalari, inson xuquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili (ombudsman). Vazirlar mahkamasi va mahalliy davlat xokimiyatining vakillik organlari ijro etuvchi xokimiyatdir. Prezident bir vaqtning o'zida vazirlar maxkamasining raisi etib xisoblanadi. Vazirlar mahkamasi tarkibi prezident tomonidan tuziladi. Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar mahkamasi tarkibiga bosh vazir, uning birinchi o'rribosari va o'rribosarlari, vazirlar, davlat ko'mitalari raislari va Qoraqolpog'iston Respublikasi vazirlar kengashi raisi kiradi.

1995 yil 5 mayda vazirlar mahkamasining 35 kishidan iborat tarkibi tasdiqlandi. Vazirlar mahkamasi iqtisodiyotning ijtimoiy va ma'naviy sohaning faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoishlarini ijrosini ta'minlaydi.

Prezident Isroi Karimov 2000-yil 25 may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining ikkinchi sessiyasida doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tishni taklif qildi. 2001-yil 6-7 dekabr kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi

muxokama qilindi va parlamentni ikki palatali qilish zarur deb xulosa qilindi. 2004-yil dekabr-2005 yil yanvar oylarida mamlakatimizda ikki palatali parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi. Qonunchilik palatasiga 120 nafar deputat saylandi.

Prezident davlat boshligi sifatida xukumat rahbari, davlat va ijro etuvchi xokimiyat boshlig'idir. Uning vakolatlari quyidagicha:

-fuqorolarning xuquqlari va erkinliklariga, konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

-ijro etuvchi xokimiyat devonini tuzadi va unga raxbarlik qiladi, Respublika vazirliklarini davlat ko'mitalarini hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi;

- viloyat xokimlarini va Toshkent shahar xokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

Bu masalalar tegishli xalq deputatlari kengashining tasdiqiga qo'yadi (konstitutsianing 89, 90, 91, 93-moddalar). 1993 yil 2 sentyabrda "Sudlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun sudlar faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi. Konstitutsianing 106-moddasiga muvofik: "sud xokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi xokimiyatlarda, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalardan mustaqil xolda ish yuritadi".

Sud tizimi 5 yil muddatga saylanadigan konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlaridan, Qoraqolpog'iston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo'jalik sudlaridan iborat.

Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi xokimiyatlarning faoliyatini konstitutsiyaga mos ekanligini nazorat qiladi. Oliy sud fuqorolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini tartibga soladi. Xo'jalik sudlari esa, xo'jalik nizolarini ko'rib chiqadi. Sud'yalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar. Sud'yalar siyosiy partiyalar va xarakatlarga a'zo bo'la olmaydilar. Oliy sud va Oliy xo'jalik raislari, uning a'zolari Oliy Majlisning deputati bo'la olmaydilar. Barcha ishlarda ochiq ko'rildi.

##### 5. O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatasi asoslarining yaratilishi.

Demokratik, xuquqiy davlat rivojlanishining mantig'i, ichki qonuniyatlar davlat xokimiyati organlari va boshqaruvining siyosiy partiyalar va jamiyat birlashmalari-kasaba uyushmalari, faxriylar, yoshlari, xotin-qizlar tashkilotlari, ijtimoiy va ijodiy jamg'armalar, fuqorolarning boshqa ko'ngilli birlashmalari bilan har tomonlama yaqin aloqalari va hamkorligini taqozo etadi. Boshqa so'z bilan aytganda, xaqiqiy demokratiya fuqorolarning Prezident va xokimiyatning vakillik organlariga saylovlarda qatnashishidangina iborat bo'lmay, balki ularning mamlakatda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarning borishiga, davlat va jamiyatning barcha ishlari boshqaruviga bevosta, shuningdek jamiyat

birlashmalarining faoliyatida ishtirok etish orqali har kuni ta'sir o'tkazishini xam bildiradi.

O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari. Ijodiy uyushmalar ommaviy xarakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalar sifatida e'tirof etiladi. Demokratiya va bozor isloxostrarining chuqurlashuvi bilan fuqarolarning ijtimoiy tashabbuskorligi, fuqarolik jamiyati qayta tiklanmoqda va tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. "Fuqarolik jamiyati" va "Jamiyat" tushunchalari aynan bir narsa emas. Jamiyat-bu kishilar umumiyligi, davlatning butun belgilarini ham o'z ichiga oladigan birligi. Fuqarolik jamiyati bu jamiyatning bir qismi. Xokimiyatning davlat organliri va boshqaruvdan tashqari qismi. Fuqarolik jamiyati davlatning vujudga kelishi bilan yuzaga keladi va shakllanadi. Mavqeい, uning demokratik darajasiga muvofiq belgilanadi. Fuqarolik jamiyati va davlatning o'zaro aloqalari ob'ektiv muqarrar. Davlat xokimiyat tizimi va faoliyatida demokratik tamoyillar va me'yorlar qanchalik to'la chuqur mujassam bo'lsa, fuqarolik jamiyatining faoliyati ham shunchalik keng, uning davlat bilan aloqalari xilma xil bo'ladi. Agar davlat, yaqin o'tmishda bo'lganidek, fuqarolik jamiyat manfaatlaridan uzilib qolsa, unda u muqarrar ravishda inqirozga uchraydi, o'zining tabiiy-tarixiy, ijtimoiy vazifasidan mahrum bo'ladi. Davlatda demokratiya va fuqarolik jamiyatining yetuklik darjasini fuqarolarning siyosiy va jamoat tashkilotlarining ta'siri va taraqqiyot darjasini bilan belgilanadi. Mustaqillikning o'tgan 16 yil mobaynida O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishi va ijtimoiy siyosiy taraqqiyot tajribalari shuni ko'rsatadiki, mamlakat demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida maqsadga qarab ishonch bilan olga siljimoqda. Ularning tobora chuqurlashib borayotgan va samarali hamkorligi mamlakatda siyosiy barqarorlik, fuqorolar osoyishlataligi va millatlararo totuvlikni ta'minlamoqda. Mamlakat mustaqil davlat maqomiga ega bo'lganidan keyin istiqlol talablariga mos ravishda kadrlar siyosati ishlab chiqildi. Mamlakatda eng avvalo mahalliy boshqaruv organlari kadrlarini davr talabiga mos darajada mustahkamlashga kirishildi. 1994 yil 4 yanvarda Uzbekiston Respublikasi Oliy kengashining 9-sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining mahalliy xokimiyat idoralarining qayta tashkil etish to'g'risida" qonun qabul qilindi. Oliy kengash shu xususda qabul qilgan qarorida "Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish sharoitiga ijroya xokimiyatini mustahkamlash zarurligi munosabati bilan:

1. O'zbekiston Respublikasining viloyatlari, tumanlari va shaharlarida vakillik xokimiyatiga hamda ijroya boshqaruv xokimiyatiga boshchilik qiladigan xokimlar lavozimi ta'sis etilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki-viloyatlarning xokimlari O'zbekiston Respublikasining prezidentiga va xalq deputatlari tegishli kengashlariga xisob

beradilar. Prezidentning joylaridagi rasmiy vakillari tashkil etiladi. Ular prezident tomonidan tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar. Qonun talablari asosida joylarda shahar va tuman xokimlarini tanlash, tayinlash, ishini amalga oshirish uchun tashkilotchilik ishlari amalga oshiriladi.

#### 6. Siyosiy partiyalar, milliy siyosat, ommaviy-axborot vositalari.

Xozirgi vaqtida Respublikada beshta siyosiy partiya faoliyat olib bormoqda: 1. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991-yil 1-noyabrdan Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis quriltoyida tashkil topgan. Ushbu quriltoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston XDPsining "O'zbekiston ovozi", "Golos Uzbekistana" gazetasi va "Muloqat" jurnali nashr etilmoqda. 2. 1995-yil 18-fevralda O'zbekiston "Adolat" sotsialdemokratik partiyasi tuzildi. Partiyaning Toshkentda bo'lган 1-ta'sis quriltoyida uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. "Adolat" nomli ijtimoiy-siyosiy xafthalik gazetasi nashr qilinmoqda. 3. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalardan yana biri "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi. U 1995-yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis quritoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. "Milliy tiklanish" xafthalik gazetasi nashr qilinmoqda. 4. 1998-yil 28-dekabrda O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi tashkil topdi. Partiyaning 1998-yil 28-dekabrdagi ta'sis konferentsiyasida uning Dasturi va Nizomi tasdiqlandi. Partiyaning "Fidokorlar" gazetasi nashr etilmoqda. 5. 2003-yil oxirida O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi tashkil topdi. Uning maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatlarini ximoya qilishdan iborat. O'zLDPning "XXI asr" xafthalik gazetasi nashr qilinmoqda. 1995-yil may oyida jamoatchilikning tashabbusi bilan O'zbekiston "Xalq birligi" xarakati tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda. "Xalq birligi" xarakatining "Birlik" va "Edinstvo" xafthalik gazetasi nashr etilmoqda. O'zbekiston Prezidentining 1996-yil 17-apreldagi farmoniga muvofiq, respublika yoshlarining "Kamolat" jamg'armasi nodavlat xayriya-jamoat birlashmasi sifatida tashkil topgan edi. 2001-yil 25-aprel kuni Toshkentda bo'lган yoshlar kuriltoyida o'zini-o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilot-O'zbekiston Respublikasi "Kamolat" yoshlar ijtimoiy xarakati tuzildi va uning Dasturi, Nizomi tasdiqlandi.

#### 7. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. «O'zbek modeli».

Uzbekistonda bozor munosabatlariga utishni uziga xos yuli ishlab chikildi. Bu yulning ilmiy nazariy asoslari, koidalari I.Karimovning "Uzbekiston-bozor munosabatlariga utishni uziga xos yuli" va boshka asarlarida puxta ishlab chikildi va iktisodiy isloxatlar uchun dasturul amal bulib xizmat qildi. Jamiatni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangilashning o'z yo'li 2 ta iqtisodiy asosning birikuviga asoslanadi:

Birinchidan-jaxon tajribalarini xar tamonlama urganish, iqtisodiy isloxtatlarni o'tkazish bo'yicha jahon tajribasida to'plangan barcha ishlarini keng qo'llash.

Ikkinchidan-Mamlakatning uziga xos sharoitini an'analari, urf odatlari, uzbek xalkining xayot tarzini xar tamonlama keng xisobga olish. O'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yuli va andozasini tanlab olish juda katta axamiyatga molik. Bu yo'l va andoza iqtisodiyoti bozor munosabatlarni asosiga qurilgan rivojlangan mamlakatlarning ko'p asirlik tajribasiga, shuningdek O'zbekiston xalqining milliy tarixiy merosi, turmish tarzi, ananalar va ruxiyati xususiyatiga tayanishi lozim .

Iqtisodiy isloxtlardan maqsad-iqtisodiy tanglikni bartaraf etish, ijtimoiy yo'naltirilgan ochiq bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, iqtisodiy munosabatlarni, eng avalo mulkchilik munosabatini va xususiy mulkchilik qatlamenti shakillantirishdan iborat. O'zbekiston isloxtlar kotseptsiyasi Prezident I. Karimov ta'riflab bergen besh tamoyillarda uz ifodasini topgan. Iktisodiyotni ushbu islox etish tamoyillari kuydagilardan iborat:

Birinchidan, iktisodiyotni mafkuradan batomom xoli kilish, iktisodiyot siyosatdan ustun turmogi, iktisodiyot va uni rivojlantirish eng asosiy masala bulmogi kerak.

Ikinchidan, murakab utish davrida davlatning uzi bosh islochchi bulishi zarur. Davlat butun xalkning manfatini kuzlab, iktisodiy tarakkiyotning yetakchi yunalishlarning belgilash, iktisodiyotda, ijtimoiy soxada, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy xayotida tub uzgarishlarini amalga oshirish ishlab chikish kerak.

Uchunchidan, yangilash va tarakkiet jaraeni konunlariga asoslanmogi kerak. Konunni ustunligi jamiyatda asosiy rolni uynashi kerak.

Turtinchidan, kuchli ijtimoiy siesat-ijtimoiy siesiy barkarorlikni saklagan xolda bozor iktisodieti sari rivojlanib borishini ta'minlash kerak.

Beshinchidan, iqtisodiy isloxtlar, bozor munosabatlarini shakllantirish, puxta uylab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

Bu besh tamoyilni xammasi ham demokratik va iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishda birday muxim axamiyatga ega. Shu bilan birga bozor munosabatlariga boskichma boskich utish aloxida urin tutadi. Uzbekiston jaxon tajribalariga, o'z xalqi xususiyatlariga tayanib o'z taraqqiyot yo'lini tanladi va bunda asosiy umidni o'z manbalari va imkoniyatlariga qaratdi. Tarix tajribasi va tarakkiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni kursatmokdaki, jamiyat tarakkiyoti va sivilizatsiyasi xakikiy yuli-bu tabiiy tarixiy, evalyutsion jarayondir. Taraqqiyot zaminida mafkuraviy aqidalar emas, balki iqtisodiyotning ob'jektiv qonunlari yotadi va vayronaliklar olib keladigan inqilobiq qistovlar orqali emas, balki asta sekin va bosqichma-bosqich rivojlanishi natijasida erishiladi. Davlat va jamiyatning barcha faoliyatları markazida inson manfatları, uning xukuk va erkinliklari yotishi kerak. Jamiyat uzboshimchalik bilan emas, konun bilan boshkarilishi lozim. Demokratik va iktisodiy o'zgarishlar jarayonini

muvaffaqqiyatli isloh etish uchun bu tamoyillar bir xil va muxim axamiyatga ega. Jahon tajribalari va xalqni o'z tarixi shuni aniq ko'rsatadiki, ijtimoiy, milliy taraqqiyotning bosh yo'naliishlari:

Demokratiya va qonuniylik; mulkchilik shakillarini rang-barangligi va bozor munosabatlari:

Yuksak manaviyat va madaniyat kishilarni uz tarixi, xalkning ma'naviy merosiga xurmat ruxida tarbiyalash va jaxon madaniyati yutuklarini egallash:

Xalqaro xamkorlikni rivojlantirish, jaxon xamjamiatiga kirib borishdan iboratdir. Bugun Uzbekiston bozor isloxaqtalarining chukurligi va miqyoslari buyicha MDXdagi qator mamlakatlar bilan qiyoslaganda ancha ilgarilab ketdi. Respublikada mavjud 91800 korxonadan 75905 tasi iktisodning nodavlat sektoriga mansubligini aytishni uzi kifoyadir. 1998 yil yakunlariga kura ishlab chikarilgan milliy daromadning 70 foyizi, sanoat maxsilotini 53,5 %, kishlok xujaligi maxsulotini 97,7 %, xalk xujaligida band kishilarni 70 % nodavlat setori xissasiga tugri keladi. Shunday kilib xozirgi kunda bozor iktisodiyoti xalk xujaligida ustunlik kila boshladi.Uzbekiston MDX mamlakatlari kabi ishlabchikarishni yemirilishi va inkirozga duch kelmadi, uning usishi va kayta kurilishi uchun sharoit yaratildi. Iktisodiyotning bozor munosabatlariga utkazish bilan bir katorda Respublikada axolini kam ta'minlangan katlamalarini ijtimoiy muxofaza kilish va jamiyatni ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy yangilash yuzasidan keng mikiyosda tadbirlar amalga oshirilmokda. Bularni xammasi isloxaqtar yulini umumxalk tamonidan kullab kuvaltanishini, siyosiy barkarorlikni, jamiyatda millatlaroro totuvlik va fukarolar tinchligini ta'minladi. Bu esa uz navbatida Mamlakatning taraqqiyoti va gullab yashnashi yo'lida olg'a qarab muvaffaqqiyatli borishini garovidir. "Uzbekiston erishgan natijalari xAMDUSTLIK mamlakatlari bilan kiylagan, taqqoslagan xolda, bir narsani ochiq aytish mumkinki, bu kursatkichlar Uzbekiston tanlagan yo'l tug'ri ekanini, Uzbekiston modeli tarix imtixonidan muvaffaqqiyatli utayotganligini amalda tasdikladi. Bu ko'rsatkichlar barcha isloxaqlarimiz poydevorida turgan asosiy tamoyillarni tug'ri ekanini isbotladi." (I. Karimov)

BOZOR IQTISODIYOTI-jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyotining mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat aъzoarini ishlab chiqarish va isteъmol orqali doimiy hamda to'xtovsiz musobaqaning ishtirokchilariga aylantiradi, shu boisda bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilanib borishiga, miqdorining esa ko'payishiga sababchi bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti xalqning, ommaning ijodiy va mexnat imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka yo'l ochadi, mulkka egalik kilish qoidalarining takomillashtiradi, unga turtki berada. Bozor sharoitida talab va takliflarning miqdori va tarkibi bir-biriga muvofiq kelishi taminlanadi. Ishlab chiqarishning

iste'molchi ustidan xukumronlik qilishga chek qo'yiladi, buning uchun fan yutuklari xayotga va ishlab chiqarishga tatbiq etishdi, texnikaviy va texnologik yangilanishning eng zamonaviy usullaridan foydalaniлади.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy krizislar, ishsizlik, pulning qadrsizlanishi, ko'pgina korxonalarining yopilishi, ishbilarmonlarning sinishi va xattoki xonavayron bo'lishi, aholi turmush darajasi bo'yicha tabaqalanishning kuchayishi muqarrardir. Bu davrda siyosiy va iqtisodiy jinoyatchilik ortadi, chunki, o'tmishda yuqorida berilgan ko'rsatmalar va davlat tomonidan ajratilgan mablag'ga ishlatilgan bo'lsa, endi erkin bozorning shavqatsiz va xolis talablariga javob bera oladigan raqobat bardosh mahsulot yaratish kerak, bunga esa ko'plar o'rgangani yo'q, oramizda xo'ja ko'rsinga ishlaydiganlar oz emas.

O'zbekiston iqtisodiyotining bozor shakliga bosqichma-bosqich, ijtimoiy sakrashlar va portlashlarsiz o'tib, o'z taraqqiyotida yangi sifat darajasiga ko'tarilmoqda. Bu davrda davlatning vazifasi: aholini ijtimoiy muxofazalash: uning muhtoj qatlamlariga doimiy yordam ko'rsatish: bozorni mafkura ta'sirida ozod etish: xo'jalik yuritish ishlariga faqat iqtisodiy usullar bilan ta'sir ko'rsatish.

O'zbekistonda tub iqtisodiy islohatlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga kirishilar ekan, avvalo, uning strategik maqsadlari belgilab olindi.

Bozor islohotlarining strategik maqsadlari va ustivor vazifalarini bosqichma-bosqich amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining negizini tashkil etdi. Belgilangan maqsadlarga bosqichma-bosqich erishilib borildi.

BOSQICHMA-BOSQICH O'TISH-jamiyat taraqqiyotining, ya'ni uning bir sifat xolatidan ikkichi sifat xolatiga o'tishning asosiy rut va shakillaridan biri. Sobiq xukumron mafkura va nazariya bir xolatdan ikkinchi xolatga, bir sifatdan ikkinchisiga o'tishning inqilobiy portlash va ijtimoiy sakrash bilan bog'liq shakllarini tan olar, bosqichma-bosqich, asta-sekin o'tishni, yangilikning tarkibiy qismlarini kundalik izchil faoliyati natijasida bitta-battadan shakllantirib, yangi sifatni yuzaga keltirishni, shu tariqa jamiyatni o'zgartirishni asosan rad qilar va bu-revolyutsiya qonun-qoidalaridan chekinish deb tushuntirar edi. Jahon ijtimoiy taraqqiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, inqilobiylid, murosasizlik quldarlikdan feodalizimga va feodalizimdan kapitalizmga o'tish davrlariga nisbatan o'rni bo'lган, chunki, u davrlarda kishilar jamiyat taraqqiyoti qonunlarini bilmaganlar, jamiyat o'z qaridagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarni xal etolmay, boshi berk ko'chasi kirib qolgan va bunday vaziyatlardi ijtimoiy portlash va sakrash zarur bo'lган. XX asr bu masalalarni xal etishning eskirgan shakllaridan voz kechishni, uning o'rniga muzokara hamda muloxazalar orqali konsensus, ya'ni hamma uchun ma'qul umum qarorni topishni, ziddiyat hamda qarama-qarshiliklarni inson ongi, aql-zakovati, taxlil qobiliyatiga tayanib hal qilish yagona tug'ri yo'l va inson nomiga yarashadigan usul ekanini anglashga olib keladi. Ikkinci jahon urishidan keyingi davrda ana shu yo'ldan borib inson aql-zakovatining maxsullarini, ya'ni

fan, texnik va texnologiya yangiliklarini o'zlashtirishni o'zlariga asosiy vazifa qilib qo'ygan AQSh, Olmoniya, Frantsiya, Yaponiya kabi davlatlar hozirgi zamonning ilg'or mamlakatlariga aylandilar.

Mustaqil O'zbekiston xuddi shunday yo'l tanladi va bu narsa uning tashqi va ichki siyosatda eng oqila qadamidir. Ushbu maqsadni amalga oshirishda davlatning o'zi bosh islobatchi bo'lmog'i zarur.

Iqtisodiy islohatlar ikki asosiy bosqichga bo'linadi. O'tish davrining birinchi bosqichidan islohatlar strategiyasi va uni amalga oshirish yo'llarini belgilovchi o'z modelimiz yaratiladi. Bunda markazlashgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish, sifat jihatdan yangicha xo'jalik yuritish mexanizimini yaratish vazifasi amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda islohatlarning qonuniy-xuquqiy bazasi rivojlantirilmoqda. Birinchi navbatda davlat mustaqilligini va iqtisodiy munosabatlarni muxofaza qiluvchi Asosiy qonun-O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilinadi, ko'p o'qiladi, iqtisodiyot negizlari yaratiladi. Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish jarayoni amalga oshiriladi. Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda qishloq xo'jaligini isloh qilishga imtiyoz berildi. Bunda qishloq xo'jaligi homashyosini qayta ishlovchi tarmoqlarni rivojlantirish asos qilib olinadi. Yerga egalik qilishning zamонавиyo yo'llari "Er to'g'risidagi"gi qonun bilan belgilab berildi. Tashqi dunyo bilan o'zaro teng xuquqli, milliy manfaatlarga mos keluvchi savdosoti va moliya munosabatlarini ta'minlovchi davlat mexanizmi yaratildi. Ikkinchi bosqichda bozor tizimlari shakllanib, soliq, moliya, pul-kredit siyosati yanada takomillashadi, makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi. Yangi soliq tizimi barpo qilinadi, ekisport imkoniyatlari kengaytiriladi, so'mning mavqeい va quvvati kuchaytirilib, tashqi iqtisodiy aloqalarda to'lov balansining ijobiy bo'lishiga erishiladi. Bularning hammasi mamlakatimizning rivoji, uning qudrati va obro'sini kuchaytirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Bosqichma-bosqich o'tish siyosatida mustaqil O'zbekiston rahbariyatining va birinchi navbatda, Prezident I.A.Karimovning rivojlanishning o'ta mas'uliyati pallasida yagona to'g'ri yo'lни tanlab ola bilishi namoyon bo'ldi. Bunday siyosat tufayli O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga qurbanlarsiz, mitingbozlik, ish tashlashlar va daxanaki janglarsiz o'tmoqda, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning vayron va yakson bo'lishiga yo'l qo'ymayapti, kelajakning negizini yaratmoqda.

8.Iqtisodiy islohotlar, uning strategiyasi, ustivor yo'naliishlari va bosqichlari.

Islohotlarning birinchi bosqichida bozor munosabatlarining xuquqiy poydevori yaratildi. Avvalo, islohotlar jarayonini davlat-xuquqiy poydevorini jihatdan boshqarishning yaxlit tizimi tarkib topdi. Bu tizim xokimiyat va sud xokimiyatlarini o'zida uzviy qovushtiradi. Prezident xuzurida mahsus iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el invistitsiyalari bo'yicha idoralararo kengash tuzildi. Iqtisodiy soxaga tegishli bo'lgan 100ga yaqin qonunlar qabul qilindi. Bu

qonunlarni beshta yo'nalishga bo'lish mumkin. Birinchi yo'nalish O'zbekistonning davlat mustaqilligi, iqtisodiy mustaqilligining xuquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlar. Ikkinci yo'nalish yangi iqtisodiy munosabatlarni, eng avvalo, xususiy mulkchilikni va ko'p ukladli iktisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar majmuasi yaratildi. Uchinchi yo'nalish xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilindi. Bular xo'jalik yuritish yangi mexanizmining asosiy belgilarini belgilab berdi. To'rtinchi yo'nalish O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi xuquqiy normalar yaratidi. Beshinchi yo'nalish inson xuquqlarini, aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini va ijtimoiy kafolatini ta'minlaydigan qonunlar qabul qilindi. Mustaqil O'zbekistonning ilk konstitutsiyasi-davlat va jamiyat hayotining Asosiy Qonunini qabul qilinganligi qonun chiqarish faoliyatining gultoji bo'ldi. Bu qonunlar o'z umrini yashab bo'lgan eski iqtisodiy munosabatlarni va siyosiy tizimni xuquqiy yo'l bilan yangi iqtisodiy munosabatlar va siyosiy tizim bilan almashtirdi.

9. Davlat mulkini xususiylashtirish. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish iqtisodiy isloxitlarda yetakchi o'rinni tutadi. XUSUSIYLASHTIRISH (MULKNI)-iqtisodiy tushuncha bo'lib, mulkka egalik xuquqini davlatdan firmalar va alohida shaxslarga berilishi, xususiy sektorga davlat xizmatlari ko'rsatilishini cheklanish yoki xususiy tashabbuskorlik uchun keng imkoniyatlar berish maqsadlarida davlatning faoliyat sohasini toraytirishni bildiradi. Bu jarayon yangi mulkdorlar sinfining vujudga kelishiga ko'maklashadi, zero, u siz bozor iqtisodiyotini shakillantirish mumkin emas. Xususiylashtirish bozor munosabatlari shakillanishining negizi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni oyoqqa turgazishning chinakam asosini tashkil etadi. Xususiylashtirish dasturini amalga oshirishga kirishayotib, har qanday davlat, eng kamida, ikki asosiy maqsadni: korxonalarga ajratilayotgan mablag'lar kamayishi va davlat boyliklarini sotishdan tushugan mablag'lar xisobiga byudjetni to'ldirishni ko'zlaydi. Korxonalarning xo'jalik faoliyati ustida xukumatning ma'muriy-moliyaviy nazoratining cheklanishi kuch-g'ayratni va mablag'larni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga jamlash imkonini beradi. Xususiylashtirishning asosiy yettita usulini alohida ajratish mumkin. Ular:

1. Davlat korxonalarini aktsiyalarini ochiq sotuvga chiqarish;
2. Aktsiyalarni kim oshdi savdosi yo'li bilan sotish;
3. Davlat korxonalarini xususiy investrlash, ya'nni ayrim shaxslardan ixtiyoriy ravishda mablag' yig'ish yo'li bilan ta'minlash;
4. Korxonalarning mulkini sotish va keyinchalik mavjud qarzlarni to'lash yo'li bilan davlat korxonasini tugatish;
5. Davlat korxonasini alohida bo'linmalarga ajratish yoki bo'lish va qayta qurish yo'li bilan ularni qismlar bo'yicha sotish;

6. Korxonalarini rahbarlar va mehnat jamoasi a'zolari tomonidan sotib olish:

7. Davlat korxonasining xususiy shaxs tomonidan ijaraga olinishi yoki davlat va xususiy korxonalar o'rtasida korxonani boshqarish to'g'risida bitim tuzish.

Xususiylashtirish natijasi, hech bo'limganda, ikki asosiy vazifasini hal etishdan iboratdir:

1) Mulk o'zining xaqiqiy egasini topadi. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxaatlarning asosiy ma'nosi ham mulkni xaqiqiy egalari qo'liga topshirish, tadbirkorlar faoliyati uchun ularga keng imkoniyatlar berishdan iboratdir. Davlat yangi mulkdorlarga bepul emas, balki uni sotib olish yo'li bilan beriladi. Bu narsa real qiymatga ega bo'lgan narsa larnigina chinakamiga qadrlash va tejab-tergash kabi psixiologiya omil bilan bog'liqdir.

2) Xususiylashtirish ko'p ukladli iqtisodiyotni va rag'batlantiruvchi raqobatni, turli maxsulot ishlab chiqaruvchi muxitni vujudga keltiradi.

Xususiylashtirish sobiq davlat o'rnila yuzaga kelgan yangi mustaqil davlatlarda eng ko'p qiyinchiliklarga uchrab, nihoyatda murakkab sharoitlarda amalga oshayotgan jarayonlardan biridir. Sho'ro xokimyati yillarida xukmron tuzum o'zining imtiyozli raxbar tabaqalarini yuzaga keltiradi, ularning ongida va kundalik amaliy xayotida xususiy mulksiz jamiyatda beozor va farovon kun kechirishning yo'llarini tanlash aqidasini yaratadi. Bu tabaqalar katta tajribaga ega, yuqorida pastgacha jamiyat va davlat tuzumining barcha soxalarida mavjud, ko'pincha kiritilayotgan islohot hamda tub o'zgarishlarni o'z foydalarini ko'zlab talqin qiladilar. Xususiylashtirish jarayonini sustlashtiradigan birinchi kuch yuqorida aytib o'tilgan omil desak, ikkinchi salbiy omil, bu-istibdod tuzumi va mafkurasi kishilarda shakllangan karamlik, boqimandalik, fikr yuritishda va amaliy faoliyatda nomustaqlilik, xususiy mulkka ega bo'lib, mustaqil ish yuritishdan cho'chish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikdan voz kechishdir. Ammo xususiylashtirish har bir kasalga davo va jamiyatdagi barcha muammolarni yechishning yagona kaliti, deyish ham noto'g'ri bo'ladi. O'tish davri sharoitlarida xususiylashtirishning o'zi qachon, qaerda va qay tarzda o'tkazilishi uzbilarchilikka tashlab qo'yilmasin, davlat tomonidan yagona reja asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi qonunga muvofiq, davlat mol-mulkni xususiylashtirish masalasi bo'yicha 20-dan ortiq maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Xususiylashtirish jarayonini umumiyl uy-joy, savdo, maxalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalari, qishloq xo'jalik maxsulotlarini tayyorlash xo'jaliklarini davlat tasrrufidan chiqarish boshlandi. Bu jarayon "kichik xususiylashtirish" deb nom oldi. Kichik xususiylashtirish 1994-yilda tugallandi. 2002-yilga qadar uy-joy fondining 98-foyzga yaqini xususiylashtirildi.

2000-2005 yillarda jami 4660 ta davlat korxona va obekti xususiy mulkdorlarga sotildi.

#### 10. Bozor infratuzilmasining shakllanishi.

Sobiq davlatning tarqatib yuborilishi bilan respublikalar va shaharlar o'rta sidagi iqtisodiy aloqalar uzildi, oqibatda O'zbekistonning bir qancha sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish kamaydi, iqtisodning ko'pgina muhim sohalarini qayta qurish yoki yangidan qurish kerak bo'ldi. Jahan bozorida raqobatga bardosh bera oladigan va aholining iste'mol talablarini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur edi. «Barqarorlashtirish siyosati, — deydi. Prezident I.A. Karimov, — eng avvalo, bu makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdir». Bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodning ustuvor, katta istiqbolga ega bo'lgan tarmoqlarini har tomonlama raqbatlantirib, shu orqali butun iqtisodiyot tarkiban qayta tashkil qilindi. Bozor infrastrukturasi deyilganda tovar va pul bozorida, mehnat resurslari bozorida iqtisodiy vositalar - tegishli moliya va bank-kredit tizimi, sug'urta, auditorlik, yuridik va xususiy firmalar tizimi tushuniladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida infrastrukturani shakllantirish muhim jarayon bo'lib, uni tashkil etish anchagina vaqt talab etadi. Ushbu masalada ko'pgina islohotlar, o'zgartirishlar amalga oshirildi. Masalan: Davlat buyurtmasi tugatilib, o'rniga zarur mahsulotlarni erkin narxlarda xarid qilish joriy etildi. Tovarlar bozorini shakllantiruvchi birjalar tizimi tashkil etildi. Kim oshdi savdosi o'tkazila boshlandi, brokerlik va dillerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo'ldi. Ko'chmas mulk sotish joriy etildi. Banklararo valyuta birjasи tashkil etildi. Davlat sug'urta boshqarmasi o'rniga davlatga qarashli bo'limgan sug'urta kompaniyalari tashkil etildi. Ishsizlik muommasini hal etish uchun Respublika miqyosida 250 ga yaqin mehnat birjalari barpo etildi. 1995 yil dekabrdagi Oliy Majlisning IV sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida», «Banklar va banklar faoliyati to'g'risida» alohida qonunlar qabul qilindi. «Paxtabank», «G'allabank», «Savdobank», «Tadbirkorbank», «Mevasabzavot bank» kabilar tashkil etildi. 1994 yil 1 iyuldan esa O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'm muomalaga kiritildi. Neft mustaqilligini ta'minlash maqsadida ham jiddiy ishlardan biri, ya'ni Buxoro neftni qayta ishslash zavodini ishga tushirilishi ham yirik iqtisodiy yutuqlardan bo'ldi. Janubiy Koreya bilan O'zbekistonning hamkorligida «O'zDEU» qo'shma korxonasinitashkil etilish, ishga tushirilishi hamda avtomobillar ishlab chiqilishi O'zbekiston iqtisodiyotida ulkan, yirik voqeа bo'ldi. Demak O'zbekistonda ham o'zbek mashinasozligi vujudga kela boshladi.

1998 y. ayrim rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy krizis, jahon bozorida O'zbekistonning muhim eksport mahsulotlari-paxta tolasi, rangli metallarning narxini tushib ketishi mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy ahvoliga ta'sir

qilmay qolmadi. Shunga qaramasdan, O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik davom etdi. Xususan, 1998 yili ichki yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 4,4 foiz, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishi 5,8 foizga ortdi. Iste'mol mollarini ishlab chiqarish 7,2 foiz ko'paydi. Avvalgi yillardagi kabi qat'iy moliya-kredit siyosati amalga oshirildi. Natijada inflyatsiya darajasining pasayishiga olib keldi. Endilikda mamlakatimizning yoqilg'i mustaqilligiga erishish siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Istiqlolga erishgan O'zbekiston tarixda ilk bor 1995 yilda neft mustaqilligiga erishdi. Mamlakat endilikda neft mahsulotlariga bo'lган o'z ichki ehtiyojlarini to'la qondiribgina qolmay, katta salohiyatga ega bo'lган istiqbolli va ishonchli eksportyor sifatida jahon bozoriga yo'l oldi. O'zbekistonda neft va gaz kondensatini ishlab chiqarish 1990 yili 2,8 mln. tonnani tashkil qilgan bo'lsa, 1997 yili bu ko'rsatgich 7,9 mln. tonnaga yetdi va chetga neft mahsulotlarini sotish qobiliyatiga ega bo'ldi. Jumladan, 1997 yili 250 ming tonna benzin, 600 ming tonna dizel yoqilg'isi, 450 ming tonna mazut, 100 ming tonna aviatsiya kerosini eksport qilindi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish 1990 yilgi 40,8 mlrd.kubometrdan 1998 yil salkam 54 mlrd. kubometrga ko'paydi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash yuzasidan katta yutuqlarga erishildi. Xususan, mustaqillik arafasida shahar aholisining 43 foizi, qishloqlarda esa 17 foiz aholi tabiiy gaz bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1997 yili 64 va 48 foizini tashkil qildi. O'zbekistonning jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib mustahkamlanib bormoqda. Endilikda jahoning 35 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim tuzilganligi va bir qancha jahon banklari bilan shartnomaning imzolanishi O'zbekistonning xalqaro savdosi va xorijiy investitsiyalardan unumli foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaxshiladi. Ikkinci jahon urushidan keyingi tarix shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda rivojlangan davlatlarning hech qaysisi xorij mamlakatlarining sarmoyasisiz, investitsiyasisiz taraqqiy etmagan. O'zbekiston ham o'zining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligi bilan chet davlatlarning investitsiyasini o'ziga tortmoqda. 1999 yil 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 3.592 qo'shma korxona ro'yxatga olingan. Shundan 1917 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ishlab turgan qo'shma korxonalarining asosiy qismi-1400 tasi Toshkent shahrida, 107-Toshkent, 85-Samarqand, 51-Andijon, 49-Farg'ona va Namangan viloyatlarida joylashgan. Shulardan biri O'zbekiston — Germaniya «Kaolin» qo'shma korxonasi 17 aprel 1999 yil ishga tushirildi. Chet el sarmoyalari, ayniqsa neft va tabiiy gaz tarmoqlarida katta o'rinn tutadi. Bu sohalarga 1994 y. atigi 10 mln. dollar xorijiy sarmoya jalb qilingan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1995 y. 395, 1996 y. 546, 1997 y. 845, 1998 yili deyarli, 1.145 mln. dollardan oshdi.

1998 yilgi jahon iqtisodiy krizisi sharoitida Respublika Rahbari qayd etganidek, muhim strategik vazifani hal qilishga muvaffaq bo'lindi. Jahon bozorida oltin, paxta, mis narxining tushib ketishiga qaramasdan mamlakatimizning oltin

valyutasi zahirasi o'tgan yilgi darajasida saqlanib qoldi. Bu borada Navoiy, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatlari, «Zarafshon-N'yuymont» qo'shma korxonasining hal qiluvchi rolini ko'rsatish o'rinnlidir. Endilikda jahondagi eng yirik konlardan hisoblangan Qizilqumning oltin va uran boyliklari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Sobiq davlatning parchalanib ketishi oqibatida Rossiya korxonalari hamda O'zbekiston uran va oltin qazib olish sanoati o'rtasidagi kooperativ aloqalarning uzilishi natijasida harbiy sanoat kompleksining Navoiy viloyatidagi 50 ming nafar injener va malakali ishchilari qiyin ahvolda qoldilar. O'zbekiston Prezidenti, yirik iqtisodchi mutaxassis I.A. Karimov vaziyatni har tomonlama o'ylagan holda Navoiy tog'-metallurgiya kombinatini tiklash va rivojlantirish ishlarini davlat zimmasiga o'tkazdi. Kombinatni qayta qurish maqsadida xorijdan olingan qarzdan tushgan foydalarni besh yil davomida korxona ixtiyorida qoldirildi. Xorijiy davlatlar korxonalari bilan bitim tuzish, qarz olish, investitsiyalardan foydalanishda kombinatga to'la mustaqillik berildi. O'isob-kitoblar, katta jamoaning mehnati o'z natijalarini berdi. Besh yildan keyin Muruntovdan tonnalab olingan oltinlar davlatni valyuta zahirasini to'ldirdi. Arzon va sifatli uran olish ham yo'lga qo'yildi.

Amerikaning Kolorado shtatidagi «N'yuymont» firmasi bilan Muruntovda qo'shma korxona qurilishi bilan ishlar yana qizib ketdi. «Zarafshon-N'yuymont» qo'shma korxonasiga firma tomonidan ajratilgan 200 mln. dollar investitsiya yordamida oddiy sharoitdagi yarim asrlik ishlar ikki yilda o'z natijalarini berdi. Navoiy tog'-metallurgiya kombinati oltin rudasini qazib olishdan to zargarlik bezaklarini tayyorlaydigan jahonda to'la siklda ishlaydigan yagona korxonaga aylandi. O'zbekistonning istiqlol mashinasozlik sanoatini, ayniqsa uning muhim tarmog'i-avtomobilsozlikning rivojlanishiga bog'liq. 1992 yilning avgust oyida Janubiy Koreya Respublikasi bilan O'zbekiston o'rtasida tuzilgan bitim asosida «O'zDEU avto» qo'shma korxonasi tashkil etildi va Asaka shahrida yengil avtomashinalar ishlab chiqarishga kirishildi. 1996 yilning mart-iyul oylarida «O'zDEU» avtokorxonasi «TIKO», «NEKSIYa», «DAMAS» yengil avtomashinalarini chiqara boshladi. 1999 yilni 1 iyuniga qadar, uch yil davomida 87 mingdan ko'proq «NEKSIYa», 51 mingdan ko'proq «TIKO», 40 mingdan ko'proq «DAMAS» avtomashinalari ishlab chiqarildi. Shu jumladan, 20 mingdan ortiq avtomobil ekspertiga jo'natildi. Korxona 2004 yili to'la quvvatni o'zlashtirib, har yili turli rusumdagagi 200 ming avtomobilni ishlab chiqaradigan bo'ladi. Endilikda «DEU» korxonasi bilan shartnomaga ko'ra bu mashinalarning yangi modellarini ishlab chiqarish rejalashtirildi. 1993 yilda GFRdagи «Mersedes Bents AG» korporatsiyasi bilan Xorazmda yuk avtomashinasini chiqarish uchun shartnomaga tuzildi. 1994 yili «Do'stlik» avtomobil zavodida dastlabki 350 «Mersedes Bents» yuk avtomobili ishlab chiqildi. 1995 yili «O'zavtosanoat» uyushmasi bilan Turkiyaning mashhur «Kochxolding» kompaniyasi o'rtasida

tuzilgan shartnoma asosida Samarqandning So'g'diyona mavzesida qad ko'targan avtobus zavodi 1999 yil mart oyida o'zining mahsulotini bera boshladi. Prezidentning 1992 yil 28 yanvar farmoniga muvofiq «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tuzildi. 1993 yildan boshlab, aviakompaniya zamonaviy A-310, BOING -767, BOING-757, RL-85 samolyotlariga ega bo'ldi. 1991 yili Xalqaro avia yo'li Dehli va Karachigacha uchgan bo'lsa, endilikda MDH va AQSh marshrutlari yo'nalishida O'zbekiston samolyotlari uchmoqda.

11.Mustaqillik yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Agrar islohotlar.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bu ishning qishloq qishloqda qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Qishloqda agrar siyosatning eng asosiy bosh masalasi - yerga egalik mulkchilik masalasidir. I.Karimov shunday deydi: «Er o'lkamizning asosiy boyligi. U yediradi, ichiradi, yashash uchun asosiy joriy sharoitlarni yaratib beradi. Shu sababli Respublikaning kelajagi, O'zbekiston xalqining kelajagi ko'p jihatdan yerdan foydalanish munosabatlari qanday tashkil etilishiga bog'liq, bo'ladi». O'zbekiston aholisining deyarli 60 foizi qishloqda yashaydi. Shuning uchun ish bilan ta'minlash masalasi ham qishloqda dolzarb muommadir. 1991 yil dekabrda «Dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirdorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmon qishloq, qishloq ishlab chiqarishni zamon talablari asosida tashkil qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1994-95 yillar davomida Vazirlar Maxkamasi agrar islohatlarga doir 10 dan ortiq qaror qabul qildi. 1992-95 yillar mobaynida qishloq tumanlarida 1137 sovxozi 530 jamoa qishloqqa, 350 kooperativga, 100 dan ortiq ijara va boshqa mulk shakllariga aylantirildi. O'sha yillarda shaxsiy tomorka uchun qo'shimcha 550 ming gektar sug'oriladigan yer ajratildi. Qishloqda fermer xo'jaligi tashkil etilishiga alohida e'tibor berildi. 1994 yil oxirlariga kelib 25 mingdan ortiq fermer qishloq paydo bo'ldi, ular qishloq, xo'jaligini barcha mahsulotlarini yetishtirishda salmoqli hissa qo'shmoqda. Paxta maydonlari qisqartirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirilmoqda. Vazirlar Maxkamasining 1996 yil may oyida qabul qilgan» O'zbekiston Respublikasi qishloq infrastrukturasini rivojlantirish dasturida qishloqning iqtisodiy va mexnat imkoniyatlaridan yanada to'liqroq va samarali foydalanish uchun, qishloq aholisini turmush sharoitini yaxshilash uchun yo'nalishlar berildi. Shuningdek qishloq hayotiga doir o'tkazilgan islohotlarda ta'lim muassasalari va ularni jixozlash masalalari, qishloq aholisini salomatligini yaxshilash masalalari, aholini tabiiy gaz, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash boralarida ham salmoqli ishlar qilindi. Birgina 1996 yilning o'zida respublikada 62 ta qishloq vrachlik puktlari ishga tushirildi. 1997 yilga kelib mamlakatda 3 million 155 mingta xonadon gazlashtirilgan edi.

Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishda eng ustuvor masala sifatida yerga mulkchilik masalasi hal qilindi. O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan

yerlarning kamligini hisobga olib, yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligini huquqiy hujjalarda qayd etildi. «Er to'g'risida»gi Qonun qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni qanday tashkil etish shartlari ko'rsatilib berildi. Qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisod vujudga keldi. 1997 yili shaxsiy tomorqa xo'jaligi 3 mln. gektarni tashkil qildi. Tomorqa xo'jaligining ekin maydoni 1989 yili 257 ming gektar bo'lsa, 1997 yil 599,7 ming gektarga ko'paydi. 1996 yili shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda 640 ming t. go'sht, 2,968 ming t sut, 1,711 ming t. sabzavot, 321 ming t. meva, 307, 8 ming t. poliz, 338,1 ming t. kartoshka, 729 mln.dona tuxum yetishtirildi. Qishloq xo'jaligida fermer va dehqon xo'jaliklari salmoqli o'rinni egallamoqda. 2004 yilga kelib fermer ho'jaliklarni moni 85, 5 mingdan ziyodni tashkil etdi. 2003 yili Respublikamizning qishloq ho'jaligida ishlab chiqarilgan dami mahsulotning 22,2 % ini shirkat ho'jaligida, 14,9% i fermer xujaligida , 62,9% dehqon ho'jaligida etishrilidi. 2005 yilda esa fermer ho'jaligida paxtaning 66% i g'allaning 55% fermer ho'jaliklarida etishtirildi. 2007 yilning boshiga kelib, 185492 birlikka etgan. Ya'ni kichik tadbirkor korxonalarining umumiyligi salmog'ini 56,2 % ini tashkil qiladi. G'allakorlar O'zbekistonning G'alla mustaqilligiga katta hissa qo'shamoqda. Ular 1996 yili davlatga 2 mln. 100 ming tonna G'alla topshirgan bo'lsalar, 1998 yili 4,6 mln. tonna g'alla hosili yetishtirdilar. 2003 yilda 6,1 mln don, shu jumladan 5,4 mln tonna bug'doy etishtirildi.

Paxta maydonlarini qisqartirish evaziga don ekinlarining maydoni kengaytirilib, 1,5 mln. gektarga yetkazilib, paxta maydonlari bilan tenglashtirildi. G'allachilikning texnika bazasi mustahkamlandi. 8159 ta «Niva», «Don», «Sibiryak» kombaynlari bilan bir qatorda Amerikaning «Keys» firmasidan keltirilgan 637 kombayn g'alla o'rim-yig'imida qatnashdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I-chaqiriq X sessiyasi (dekabr, 1997 yil) agrar va iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish yuzasidan qator qonunlar qabul qildi. «Er kodeksi», «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida», «Er kadastro to'g'risida»gi qonunlar qishloq xo'jaligining huquqiy asoslarini mustahkamladi.

12. Ijtimoiy siyosat. Bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan aholi daromadining mohiyati yangilanmoqda. Ularning manbalari o'zgarmoqda. Maosh bilan o'lchangan ish haqidan tashqari tadbirkorlik daromadi, aktsiyadorlik dividendi, mulkdan kelgan daromad, tomorqa mahsulotlarini sotishdan olinadigan tushum shakllarida bozor daromadlari paydo bo'ldi. Aholi daromadlarini bozorga bog'liq manbalarining yildan-yilga o'sib borishi munosabati bilan ish haqining salmog'i pasayib bormoqda. Masalan, 1992 yili ish haqi aholi daromadining 57% ni tashkil qilsa, 1995 yilda esa 44,2%ni tashkil qildi. 1997 yili aholi barcha daromadlarining qariyb chorak qismi tadbirkorlik faoliyatidan tushdi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab bozor munosabatlariga mos pul-kredit tizimi shakllantirildi. 1991-1996 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hukumati Milliy bank va Moliya tizimi yuzasidan bir qancha qarorlar qabul qildi. 1995 yil dekabrda Oliy Majlisning navbatdagi sessiyasining Markaziy bank va banklar to'g'risida Qonunlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Markaziy bankdan tashqari Toshkent shahri va viloyatlarda 30 ta aktsiyador-tijorat, shirkat va xususiy banklar faoliyat ko'rsatmoqda (1995). Ularning har qaysisida filiallar mavjud. Masalan, «Paxta bank»da 184, «O'ztadbirkor» bankda 254 va h. filiallar xizmat qilmoqda. 1994 yilning 1 iyuldan boshlab iqtisodiy mustaqillikning zaruriy sharti tariqasida O'zbekiston Respublikasining pul birligi-so'm muomalaga kiritildi. Milliy valyutaning muomalaga kiritilishi iqtisodiyotni barqarorlashtirish, korxonalar va tarmoqlar moliyaviy ahvolini mustahkamlash, aholi va mamlakat iste'mol bozorini muhofaza qilishda katta o'rinni tashkil etdi.

O'zbekiston taraqqiyotidagi o'ziga xos yo'lning asosiy tamoyillaridan biri kafolatlangan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Uning mohiyati jamiyatda kam ta'minlangan, boquvchisi yo'q, ko'p bolali oilalarni, nogironlar va qariyalarni ijtimoiy himoya qilish, jamiyat a'zolarining o'ta boylar va kambag'allarga tabaqlananib ketishining oldini olishga qaratilgan. Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki yillarda aholi turmush darajasini barqarorlashtirishga qaratilgan zaruriy chora-tadbirlarning dasturi ishlab chiqildi va hayotga tadbiq etilmoqda. Bu tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan 1999 yil davlat byudjetini shakllantirishda ob'ektiv sabablarga ko'ra yuz bergan ayrim qiyinchiliklarga qaramasdan, ma'muriy va boshqaruv organlari tizimida o'tkaziladigan qisqartirishlar hisobiga ijtimoiy sohalarga ajratiladigan mablag'larning kamayishiga yo'l qo'yilmadi. 1998 yil oxiridagi hisobga ko'ra mamlakatda 3 mln. 252 mingdan ortiq kishi pensiya va nafaqalar oldi va bu maqsad uchun 75 mlrd. 541 mln. so'm miqdorida mablag' ajratildi. Shundan faqat ikki yoshgacha bolasi bor onalarga 10 mlrd. 448 mln. so'm nafaqa berildi. 2000 yilning o'zida aholining kam ta'minlangan qismiga 54,2 mld so'm miqdorida nafaqa ko'mak va boshqa turdag'i yordamlar berildi. 2007 yilning "Ietimoiy himoya yili" davlat dasturini amalga oshirish doirasida 2 yoshgacha bo'lган bolani parvarish qilish bilan band bo'lган 440 ming nafar ishlamayotgan ayollar, 18 yoshgacha bolalari bo'lган 880 ming nafaqa oldi. 28, 5 ming ka m ta'minlangan oilalarga bepul qoramol berildi. Yosh oilalarga 20,4 mil.d so'm kredit ajratildi.

Kam ta'minlangan aholi qatlamlari nafaqa va moddiy yordamdan tashqari turli xil imtiyozlardan keng foydalanadi. Jumladan, jamoat transportida tekin yoki arzon haq to'lab yurish, turar joy va kommunal xizmatlari uchun haq to'lashda, dori-darmonlar va eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarini belgilangan me'yorda bepul yoki arzon narxda olish va boshqa bir qancha yengilliklar berilgan. Bulardan

tashqari mustaqillik yillarida xalq ta'limi, o'rta maxsus va oliv o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilariga, tibbiy xodimlarga elektr energiya, gaz va kommunal xizmathalaridan foydalanishda qator imtiyozlar berildi

### 13. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ma'naviy hayot.

Odamlar ongida mustaqillik, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, xalqning milliy ruhini uyg'otish va tiklash jamiyatni barqaror rivojlantirishdagi muhim shartidir. Mamlakatimiz bir necha bor ajnabiylar xujimiga duchor bo'lgan, qaramlik zulmi ostida qolgan bo'lsada, o'zligini yo'qotmadi, hamda shu o'zining boy ma'naviy merosini avaylab saqlab va boyitib keldi. So'ngi mustaqillik davrida ma'naviy merosga meyoriy nuqtai-nazardan yondashishi oqibatida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz progressiv va reaktsion bloklarga bo'lindi, mashhur olimlar, adiblar va san'at ustalari materialist va idealistga bo'lindi. Reaktsion deb baholangan milliy qadriyatlarimiz, odatlarimiz va an'analarimiz, idealistga ajratilgan allomalarimiz qoralandi, tanqid ostiga olindi, ko'pgina tarixiy yodgorliklarimiz buzildi, qarovsiz qoldi, kitoblar va qo'lyozmalarini nashr etish, o'rgatish man etildi yoki e'tiborsiz qoldirildi.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz ma'naviy zulumlardan ozod bo'ldi, erkin fikrga, milliy tafakkurga, milliy tiklanishga keng yo'l ochildi. Milliy tiklanish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, buning uchun xalq dunyo qarashini milliy istiqlol ruhida isloh qilish zarur. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlaboq ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni tiklash ishlari boshlanib ketdi. Ma'naviy meros nima, uning tiklanishi nimalarda namoyon bo'lmoqda? Ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar- siyosiy, falsafiy, xuquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yordi, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlar majmuasidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiyo yo'l bilan xosil qilinadigan xodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning extiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr xayotining aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'g'olib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun ma'naviy meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatini yangitdan yaratmaydi, ma'naviy merosga tayanadi, biroq u qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiy parvarlik, inosnparvarlik,adolat nuqtayi-nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi. Mustaqillik sharofati bilan ma'naviy xayotimizda uyg'onish yuz berdi. O'zligimizni anglash milliy qadriyatlarni, urf-odat va an'analarimizni tiklash ishiga asosiy e'tibor berildi. Ma'lumki til madaniyatning milliy belgisidir. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi ma'naviy uyg'onishimizda, milliy g'ururimizning tiklanishiga, va mustaqillikning mustaxkamlanishida eng birinchi tashlangan qadam bo'ldi.

Ulug' bobolarimiz ruxlari shod etildi. A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi vatanimiz ozodligi yo'lida shaxid ketgan xalq jigarbandlarining nomi, izzat ikromi, xurmati o'z joyiga qo'yildi, ularning ma'naviy me'rosi xalqimizga

qaytarildi. Mirzo Ulug’bek, A.Navoyi va boshqa allomalarimizni tavallud topgan kunlari bayramona nishonlandi, ularga xaykallar qo’yildi, qadamjolari ta’mirlandi, asarlari katta nusxalarda chop etildi. YuNESKOning qaroriga binoan 1994 yilda Parijda, Istambul va Karachida buyuk falaqiyot olimi Muhammad Tarag’ay Ulug’bek tavalludini 600 yillik yubileyi bayram qilinganligi xalqimizni insoniyat sivilizatsiyasiga qo’shgan katta xissasini e’tirof etilishi bo’ldi.

Mamlakatimiz Xitoy, Hindiston, Eron, Misr kabi qadimiy davlatlar qatorida turadi, milliy davlatchiligidan qadimiy, diyorimiz yirik davlat arboblari bilan mashxur. Bobomiz Amir Temur mamlakatimizning jahondagi eng qudratli davlat darajasiga ko’targan. Sho’rolar davrida ko’xna tariximizning ana shu qirralari berkitilgan bo’lsa mustaqillik davrida o’zining asl bahosini oldi. Amir Temur nomi tiklandi. 1996 yili mamlakatimizda va jahon miqiyosida A.Temur yili sifatida keng nishonlandi. YuNESKO qarori bilan 1996 yil aprelda Parijda mashhur davlat arbobi A.Temur tavvalludining 660 yilligiga bag’ishlangan bir xaftalik tantanalar bo’lib o’tdi. Toshkent shahrida, Temuring tug’ilgan yurtida xaykallar qo’yildi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi, uning nomi bilan bog’liq bo’lgan tarixiy yodgorliklar ta’mirlandi. A.Temur shaxsi butun ma’rifat insoniyatning boyligi ekanligi tan olindi. Temuriylarning buyuk namoyondasi ulkan shoir va zabardas davlat arbobi va sarkarda Zaxriddin Muhammad Boburning ham ulug’ nomi tiklandi. 1992 yili Andijonlik bir gurux olimlar tomonidan Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspiditsiya tashkil etildi. Ekspiditsiya Bobur izidan borib 7 marta xorijiy davlatlarga ilmiy-safarlar uyihtirildi. Bu safarlar natijasida Turon zaminidan yetishib chiqqan o’nlab ulug’ zotlarni qabr-maqbaralari xolatlari o’rganildi, ayrimlarini o’z yurtlarida ramziy qabr maqbaralari barpo qilindi. (Bobir-Andijonda, Farg’oniy-Quvada). Ekspiditsiya jami 200 kilometrdan ortiq yo’l yurib, 20 dan ziyod xorijiy mamlakatlarda bizga noma’lum, qo’lyozma asarlar va Boburiylarning hozir xayot bo’lgan ajdodlari Laylo Ummaxonim, Ziyovuddin Musiy, Pokiza Sultonbegimlar topildi va ular bilan Boburning ota yurti Andijon o’rtasida mustahkam aloqa o’rnatildi. Ajdodlarimizdan qolgan buyuk-epos-doston “Alpomish”ning 1000 yilligi, xalq qaxramoni Jalolidin Manguberdi tavvalludining 800 yilligini nishonlanishi ham ma’naviy xayotimizda katta voqeа bo’ldi.

Mustaqillik yillarida vatanimiz tarixini yoritish va o’rganish masalalari partiyaviylik, sinifiylik yondashuvlaridan, xukumron komunistik mafkuraga xizmatkor bo’lishdan xolos etildi. Necha 10 yillar davomida buzib ko’rsatilgan yoki bilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, xaqqoniylik tamoyillari asosida tadqiq qilishga kirishildi va dastlabki ilmiy-tarixiy asarlar yaratildi. Shuni yurtboshimiz ta’kidlagandek “Tarix xotirasi, xalqning, jonojon o’lkaning, davlatimiz xududining xolis va xaqqoniy tarixini tiklash milliy o’zligi anglash, ta’bir joiz bo’lsa, milliy iftixorni tiklash va ustirish jarayonida muhim o’rin tutadi. O’zbek olimlarini kuch-g’ayratlari bilan tariximizning qo’ldan-qo’l saxifalari, eng

avvolo temuriylar davri, Buxoro va Xiva shaharlarini 2100 yillik yubileyлari munosabati bilan bir necha ming yillik tarix XIX-asr oxiri XX-asr boshlari tarixi shunday kashf etildi. Vatanimiz tarixida xali o'rganilmagan dolzarb muommolar ko'п. O'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa soxalarini xolisona ilmiy asosida yeritish vazifalari prezident I.Karimovning bir gurux tarixchilar bilan 1998 yil iyun' oyida bo'lgan suxbatida, Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 27 iyul'da qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tarix inistituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida belgilab berildi.

Ma'naviy xayotdagi eng muxim voqealardan biri 1998 yil 23 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prizidentining farmoni bilan "Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat" jamoatchilik markazi tashkil etilishi bo'ldi. Ma'naviyat va Ma'rifat jamoat markazining viloyat, shahar va tuman bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda, taboro ko'prok mahallalar, mehnat jamoalari, o'quv yurtlari, shahar va qishloqlarning axolisini ma'naviy-ma'rifiy ishlarga jalb etmoqda, axoli o'rtasida aql-zakovat, ilm, ziyo, ma'rifatni tarqatmoqda. Markaz qoshida "Oltin meros" xalqaro jamg'armasi, "Ma'naviyat" nashriyoti tashkil qilingan. "Tafakkur" jurnali aholi orasida keng tarqalmoqda, xalqning milliy uyg'onishida, yoshlarni tarbiyalashda muhim rol' uynamoqda. Mamlakatimizda o'zbek tilining xalq va davlat turmishidagi asosiy ahamiyati va o'rni tiklandi. 1995 yil 21 dekabrda Respublika Oliy Majlisi yangi taxrirdagi "Davlat tili xaqida"gi qonun qabul qildi. Qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanishi va muxofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda Oliy Davlat Xokimligi, mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlari faoliyati korxona, muosasalar va tashkilotlarning hisob-kitob statistika va moliya ishlari o'zbek tilida yuritilmoqda. Respublikaning ma'muriyat xududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari, geografik o'rinnlarining nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib qo'yildi. Shuningdek, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlarning tillari, qadr-qimmati ham o'z fo'rniga qo'yildi. 1993 yil sentiyabrdha O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" qonun qabul qilindi. 1995 yil may oyida ushbu qonunga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritildi. Bu qonunlar o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeining yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini to'la joriy etilishi 2005 yilgacha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Milliy davlatchiligidan tajribasi, Amur Temir tuziklari, Farobi, Navoiy kabi allomalarining odil davlat qurish haqidagi dono fikr-muloxazalari mustaqillik davrida demokratik xuquqiy davlat qurilishida katta madad ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Mustaqillik yillarida dinning eng avvalo islom dining ham milliy ham umuminsoniy qadriyat sifatidagi mavqeい tiklandi. Qadim zamonlardayoq yurtimizda din erkinligi mavjud bo'lgan otashparastlar budiyalar, moniylar, musulmonlar va boshqa diniy

e'tiqoddagilar inoqlikda yashagan, tenglik, erkinlik g'oyalariga amal qilingan. Buyuk ipak yo'lida joylashgan shaharlarda hamma dindagilarni ibodatxonalari mavjud bo'lgan.

Xalqimiz ma'naviy jihatdan ko'pgina afzalliklarga ega bo'lgan islom dinidir. Buyuk vatandoshlarimiz Muhammad ibn-Ismoil al-Buxoriy islom dini ta'limotida Kur'oni Karimdan keyingi asosiy manba xisoblanuvchi "Saxiyx al-Buxoriy" nomli asar yaratib islom tarixida misli ko'rilmagan ilmiy manbaa yaratdi. Imom-at-Termiziy, Boxovudin Naqshbandiy, Xoja Ahmad Yassaviylar insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi diniy, ahloqiy va xuquqiy xikmatlarni yaratdilar. Mustaqillik sharofati tufayli ana shu allomalarimizning nomi tiklandi, xalqimiz ularning ma'naviy merosidan bahramand bo'ldi. Boxovudin Naqshband tavalludining 675 yilligini nishonlanishi, uning nomi bilan bog'liq masjid majmuasining tiklanishi fikrimizning dalilidir. Navro'z bayrami, Ro'za va Qurbon xayitlarining tiklanishi faqat dindorlar uchun emas, bu bayramlarning tiklanishi aslida xalqimizning qadimiylar rasm-rusm, an'ana va udumlarimizning, kadriyatlarimizni tiklanishi, ajdodlar ruxini qayta uyg'onishidir.

Respublika Vazirlar Mahkamasi qoshida din ishlari bo'yicha maxsus ko'mita tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar xaqida" qonunida davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati o'zining aniq ifodasini topgan. Mustaqillika erishgandan so'ng, dinga, shu jumladan islom diniga munosabat tubdan o'zgardi. Bu o'zgarishlarni moxiyati yurtboshimiz I.Karimovni quyidagi so'zlarida o'z ifodasini topgan: "Islom dini ota-bobolarimizning muqaddas e'tiqodi. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida ma'naviyatda, boy merosi va o'zligini saqlab qolgan". Mustaqillik tufayli Ramozon va Qurbon xayiti kunlari bayram va dam olish kunlari deb e'lon qilindi. Sho'rolar davrida har yili boryo'g'i 15-20 ta kishiga haj safariga borishga ruxsat berilgan bo'lsa, 1991 yildan boshlab har yili 3-3,5 ming o'zbekistonlik fuqarolar ana shu muqaddas ziyoratni amalga oshirmoqdalar, minglab fuqarolar Umra safariga, ya'ni Makka Madinaga xayit'dan boshqa kunlarda bormoqda. Keyingi yillarda respublikamizda 30 000 dan oshiq fuqaro xaj va umra safarida bo'ldilar. Sho'ro davrida 84 ta masjid faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, xozirda 3600 dan ortiq ro'yxatga olingan masjidlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shularni ko'pchiligi jo'me masjidlardir. Toshkent va Buxoroda oliy diniy o'quv yurtlari mavjud. 1998 yilli Toshkentda prizident farmoni bilan Islom Unverstiteti tashkil qilindi. 1995 yilda Toshkentda Xalqaro Islom tadqiqot markazi ta'sis etildi. Bu markaz islom nazariyasi va tarixi, diniy asarlarni tarjima qilish, o'lkamizda yetishib chiqqan yirik ulamolar xayoti va faoliyatini tadqiq etish, yurtimizdagи islomiylar qarashlarni o'ziga xos tomonlarini o'rganish, xususan uning mo'tadilligini, extirosdan xolilagini yoritishga, vaxobiylilik kabi sohta mazxablarni o'tmishda va hozirgi zararli g'oyalarini, xatti-xarakatlarini fosh etishga alohida e'tibor bermoqda. O'zbekiston

din axlining xorijiy musulmon mamlakatlari bilan aloqalari va ulomolar ijodiy xamkorligi kun sayin kengayib bormoqda.

Kur'oni Karim o'zbek tiliga ag'darilib 100 ming nusxada nashr etildi. O'nlab va yuzlab diniy mavzudagi kitoblar chop etildi, ro'znama va oynomalarda, radio va televideniya orqali islom tarixi, madaniyati, axloqi, buyuk muxaddislar, mufasrlar, fakixlar, mutasavvuflarga bag'ishlangan ma'lumotlar e'lon qilinmoqda, islom tarixiga oid ko'p qisqli fil'mlar ko'rsatilmoqda.

Mustaqillikning 16 yillik bayrami arafasida musulmon olamidagi mamlakatlarning birlashtirgan Islom konferentsiyasi tashkiloti tarkibiga kiruvchi Ta'lis, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti (AYSESKO) tamonidan Toshkent shaxriga 2007yilda "Islom madaniyati paytaxti" degan nom berildi O'zbekistnda YuNESKO tashabbuskorligida 2007 yilda Samaoqandning 2750 yilligi Marg'ilonning esa 2000 yilligi nishonlandi. Umuman olganda mustaqillik yillarida YuNESKO bilan xamkorlikda quyidagi yubileyalar nishonlandi

- 1991 yil-Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi
- 1994 yil- Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi
- 1996 yil-Amir Temur tavalludining 660 yilligi
- 1997 yil-Buxoro va Xiva shaxarlarining 2500 yilligi
- 1998 yil-Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi
- 1998 yil-Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi
- 1999 yil-“Alpomish” eposining 1000 yilligi
- 2000 yil-Burxoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi
- 2000 yil-Imom Motrudiy tavalludining 1130 yilligi
- 2000 yil-Kamolliddin Bexzod tavalludining 545 yilligi
- 2001 yil- “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligi
- 2002 yil-Termiz shaxrining 2700 yilligi
- 2003 yil-Abduholiq G'ijdixoniy tavalludining 900 yilligi
- 2006 yil-Xarazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi
- 2007 yil-Marg'ilon shaxrining 2000 yilligi
- 2007 yil-Samarqand shaxrining 2750 yilligi

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan kunidan boshlab milliy mafkura, O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol g'oyasini yaratish dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Milliy istiqlol mafkurasi xalqning o'zgalarga tobe bo'lmay, erkin va ozod yashash, o'zini-o'zi idora etishga qaratilgan, uning istiqbolini belgilaydigan orzu-umidlari, qarashlari, g'oyalari majmuyi, jamiyat taraqqiyotining muxim omillaridan biri. Milliy istiqlol mafkurasi insoniyat tarixidagi eng ezgu va qadimiyy g'oyalaridandir. Chunki jamiyat o'tmishi ming yillar davomida, ayni vaqtida, boshqa xalqlarni to'be etish, ularning xududlarini bosib olish, ularning ustidan xukumronlik o'rnatish jarayonidan iborat bo'lgan. Shu sababli tarix, ayni bir

vaqtida, xalqlarni o'z ozodligi, to'belikdan kutilish uchun kurash tarixi bo'lган. Mustamlakachilik siyosati, turli imperiyalar yaratish, o'z xukmronligini o'rnatish va qoloq to'be xalqlar moddiy va ma'naviy boyliklarini talon-taroj qilish ayniqsa XVI asrdan boshlab to XX asrning o'rtalarigacha avjiga chiqdi.

Dunyoning hamma burchaklarida shu jumladan ovropo qit'asida, Afrikada, Osiyoda, janubiy va Markaziy Amerikada o'nlab xalqlarni milliy ozodlik, milliy istiqlol uchun kurashi natijasida 20 asr 50-60 yillarda dunyoda mustamlaka davlatlar qolmadı, o'nlab milliy mustaqil davlatlar shakllanib BMTga a'zo bo'ldilar. Buning natijasida jahon miqiyosida milliy istiqlol g'oyalari yengilmas ekanligiga shubha paydo bo'ldi. Milliy ozodlik harakatining g'alabalari tufayli xukmron sinflar o'z ijtimoiy-moddiy boyishi manbasini mustamlakalardan, yarim mustamlaka mamlakatlardan va yollanma mehnat sohasidan ilg'or fan, texnika va texnalogiya hamda bozor munosabatlari olamiga ko'chirdilar va shu asosida jamiyat faravonligigi tubidan o'zgartirishning cheksiz-chegarasiz manbasini yuzaga keltiradilar. Demak xozirgi ilg'or mamlakatlar ikki omil-milliy istiqlol mafkurasining g'alabasini va bozor iqtisodiyotiga suyangan yangi fan, texnika, texnologiya yutuqlariga ko'chirishi maxsulidir. Milliy istiqlol mavkurasini O'zbekistonda bosib o'tgan yo'li nihoyatda qiyin va murrakkab bo'ldi. XX-asr ikkinchi yarmigacha xon va amirlar har qanday ilg'or mavkurani, shu jumladan mustaqillik mafkurasini ta'qib etdilar. 1865-1917 yillarda o'lkamiz chorizmning mustamlakasiga aylandi va xur fikr aytish, milliy mafkurani o'rtaga tashlash imkoniyati bo'lindi. 1917 yildan to 1981 yilni ko'zigacha O'zbekiston "Qizil imperianing iskanjasida bo'ldi va aqidalashtirilgan marktsizmnenizm nazariyasi hamda mafkurasiga xamnafas bo'lmanan har qanday fikr, g'oya rad etildi. Shu saballi XX-asrning ikkinchi yarimidan boshlab yurtimizning otashin farzandlari tomonidan aytilgan mustaqillik mafkurasi g'oyalari yuzaga chiqarilmadi. Bu tug'rida Furqat, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va o'nlab boshqa yozuvchi mutafakkirlar ta'kib ostiga olindi, quvg'in va yo'q qilindi. Mustaqillikni dastlabki qadamlaridanoq milliy istiqlol mafkurasini yaratish eng dolzarb vazifa sifatida kun tartibida turadi. Bu og'ir sharafli vazifani yurtboshimiz I. Karimov sharaf bilan bajardi. Prezident I.Karimov asarlarida, ijodkor ziyolilarni asarlari va maqolalarida milliy istiqlol mafkurasining nazariy qoidalari asoslanmoqda, mustaqillikni dastlabki yillarda paydo bo'lgan mafkuraviy bo'shlikni o'rni to'ldirilmoqda. Yurtboshimiz asarlarida milliy istiqlol mafkurasi, uni maqsad va vazifalari juda ravshan ko'rsatib berilgan. Prezidentimiz jumladan shunday deb yozadi. "Mafkura har qanday jamiyat xayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan qaerdagi mafkuraviy bo'shliq vujidga kelsa, o'sha yerda begona mafkura xukimronlik qilishi ham tayin".

1993 yil 23 aprel kuni Prezident I.Karimov bir gurux adiblar bilan suhbat qilib milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi. "Oldimizda

turgan eng muxim masala, bu milliy istiqlol mafkurasini yaratish va xayotimizga tadbiq etishdir". 1993 yil 7 may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 12 sesiyasida nutq so'zlab Prezident I.Karimov milliy istiqlol mafkurasini asosiy mohiyatini quyidagicha ta'kidlagan edi. Birinchidan. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruxiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirish lozim. Ikkinchidan. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizda, o'zining qudrati va ximoyasiga suyangan xolda, umuminsoniy kadriyatlarga asoslanib, jaxon xamjamiyatidagi ilgor davlatlar teng xuquqli o'laroq munosib o'rin egallashga doimiy intilish xissini tarbiyalamog'i lozim. Bugungi kunda sobiq sovetlar zamonida xukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mu'telik xolatiga solgan, mankurtga aylantirgan komunistik mafkurani tanqid qilish, ta'qib qilish, ma'muriy choralar qurish yo'li bilan yengib bo'lmaydi. "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahoga kirishib, olishim mumkin" degan xaq fikrni ilgari surdi yurtboshimiz I. Karimov. Milliy istiqlol mafkurasidan kutilgan maqsad nima? "Maqsad degani-xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruxini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa qudratini orzu intilishlarini mujasamlashtiradigan ulug' kuchdir. Toki bu maqsad xalqni-xalq, millatni-millat qila bilsin, qo'limizda yengimas bir kuchga aylansin". I. Karimov milliy istiqlol mafkurasini qanday tushinasiz degan savolga quyidagicha javob berdi: "Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyo qarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida shu xalq, shu millat kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman". Jamiyat mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo'lishi oddiy inson va uning manfatlarini ifoda etishi, xalqmizning bexatar, tinch-omon, farovon turmishiga erishishi uchun kuch g'ayrat manbayi bo'lishi lozim. Milliy mafkura xalqni, millatni birlashtiradi, bunyodkorlik ishlarida kuchiga-kuch qo'shadi. Milliy istiqlol mafkurasi bilan qurollangan xalqni o'z yo'lidan qaytarib bo'lmaydi. Mustaqillik yillarida ta'lim tarbiya tizimini islox qilish, kadrlar taylorlashni zamon talablari darajasiga kutarish soxasida muxum chora tadbirlar amalga oshirilmokda. Uzbekiston xukumati ta'limga isloxaatlarning barcha bosqichlari uchun xam ustivor soxa deb qarab kelmoqda.

1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning ijrosini ta'minlash, bozor iqtisodiyoti sharoitida pedagog xodimlarni ijtimoiy jihatdan himoyalash maqsadida Respublika Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 30 dan ziyod farmonlari va qarorlari e'lon qilindi. 1992 yildan 1997 yilgacha ta'limni rivojlantirish natijasida bir muncha yutuqlarga erishildi. Buni quyidagi raqam va ma'lumotlarda ko'rish mumkun.

Yangi turdag'i maktablar va umumta'lim o'quv yurtlari tarmog'i rivojlantirildi. 1997 yilda 238 litsey 136 ta gimnaziya ishladi. Respublika umum ta'lim maktablarida 435 mingdan ortiq o'qituvchi ishlamoqda, ularning 75 foizi oliy ma'lumotlidir. Respublikada 221 ming kishini kamrab olgan 442 ta ukuv yurti, shu jumladan 209 ta kasb xunar maktabi, 180 ta kasb xunar litseyi va 53 ta biznes maktabi ishladi. Ularda kariyib 20 mingta ukituvchi va malakali mutaxassilar ishlayotgan. 1998-2004 yillar davomida esa 54 TA akademik littsey va 533 ta kasb-xunar kolleji barpo etildi. 2003-2004 o'quv yilida akademik litseylarda 26,2 ming, kasb-xunar kollejlarida 531,6 ming o'quvchi ta'lim oldi.

Uzbekiston oliy maktab tizimida 58 ta oliy ukuv yurti, shu jumladan 16 ta universitet va 42 ta institutni uz ichiga oladi, ularda 164 ming talaba ta'lim olmokda. 16 ta universitetning 12 tasi mustakillikka erishganimizdan sung dastlabki ikki yilda tashkil topdi. Oliy ukuv yurtida ishlayotgan 18,5 ming ukituvchining 52 foizi fan doktori va fan nomzodlaridir. Abuturentlar va talabalarning bilim darajalari test va reyting asosida baxolashni ilgor usullari joriy etildi. Bir kator ukuv yurtlaridan makomi, dasturlari va ta'lim usublari butunlay uzgartirildi. Eng zimmaviy, shu paytgacha bizda bulmagan eng zarur ixtisosliklar buyicha aloxida universitet va institutlar, jumladan mudofaa vazirligi koshida Xarbiy akademiya Ichki ishlar vazirligi koshida ichki ishlar akademiyasi, Uzbekiston Respublikasi Prizidenti xuzurida davlat va jamiyat kurilishi akademiyasi, Bank moliya akademiyasi, jaxon iktiso-diyoti va diplomatiya universitet, Toshkent aviyatsiya instituti, Navoiy tog konchilik instituti tashkil topdi. Iste'dotli yoshlarni moddiy va ma'naviy ragbatlantirish, chet elda ukishini kullab kuvvatlash maksadida "Ulugbek" "Umid" jamgarmalari tashkil etildi. 800ga yakin ukuvchi chet ellarda ta'lim oldi. 2000dan ortik talaba va mutaxassislar chet ellarda ukib keldi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ta'limni isloq kilish yullari ishlab chikildi. 1997 yil 27 avgustini Oliy Majlisni IX sessiyasida Uzbekiston Respublikasining "Ta'lim tugrisida"gi Konuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" kabul kilindi. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida mamlakatimizda ta'lim isloxati utkazilishidan kuzda tutilgan maksad, ta'limni vazifalari dasturini ro'yobga chikarish boskichlari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli asoslab berildi. Mazkur dasturning asosiy mksadi ta'lim soxasini tubdan isloq kilish, uni utmishdan kolgan mafkuraviy korplashlardan va sarkitlardan tula xolos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axlokiy talablarga javob beruvchi yukori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanishi rivojlangan demokratik xukuiy davlat kurilishi jarayonlaiga moslash. Milliy Dasturda ta'lim isloxatlari uch boskichda utkazilishi kuzda tutiladi:

1-boskich 1997-2001 yillar.

2-boskich 2001-2005 yillar.

3-boskich 2005 yildan keyingi yillar.

Milliy Dasturlar tamonlama kamol topgan turmushga moslashgan, ta'lim turlari va kasb-xunarni ongli ravishda tanlay oladigan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini xis etadigan fukarolarni voyaga yetkazishni nazarda tutadi, Dasturni xayotga tadbiq etish jarayonida O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy modeli shakllanadi. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida qadimdan boshlab ayniqsa astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, me'morchilik, ma'danshunoslik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik rivojlangan. Hozirgi kunda O'zbekiston olimlari ota-bobolari yaratib ketgan ilmiy merosni chuqurroq o'rganib yanada boyitdilar. O'zbekiston olimlari o'z ilmiy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo'shdilar. Respublikamizda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Qishloq xo'jalik fanlari akademiyasi, Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti, Islom tadqiqotlari markazi va boshqalar faoliyat ko'rsatmoqda. Nukus va Samarqandda O'zbekiston Recpublikasi FAning bo'limlari ochilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatadigan ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlari, shuningdek, universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida ham olib boriladi. Ilmiy kadrlar Fanlar akademiyalari tizimida ham, oliy o'quv yurtlari, xalq ta'limi tizimida ham tayyorlanadi. Faqat Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi o'quv yurtlarida 600 dan ziyod fan doktorlari va deyarli 6 mingga yaqin fan nomzodlari o'qituvchilik va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatda ilm-fanga alohida e'tibor berildi. Xalq xo'jaligi va madaniy hayotning tobora ortib borayotgan talablaridan orqada qolayotgan ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. Turmush taqozo etgan yangi institutlar ochildi. Respublikamiz Vazirlar Mahkamasining 1995 y. 3 aprelijadi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi FAning yangi Nizomi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 y. 8 iyuldagagi farmoni hamda uni amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Fanlar rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari va innovatsiya faoliyati haqida»gi qarori mamlakatda fanni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Respublika olimlarini xorijiy mamlakatlarga tajriba oshirishga yuborishga alohida e'tibor berildi. Ilmiy yechimlarni ichki va tashqi bozorda targ'ib etish va tarqatish, maqsadida FA negizida «O'zFANT» Respublika ilmiy ishlanmalari innovatsiya tijorat markazi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasи huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan FAning mavqeい ortdi. O'zbek olimlarining fan-texnika sohasidagi yutuqlari nafaqat O'zbekiston balki jahon hamjamiyatida ham tan olina boshlandi

va ko'pchilik olimlarimiz davlatimiz mukofotlariga sazovor bo'ldilar va xorijiy davlatlar akademiyalariga haqiqiy ham faxriy a'zolikka saylandilar. O'zbekiston Respublikasining Fanlar Akademiyasi al-Xorazmiy nomidagi, Zahiriddin Muhammad Bobir nomidagi oltin medallarni ta'sis etdi. 1993 yilda O'zbekiston Respublikasi FAning akademigi H.F. Fozilov tabiiy va texnikaviy fanlar sohasida katta yutuqlarga erishgani uchun al-Xorazmiy nomidagi Oltin medalning birinchi sohibi bo'ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobir nomidagi Oltin medalъ birinchi bo'lib shu yili ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida katta yutuqlarga erishgani uchun filologiya fanlari doktori O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi U.I. Karimovga nasib etdi. 1992 yil oktyabr oyida esa geologiya mineralogiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi FAning akademigi I.H. Hamraboev geologiya va geofizika sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun Habib Abdullaev nomidagi Oltin medalning birinchi sohibi bo'ldi. «Fan va texnikada kim haqiqatan kim?» deb nomlangan jahon fan va texnikasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan eng buyuk olimlarning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomusga O'zbekiston Respublikasi FAning akademigi P.Q. Habibullaev kiritilgan. O'zbek olimi bu sharafga o'zining qattiq va yumshoq jismlar issiqlik fizikasining katta muammolarini, energetikaning fizikaviy-texnikaviy muammolarini ishlab chiqqani uchun muyassar bo'lgan.

Mustaqillik yillarida (1996) FAning 40 ga yaqin ilmiy markazi va tadqiqot laboratoriylarida 48 akademik 96 muxbir a'zo faol mehnat qilmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi FA instituti olimlari muassasalari olimlari bilan hamkorlikda ilmiy aloqalarni kengaytirib bormoqdalar. Natijada, 1992 yil dekabr oyida texnika fanlari doktori O'.O'. Umarov, K.E. Siolkovskiy nomidagi Kosmonavtika Xalqaro Akademiyasining a'zosi bo'ldi. U mazkur Xalqaro Akademianing a'zosi bo'lgan birinchi o'zbek olimidir. Shuningdek xalqaro arxitektura akademiyasining Moskva bo'limiga O'zbekistonlik M.S. Bulatov, S.M. Sutyagin, I.I. Notkinlar, 1993 yilda Iordaniya Islom Fanlar Akademiyasi a'zoligiga M.S. Salohiddinov, YuNESKO Informatsiya Xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zoligiga 1994 yil oktyabrib oyida Xudoyor Olloyorov, 1995 yil fevralb oyida Azamat Shamsiev N'yu-York FAning faxriy a'zoligiga, ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zoligiga Z.S. Salimov, A.A. Azamxo'jaev, 1997 yil oktyabrida U. Tojixonov va Z. Zaripovlar tabiat va jamiyat fanlari Xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zoligiga, akademik E. Yusupov esa Turkiya fanlar akademiyasi haqiqiy a'zoligiga saylandilar. Bular O'zbekiston fanining xalqaro miqyosda tan olinishining yaqqol misolidir. Yurtboshimiz I.A. Karimov aytganlaridek, XXI asrda quroli, qo'shini kuchli bo'lgan davlatgina emas balki turli sohalar bo'yicha kuchli mutaxassislari bo'lgan davlatgina qudratli davlat

hisoblanadi. Zeroki, har bir xalq fan sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan mashhur farzandlari bilan ham buyukdir.

Mustaqillik yillarda madaniyat sohasida ham tubdan o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo teatr san'ati, milliy musiqa, me'morchilik, adabiyot sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. 1991 yilda Farg'onada, 1993 y Xivada Davlat Qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi. 1994 yilda Qashqadaryo va Namangan viloyati teatrlari qoshida qo'g'irchoq guruhlari ochildi. 1993 yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlagan «Turkiston» saroyi nafaqat me'morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhlari va atoqli artistlarning chiqishlari bo'ladigan dargohga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov «Turkiston» saroyi ochilishi marosimida nutq so'zlab, «Ushbu saroyda xalqimizning, shuningdek, jahon xalqlarining, Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy anjumanlarini, san'at bayramlarini o'tkazishni niyat qilganmiz. Bu koshona, inshoollo, millatlar, el-elatlarning do'stlik birodalik, qal'asiga aylandi», – degan edi. Respublikada 36 ta teatr faoliyat ko'rsatmoqda. 1998 y 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Bu farmonga muvofiq O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarining faol qatnashishini ta'minlash maqsadida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. O'zbekistonda musiqa va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida «O'zbeknavo» gastrolъ-kontsert birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs san'atini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutildi.

Mustaqillik o'zbek badiiy adabiyoti rivojida, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi bosqichni boshlab berdi. Asarlari zararli, o'zları millatchi deb nohaq baholangan Cho'lpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvarqori singari millatparvar yozuvchi, ma'rifatparvarlar ijodi xolisona o'rganila boshlandi. Ularning asarlari chop etildi, sahna yuzini ko'rdi. Jadidchilik harakatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o'rnini ro'yi-rost ko'rsatish boshlandi. Bir vaqtlar diniy va saroy adabiyoti vakili deb nohaq qoralangan Ahmad Yassaviy, Boqirg'oni, G'azzoliy, Hoja Ahror, Bahouddin Naqshband, Husayn Boyqaro, Feruz singari buyuk shoir va mutafakkirlar hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi. A. Navoiyning yuksak insoniy g'oyalarni diniy manbalar asosida yorituvchi «Munojot» «Arba'in» «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg'ambarlar va hokimlar haqida») kabi asarlari nashrdan chiqdi. Mustaqillik sharofati bois mo''tabar Qur'on va hadislar chop etildi. Iste'dodli olim Hamidulla Karamatovning «Qur'on va o'zbek adabiyoti» nomli kitobi nashr etildi. Aytish mumkinki, bunday asarlarning xalqimiz qo'liga yetib borishi butunlay yangi,

sog'lom, sof milliy g'oyalarimizning, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Mazkur tadqiqot va unga o'xshagan boshqa asarlar milliy istiqlol mafkurasining tantanasini ko'rsatadi. Atoqli olim B.B. Ahmedovning «Amir Temur», T.Malikning «Shaytanat» romanlari, E. Vohidov, O. Matjon, O. Hojieva, X. Sultonov, A. Suyun, Y. Eshbek, H. Do'stmuhammad, Sh. Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari tufayli o'zbek milliy istiqlol adabiyoti shakllandi. Sharq va G'arb me'morchiligi uyg'unlashgan binolar yurtimiz poytaxti va viloyat markazlarida qad ko'tarib shaharlarimiz husniga husn qo'shmoqda Milliy bank, mehmonxona binolari, bozorlar qurilishi, ko'priklar va yo'llar, sport saroylari hamda madaniyat va istirohat bog'larining bunyod etilishi buning yorqin misolidir. Haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, tasviriy san'at, raqs, kino san'atlarida ham an'anaviy va zamonaviy usullar uyg'unlashib yetuk asarlar yaratildi va yaratilmoqda.

#### 14.O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari

O'zbekistonning mustakil rivojlanishidagi o'tgan qisqa tarixiy davrda respublikaning suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Xozir O'zbekistonni 165 davlat tan olgan. Dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlarni o'rnatilgan. Toshkentda 43 mamlakat o'z elchixonasini ochgan. Biz jahon xamjamiyati bilan keng ko'lamma integratsiyalashgan zamonaviy demokratik davlatni qurishdan iborat strategik vazifani hal qilar ekanmiz, jahon hamjamiatining o'zi bugungi kunda serqirra bo'lib borayotganligini juda yaxshi tushunamiz. XX asr oxirida dunyoda jo'g'rofiy-siyosiy ahamiyatini va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakrordir. Integratsiya xaqda gapirar ekanmiz, manfatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlangan, shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajada dunyo miqyosida va mintaqaga ko'lamida integratsiya jarayonlarida qatnashsada, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir sub'ekt bilan sherikchilikning mustaxkamlashimiz boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir. Jahon hamjamiatidagi integratsiyalashuv haqida gapirganimizda eng avvalo Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz. 1994 yil 2 martda O'zbekiston B.M.Tga a'zo bo'lganligiga 14 yil to'ldi. Biz o'zimizning bunday obro'li xalqaro tashkilot ishidagi ishtirokimizni Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik tinchlik va totuvlikda ta'minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi deb bilamiz. XX asrning oxirgi o'n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o'zgarishlar davri bo'lib kiradi, chunki yer yuzida vaziyat,

kuchlar nisbati keskin o'zgarib, bir-biriga qarama-qarshi bo'lган SSSR va AQSh yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Lekin endilikda sovuq urushlar munosabatlarini tuqdiradigan kuchlarning yangi o'choqlari vujudga kelmoqda. SSSRning parchalanishi va sotsialistik sistema halokati natijasida dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi.

Mustaqil O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yishi va o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay geografik-strategik imkoniyatlarga ega. O'rta Osiyoda geografik-siyosiy jihatdan markaziy o'ren tutgan O'zbekistonning ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlari bor. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash; jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifalar deb belgilandi. Chunki ittifoq davrida O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri aloqa qila olmaydigan mamlakat bo'lib, tashqi siyosat yuritish tajribasiga hamda bu sohadagi kadrlarga ega emas edi. Prezident I. Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» kitobida mustaqil tashqi siyosatini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosatining qoidalari qonunlashtirildi. Bu qoidalari «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'qrisida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi hujjatlarda o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasini 48 (1993) va 50-yubiley (1995) sessiyalaridagi nutqlarida mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining bosh yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston hukumati respublika tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;

• davlatlararo aloqalarda teng huquqlik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

• tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik. Tashqi siyosatdagi ochiq-oydinlik, teng huquqlik, demokratik printsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug'lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish bilan birga O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatida mavqeini ham oshirib bormoqda.

15.O'zbekiston va mutsaqil davlatlar hamdo'stligi: ko'p tomonlama va ikki tomonlama xamkorlik.

1991-yil 8-dekabrda Minskda u slavyan respublikasi- Rossiya, Ukraina, Belorus raxbarlari Mustaqil Davlatlar xamdo'stligini tuzish to'g'risidagi Sharhnomani imzoladilar. 1991-yil 21-dekabrda Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Qirg'iziston, O'zbekiston, Qozoqiston, Turkmaniston, Tojikiston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldaviya davlat boshliqlarining kengashi bo'ldi. O'sha kuni 11 davlat boshliqlari Belovejskoe Pushche sharhnomasi yuzasidan protokolni imzolab, "Teng xuquqli va axdlashayotgan oliy tamonlar" maqomida MDX muassisasi bo'ldilar. Kengashda Almati Dekloratsichsi qabul qilindi. Dekloratsiyada kuyidagilar xaqida bayonat berildi:

- xamdo'stlik qatnashchilarining o'zaro aloqalari ular o'rtasidagi tenglik asosida tuziladigan bitimlar xamda bitimlarda berilgan tartiblar doirasida faoliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali amalga oshriladi;

- MDX davlat xam emas, davlatlar ustidan tuzilma xam emas;

- Xalqaro strategik barqarorlikni va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xarbiy-strategik kuchlarning birlashgan qo'mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat saqlab qolinadi;

- MDX ochiqdir uning barcha a'zolarining roziligi bilan sobiq SSSRNing a'zolari va bashqa davlatlar unga qo'shilishi mumkin;

- Umumiy iqtisodiy makonni, umumiy bozorni vujudga keltirishda va rivojlantirishda xamkorlik qilishga sodiqlik tasdiqlanadi.

- MDX tuzilishi bilan SSSRNing mavjudligi to'xtatiladi;

1993-yil yanvarida Minskda MDX Davlatlarining boshliqlarining navbatdagi kengashida MDXning nizomi imzolandi. 1991-1999-yillarda MDX davlat boshliqlarining 25ga yaqin kengashi bo'lib o'tdi unda 1300ga yaqin masalalar muxokama qilindi. 2001-yil 29-30 noyabr kunlari Moskvada MDX tashkil etilgan kunining 10 yilligi nishonlandi. O'zbekiston MDX davlatlarida Rossiya, ukraina, Kavkaz orti davlatlari, Boltiqbo'y davlatlari bilan o'zaro teng xuquqli aloqalar olib bormoqda. Masalan Rossiya bilan O'zbekiston 2000-yilga qadar 150 ta shartnoma imzolandi. Xozirgi paytda Rossiya bilan xamkorlikdagi ishlayotgan korxonalarining soni 520 taga yetdi. 2004 yilga kelib Rossiya va O'zbekiston

o'rtasida xamkorlik yangi pog'onaga yetdi. Ukrainianing esa 20 dan ortiq qo'shma korxonasi faoliyat yuritmoqda.

16. Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning ikki va ko'p tomonlama aloqalari. Turkiston umumiy uyimiz.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 165 davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi ochildi. Bular AQSh, Turkiya, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, O'indiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamkatlardir. Shuningdek O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda O'zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

O'zbekiston jahon iqtisodyotiga integratsiyalashish yo'lidan borib Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot va boshqa moliyaviy iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlik qilmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar-Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ularning vakolatxonalari respublikamizda ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferentsiyasi, qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. I. A. Karimov 1999 yili aprelda Shimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturining a'zosi sifatida NATO ning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi. O'zbekiston O'rta Osiyo davlatlari bilan Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va Trans Osiyo temir yo'lini qurilishida faol ishtirok etmoqda. Bu O'zbekiston uchun dengiz yo'llariga, xalqaro transport tarmog'iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O'zbekiston quyidagi tamoyillarga amal qiladi.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;

2. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalg qilishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, tashkilotlar va muassasalar tuzish;

3. Ilg'or texnologiyaning kirib kelishiga, xo'jalik tarkibini zamonaviylashiga ko'maklashadigan xorijiy sarmoyalarga nisbatan «ochiq eshiklar» siyosatini o'tkazish;

4. Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan o'ta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalar bilan ta'minlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi va «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi, «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Bu huquqiy hujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Tashqi savdo uchun imtiyozlar berildi. Tovarlarni import va eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi.

O'zaro sarmoyalarni himoya qilish maqsadida jahoning ko'pgina mamlakatlari, jumladan, Germaniya, Turkiya, AQSh, Frantsiya va boshqa mamlakatlar bilan shartnomalar imzolandi. Institutsional o'zgarishlar sohasida siyosiy va moliyaviy xatarni himoya qiluvchi «O'zbekinvest», Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki «ALC, inc» Amerika moliyaviy guruhi bilan birgalikda Londonda Siyosiy xatarning shtab kvartirasi va Toshkentda moliyaviy xatarning oldini olish shtab kvartirasi bilan o'zaro sug'urta kompaniyasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida investitsiyalarga ko'maklashish muassasalari chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirlar palatasi, Lizing kompaniyasi tashkil etildi. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan siyosati respublikaga xorijiy sarmoyalarning to'xtovsiz kirib kelishini ta'minlamoqda. O'zbekiston hukumati Kanada, XXR, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, Shveysariya banklari va firmalari bilan 1,5 milliard AQSh dollari hajmida 32 ta yirik kredit bitimi tuzdi va ular amalga oshmoqda. Faqat 1994 yilda respublikaga 640 million AQSh dollar miqdorida investitsiya kreditlari berish to'g'risida xalqaro moliya muassasalari va xorijiy sarmoyadorlar bilan tuzilgan bitimlar asosida Amerikaning «N'yuymont-Mayning» kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib oladigan «Zarafshon-N'yuymont» qo'shma korxonasi qurilib ishga tushirildi. Toshkentda xalqaro savdo-ko'rgazma kompleksi, Xorazmda qand-shakar zavodi qurildi. Janubiy Koreya sarmoyadorlari bilan «O'zDEU avto», «O'zDEU elektroniks» hissadorlik birlashmalari keng faoliyat ko'rsatmoqda. Germaniya va Janubiy Koreya bilan hamkorlikda telefon tarmoqlari yangilanmoqda. 1997 yil oxirlarida O'zbekistonga

kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 8 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. O’ozirgi kunda xorijiy mamlakatlar sarmoyadorlari ishtirokida 3200 dan ortiq qo’shma korxona qurilmoqda, bir qismi faoliyat ko’rsatdi. O’zbekistonning barcha rivoj topgan xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari kengayib bormoqda.

17.O’zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari.

O’zbekiston Respublikasi birinchi navbatda Yaqin va O’rta Sharq xamda arab mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlarni o’rtanish va rivojlantirishga kirishdi. 1991 yil 16-19 dekabr kunlari O’zbekiston delegatsiyasi Turkiyada bo’ldi. 1992 yil 28 aprelda O’zbekistonda Turkiya elchixonasi ochildi. O’zbekistonda Turkiya sarmoyadorlari ishtirokida 200 dan ortiq qo’shma korxonalar barpo etildi. 1996 yil iyun oyida O’zbekiston avtomobilsozlik korxonalari assosiyatsiyasi – “O’zbeksoat”, “Turkiyaning “Kochxolding” kontserini bilan Samarqand shaxrida “Samkochavto” o’zbek-turk qo’shma korxonasini barpo etish to’g’risida shartnoma tuzdilar. 1992-yil 27-28 iyun kunlari Pokiston Islom Respublikasi bosh vaziri O’zbekistonga rasmiy tashrifi ikki davlat o’rtasidagi aloqalarga asos soldi. Xozirgi kunga qadar O’zbekistonda Pokiston sarmoyadorlari ishtirokida 120 ta qo’shma korxona tuzilgan Tabaniy, Merkuriy, Metro,Laksan Tabako kabi 19 ta yirik firma va krmpaniyalar faoliyat ko’rsatmoqdalar. O’zbekistondan Pokistonga pilla shoyi matolar, shisha, villur ekspert qilinmoqda. Pokiston esa tayyor kiyimlar poyafzal, charm buyumlar kakao va shakar keltirmoqda.

1992 yil 24-25- noyabr kunlari Prezidentimiz Eron Islom Jumhuriyatiga rasmiy davlat tashrifi O’zbekiston va Eron o’rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. O’zbekiston va Eron o’rtasidagi aloqalar transport sohasida keng rivojlandi. 1996 yilda O’zbekiston Eron xududi orqali 34 ming tonna yuk tashigan bo’lsa, 2001 yil bu ko’rsatkich 4 ming 87 tonnani tashkil etdi. 2002 yilga kelib Eron tadbirdorlari sarmoyalari ishtirokida 50 ga yaqin qo’shma korxonalar barpo etildi. 1992 yil O’zbekiston, Pokiston, Eron va Turkiya tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo bqlib kirdi. O’zbekistonning yirik mamlakat-xindiston bilan aloqalari kengayib bormoqda. O’zbekiston va Xindiston o’rtasida o’zaro maanfatlik aloqalariga xizmat qiluvchi 40 ga yaqin hujjatlar qabul qilingan. Hozirga qadar Xindiston sarmoyadorlari tashkil etgan 30 ga yaqin korxona faoliyat ko’rsatmoqda. O’zbekiston Xitoy xalq Respublikasi bilan ham iqtisodiy madaniy aloqalar olib bormoqda 1992 yil yanvar oyida Toshkentda Xitoy elchixonasi ochildi. 2004 yilga kelib o’zaro savdo hajmi 134 ming AQSh dolliriga yetdi. 1992-1996-yillarda «O’zDEU avto» O’zbekiston-Janubiy Koreya qo’shma avtomobil zavodini loyihalashtirish, qurish ishlari amalga oshirildi. Zavod 1996-yil 25-mart kuni avtomobillar ishlab chiqarishni boshlab yuborildi. Shunday qilib, O’zbekistonning Koreya respublikasi bilan hamkorligi kengayib bormoqda. 1999-

yilga qadar O'zbekistonnga Koreyadan 1,2 mld. AQSh dollari hajmida sarmoya kirib keldi va o'zlashtirildi. O'zbekistonda 70 dan ortiq Koreya hamkorligida barpo etilgan qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1997-yildayoq 1 mldr. AQSh dollaridan oshdi. Yaponiya 1991-yildayoq O'zbekiston mustaqilligini tan oldi, 1922-yilda o'zaro diplomatik aloqalar o'rnatildi. O'zbekistonda Yaponianing dunyoga mashhur "Mitsui", "Mitsubishi", "Sumitoto", "Tyumen", "Marubeni", "Nishe Ivai" korporatsiyalarining doimiy vakolotxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda 10 dan ortiq O'zbekiston yaponiya qo'shma korxonalarini barpo etildi va faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda 1996-yil boshlarigacha Amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida 200 ta o'zbek-amerika qo'shma korxonalarini tashkil topdi va faoliyat ko'rsatdi. Bular orasida Navoiy viloyati Zarafshon vodiysidagi Muruntovda AQShning Nyumont Mayning Korporatsiyasi bilan hamkorlikda tog' jinslarida oltin va kumush ajratib oluvchi "Zarafshon-Nyumont" qo'shma korxonasi bor. Bu korxonada 2002-yilgacha 83 tonna oltin tayyorlandi. 2001 -yilda O'zbekistonda AQSh bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar soni 70 tadan ortdi. AQSh srmoyasi ishtirokida respublikamizda barpo etilgan 305 ta qo'shma korxona sanoat, qishloq ho'jaligi, to'qimachilik, gaz-kimyo, neft, oltin qazib olish, transport, kommunikatsiya va ta'lim sohalarida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. "Zarafshon-Nyumont", "Oz-Teksako", "Oz-keysmash", "Oz-keystraktor", "Oz-Eksayd", "BiEy-Ay" ning Ho'jaobod gaz ombor qurilishi, "ABB Lummus Global" bilan hamkorligidagi Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi shular jumlasidandir. O'zbekistonning AQSh bilan savdo aylanmasi 300 mln. AQSh dollardan oshdi. O'zbekistonning Yevropa ittifoqi mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy-gumanitar aloqalari yildan-yilga rivojlanib, chuqurlashib bormoqda. Respublikamizda Yevropa Ittifoqiga a'zo malakatlarning 145 firma va kompaniyasi vakolotxonalarini akkreditatsiya qilindi. Yevropalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 491 ta korxona ishlayapti, ulardan 111 tasi 100% lik Yevropa kapitaliga ega. 1995-2002-yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarning firma va kompaniyalari respublikamizda umumiyligi qiymati qariyb 8 mldr. AQSh dolloriga teng yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda qatnashdi. 2002-yilda O'zbekistonning Yevropa Ittifoq mamlakatlari bilan mahsulot ayirboshlash hajmi 1 mldr. 65,8 mln. AQSh dollarini, 2003-yil yanvar-oktyabr yakunlari bo'yicha esa 910,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2003-yilda respublikamizda xorijiy sarmoya ishtirokida barpo etilgan 2087 ta qo'shma korxona jahondagi 80 mamlakatdan kelgan sheriklari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatdi. Ular 386,7 mldr. so'm hajmda iste'mol mollari, eksport uchun sifatli tovarlar ishlab chiqardi, aholiga xizmat ko'rsatdi. Jahondagi 80 dan ortiq horijiy bank bilan o'zaro munosabatlar o'rnatilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston ga

kiritilgan chet el investitsiyalari 14 mldr. AQSh dollaridan oshdi. Bir yilda tahminan 1 mldr. AQSh dollari o'zlashtirilmoqda. O'zbekiston jahondagi 140 mamlakat bilan savdo-sotiq qilmoqda. Har yilgi tovar ayirboshlash hajmi 6-8 mldr. AQSh dollarini tashkil etmoqda. Ilg'or mamlakatlar kadrlar tayyorlash, bank sohasida va boshqaruvda, axborot tarmoqlarini yo'lga qo'yishda, yetakchi birjalar bilan aloqalar o'rnatishda qonunchilik tajribasini o'rnatishda respublikamizga ko'maklashmoqdalar.

#### 18. Milliy va xalqaro xavfsizlikni taminlash muamolari.

Biz tashqi aloqalarni xalkaro munosabatlarining turli yunalishlari buyicha muvofakiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barkarorlikning kafolati deb bilamiz. Uzbekiston dune uchun ochik. Biz xam dunening Uzbekistonga juda katta kizikish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz. Bu esa Uzbekistonning barkaror rivojlanishini uchun eng yaxshi kafolatidir. Buni biz Ubekiston kapital sarflash nuktai nazaridan xam, dunyo miqiyosidagi keng kamrovli xavfsizlikning tarkibiy kismi sifatida mintakada barkarorlikni ta'minlash nuktaiy nazaridan xam borgan sari e'tiborga sazovor bulib boraetganliganing dalili deb bilamiz.Umumiyl xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan axamiyat kasb etmokda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli uzgarib bormokda. Yangi mustakil davlatlar maydonga chikmokda. Bu esa xozirgi kunda davlatlar maydonga va xalklarning borkarorligining ta'minlash uchun yangicha yendashuvlarning izlab topishni, XXI asr arafasida xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chikishni tobora kattik talab kilmokda.

Xavfsizlik, barkarorlik va tanlangan yuldan ogishmaslik degan ana shu oddiy suzlar zamirida chukur ma'no mazmun bor. Biz buni bilib olmogimiz va anglab yetmogimiz zarur.Uzbekiston uchun uning keng ma'nodagi milliy xavfsizligi nimani anglatadi, biz bu xavfsizlikni kanday tasavvur kilamiz? Birinchidan, Uzbekiston xavfsizlikning yaxlitligi xakidagi asosiy tamoyillaridan birini tula kullab kuvvatlaydi. Xavfsizlik uzuliksiz xolatidir xadsiz-xuddudsiz. Ikkinchidan "Sovuk urush" barxam topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy taxdidni etnik, mintakaviy maxaliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda.Uchinchidan, Uzbekiston uzining jugrofik-siesiy xolati jixatidan kolektiv xavfsizlik tizimi izchil yulga kuyilgan mintakada joylashgan bu xam takdid tugdiruvchi sababdir. Turtinchidan Mintakaviy nizolar kupincha terorizm va zuravonlik narkabiznes va kurol-yarok bilan konunsiz savdo kilish inson xukuklarini omaviy suratda paymal etish kabi xavfli taxidlarni doimiy manbara aylanib bormokda. Bunday xodisalar davlat chegaralarini tan olmaydi. Beshinchidan, Shunga ishonchimiz komilki, xalkaro munosabatlar amaliyeta xar bir mustakil mamlakatning uz milliy manfatlari muvofik uz mustakilligini va barkarorligini ta'minlash maksadi bulishi lozim. U yeki bu xalkaro tizimlarda va

kollektiv xavfsizlik shartnomalarida kay darajada katnashilishi ularning uzi belgilash xukuki nazarda tutilishi zarur. Oltinchidan, bizning nazarimizda, ekologiya va yadroviy xavfsizlik muammolari aloxida e'tiborni talab kiladi. Biz Markaziy Osiyo mintaqasi yadroviy kurollardan xam xudud deb e'lon kilinishiga erishmokchimiz. Ayrim qo'shni davlatlar yadro kuroliga ega bo'lishga oshkora intilayotganlika bizni ayniksa tashvishga solmoqda. Yangi ming yillikka yo'l ochib borar ekanmiz, hammaga do'stlik va xamkorlik qo'lini cho'zamiz. Xavfsizlik barqarorlik va sobitqadam rivojlanishi degan so'zlar buning ramzidir.

#### NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mustao'llilik va davlat mustao'lligi deganda nimani tushunasiz?
2. Totalitar tuzumning mo'iyati nimada?
3. Hzbek tiliga davlat tili mao'omining berilishi va uning a'amiyatni nimada?
4. Referendum nima?
5. O'aysi kun Hzbekiston respublikasining mustao'llik kuni deb belgilandi, u o'anday xujjatda khrsatib berildi?
6. Hzbekistonning davlat ramzlari mustao'llikni musta'kamlashda o'anday a'amiyatga ega?
7. O'zbekistonda xokimiyatni bo'linishi tamoyillari qanday?
8. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar qaysilar?
9. "Umid" jamg'armasi qachon va nima uchun tuzildi?
10. O'zbekistonda millatlararo masalalar qanday xal etilmoqda?
11. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy xayotida ommaviy axborot vositalari qanday ahamiyat kasb etmoqda?

#### TAYaNCh IBORALAR:

1. O'zbekistonning bozor munosabatlariga qaysi tamoyillarga asoslanib o'tmoqda?
2. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlikni imkoniyatlari qanday ?
3. Mustaqillik qo'lga kiritilgach O'zbekiston iqtisodiyotida qanday tarkibiy o'zgarishlar bo'ldi?
4. Milliy avtosanoatimizga qachon asos solindi?
5. O'zbekistonda fuqorolarni ijtimoiy himoya qilish masalalari qanday xal qilinmoqda?

#### TAYaNCh IBORALARI:

Bozor iqtisodiyoti-jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui.

Bosqichma-bosqich o'tish-jamiyat taraqqiyotining, ya'ni uning bir sifat xolatidan ikkinchi sifat xolatiga o'tishning asosiy tur va shakllaridan biri.

Xalqaro tashkilotlar—mustaqil davlatlar yoki milliy jamiyatlarning, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlarga erishishi uchun tuzilgan birlashmalar, mamlakatlar o’rtasida ko’p tomonlama hamkorlik qilishning eng muhim turlaridan biri.

Mulkdor sinf-biron-bir turdagи mulkka nisbatan to’liq yoki qimmatbaxo qog’ozlar orqali qisman soxiblik xuquqini amalga oshirayotgan kishilar guruxi.

Yagona iqtisodiy mintaqa-bozor iqtisodiyoti sharoitida xududiy bozorlar makroiqtisodiy tizimni tashkil etuvechi birliklar o’rtasida integratsianing juda yuqori ekanligining natijasi bo’lib, mintqaviy bozorlar tiziminining dunyoning boshqa mintaqaviy bozori bilan raqobat qila olishi uchun imkoniyat yaratadi.

Mafkura (arabcha ”mafcura” nuqtai-nazarlar va e’tiqodlar tizimi, majmui)-jamiyatdagi muayyan siyosiy, xuquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g’oyalar majmui.

Konstitutsiya(lotincha-tizimni, tartib)-davlatning asosiy qonuni.

Mustaqillik bayrami-jahon mamlakatlarida siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, ijtimoiy jihatdan, barcha masalalarni tashqaridan aralashuvsiz, o’z taqdirini o’zi belgilash, suverenitetni qo’lga kiritish orqali xal qilish, xaq-xuquqga erishilgan va rasmiy umumxalq, umumdavlat bayram deb e’lon deb e’lon qilingan kun.

Islohot (arabcha “islohot”- yaxshilash, tuzatish) - isloh qilish, tubdan o’zgartirish, qaytadan qurish, yangidan tashkil qilish.

Ma’naviyat (arabcha “manaviyat”-ma’nolar majmui)-kishilarning falsafiy xuquqi, ilmiy, badiiy, ahloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

#### NAZORAT SAVOLLARI:

1.O’zbekiston xukumatining tashqi siyosatida asosiy tamoyillari nimadan iborat?

2.O’zbekiston xozirgi kunda qaysi xalqaro tashkilotlarga a’zo?

3.O’zbekiston qachon MDXga a’zo bo’ldi?

4.O’zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasida qanday tashqi siyosat yuritmoqda?

5.O’zbekiston tashqi siyosati iqtisodiy o’sishga bog’liqmi? Isbotlab bering;

#### TAYANCH IBORALARI:

Mustaqil davlat xamdo’stligi (MDX)-bir butun davlat, federatsiya yoki mamlakat emas, xarbiy blok ham emas, davlatlar hamdo’stligining yangicha shakli, unga kiruvchi har bir davlat xalqaro xuquqning mustaqil va xuquqli sub’ektidir.

Parlament (frantsuzcha so’z bo’lib-so’zlamoq, so’zlash)-rasmiy so’zlashish joyi ma’nosini anglatadi.

Respublika (lotincha “res” ish va “publikus”-ijtimoiy, umumxalq ishi)-davlatni boshqarishning asosiy shakllaridan biri.

Referendum (lotincha e'lon qilinishi lozim xabar)- jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo'llaniladigan tadbirdan biri, ba'zi muhim masalalarni umumxalq ovoziga, umumxalq so'roviga, xalq muhokamasiga qo'yib xal etish.

“Sog'lom avlod uchun” jamg'armasi-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 23 apreldagi “Sog'lom avlod uchun” xalqaro xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida”gi farmoni asosida tashkil qilingan.

## AMALIET MASHGULOTLARIGA KUSIMChA MATERIALLAR

### GLOSSARIY

“AVESTO” – o'rta fors tilidan —Apastak yeki —Asos deb tarjima qilinadi. O'rta Osiening ajralmas qismi hisoblangan Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiylardan zardushtiylikning muqaddas kitobidir.

ADNO (arab. – eng past) 1) XIX-XX asr boshlarida Xiva xonligida 5 tanobgacha yeri bo'lgan pastki tabaqadagi dehqonlar. 2) Madrasa talabalarining boshlang'ich o'quv guruhi.

ADRA – Xiva xonligida sug'orilmaydigan yerlar.

AJAM – arablar o'zlari bosib olgan hududlardagi boshqa xalqlarni, jumladan, Yaqin va O'rta Sharq, asosan, hozirgi Eron hududlarini shunday nom bilan ataganlar.

AJDOD (arab. – bobo so'zining ko'pligi) – bobo degan ma'noni bildirib, shaxsning ilgarigi o'tgan ota-bobolarini anglatadi.

AJZChI – Amir Temur va Temuriylar davrida harbiy safarga otlangan qo'shinni mashaqqatli joylardan olib o'tish maqsadida mahalliy aholi ichidan tanlab olingan yo'l ko'rsatuvchi.

AZATA – —Avestoga ko'ra o'sha zamон (miloddan avvalgi birinchi ming yilliklar) jamoasining a'zolari asosan —azatallardan tashkil topgan. Erkin shaxs, ozod ma'nosida ishlataligani.

AZARXO'RRO – muqaddas olov. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda to islom dini tarqalgunga qadar otashparastlar o'rtasida azarxo'rroga e'tiqod juda kuchli bo'lgan.

AYL – Amir Temur qo'shinida o'n kishilik harbiy bo'linma.

AYMOQ – 1) mo'g'ul va turkiy xalqlarda qadimgi urug'larning parchalanishidan kelib chiqqan turli tarmoqdagi o'zaro qon-qardosh oilalar birlashmasi èhud ittifoqi; 2) O'rta asrlarda mo'g'ullarda yirik yer-mulk, ba'zan xonlik.

AYMOQLAR – Afg'oniston va O'zbekistonda yashovchi bir qancha turkiy qabila va urug'larning umumiyligi nomi.

**AKES** (Ak) – Turkmanistondagi Tajan darèsining antik davr tarixchilari asarlarida uchraydigan qadimgi nomi.

**AKINAK** – Miloddan avvalgi 1 ming yilliklarda qadimgi forslar va skif (sak)lar ishlatgan uzunligi 40-60 santimetr keladigan kalta temir qilich, hanjar. Qo’l jangida sanchuvchi qurol sifatida ishlatilgan.

**ANTIK DAVR** (lot. antiquus – qadimgi) – O’rta Osiè tarixida miloddan avvalgi IV asrdan (yunon-makedon istilosidan) boshlab milodiy V asrga qadar bo’lgan davr antik davr deb yuritiladi. Qadimiy noèb moddiy èdgorliklar antikvar buyumlar deyiladi.

**ANTIMONOPOL SIYOSAT** – iqtisodiètni monopoliya (yakka hukmronlik)dan xalos etish va monopoliyalarni cheklab qo’yishga yo’naltirilgan davlat sièsati. Antimonopol sièsatdin ko’zlangan asosiylar maqsad tovar ishlab chiqaruvchilar o’rtasida sog’lom raqobatni vujudga keltirish va shu orqali tovarlar narxini tushirishdir.

**ANTOGONIZM** (lot. antagonisma – bahs, kurash) – bir-biriga qarama-qarshi kuchlar, g’oyalarning keskin kurashini ifodalaydigan ziddiyat.

**ANTROPOLOGIYa** (yunon. anthropos – odam, logos – fan) – qadimgi odamlarning kelib chiqishi, tashqi ko’rinishi va rivojlanish bosqichlarini o’rganuvchi fan.

**ANUSHTEGINIYLAR** – xorazmshohlar davlatini boshqargan sulola.

Saljuqiyarning Xorazmdagi noibi Anushtegin (? - 1097) nomidan olingan.

Anushteginning vorislari Xorazmni mustaqil davlatga aylantirib, 1097-1231 yillarda Anushteginiyarning qudrati shu darajada ortdiki, xatto ular endi —xorazmshoh|| degan unvонни ep ko’rmay, o’zlarini —sulton|| deb atay boshladilar. Sulola vakillari: Qutbiddin Muhammad (1097-1127), Otsiz (1127-1156), El Arslon (1156-1172), Takash (1172-1200), Muhammad (1200-1220), Jaloliddin (1220-1231).

**ARK** – qadimgi davr, o’rta asrlarda hamda so’nggi davrda O’rta Osiè hududida

shaharlarning hokimlar joylashgan ichki mustahkamlangan qismi ——o’rda||, sitadelъ. Yozma tarixiy manbalarda ko’xandiz, diz, koh, qasr, qal’a, hisor nomlari bilan ham tilga olinadi. Arkda asosan hukumat idoralari,

amaldorlarning uylari, devonxona, tanga zarb qiladigan zARBxonalar ark ichida bo’lgan. Odatda ichki shahar – ark ham mudofaa devori bilan o’rab olingan.

**ARLOT**, arlat, allot – o’zbek urug’laridan biri. Manbalarga ko’ra, Chingizon tomonidan Chig’atoy ulusini boshqarish uchun ajratilgan 4 ming kishilik qo’shin boshliqlaridan biri ham Arlot urug’idan bo’lgan.

**ARNA** (qad. Eroncha Ar(ir) – suv, sanskritcha arnas – suv oqimi) – O’rta

Osièda keng tarqalgan tarixiy termin. Xorazmda bosh kanalni, Zomin, Jizzax, G'allaorol tumanlarida kichik jarni, Qozog'istonda darè o'zanini, Zarafshon etaklarida quruq o'zanni, boshqa joylarda darè irmoqlarini arna deb atashadi.

**ARXAIZM** (yunon. archaios – qadimgi) – biron bir narsa-buyum, èzuv, ibora èki ijtimoiy hodisaning qadimgi davrga oidligini bildiruvchi tushuncha.

**ARXANTROPLAR** (yunon. archaios – qadimgi, anthropos – odam) – ibtidoiy

odamning dastlabki vakillari. Arxantroplar ilk paleolit davrida yashaganlar. (Asvralopitek, Zinjantrop, Pitekantrop, Sinantrop, Fergantrop).

**ARXEEOLOGIK MADANIYAT** – o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan muayyan davrga va hududga doir arxeologik èdgorliklar birligi.

Ayrim èki bir qancha belgilarga, xususan, sopol buyumlarining shakli, naqshi,marhumlarni dafn etish tartibi, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or anjomlari va boshqalarga ko'ra belgilanadi. Odatda, èdgorlik qaerdan topilsa, shu joyning nomi bilan yuritiladi (masalan: Qovunchi madaniyati, Zomonbobo madaniyati).

**ARXEEOLOGIYA** (yunon. archaios – qadimgi, logos – fan) – insoniyat o'tmish

tarixini moddiy madaniyat èdgorliklari (mehnat qurollari, asbob-anjomlari, qurol-yarog'lari, turar joylari, qurilishlari, qabrlarini) qazishmalar orqali o'rghanuvchi fan.

**ARShAKIYLAR** – hozirgi Turkmanistonning janubi va Eron hududlarida miloddan avvalgi 250 yildan milodiy 224 yilga qadar hukmonlik qilgan

Parfiya davlatidagi sulola. Sulolaga dax qabilasining boshlig'i Arshak asos solganligi uchun shunday nomlangan. Arshakiylar davlatining ilk poytaxti Ashxabod yaqinidagi Niso shahri bo'lган. Keyinchalik u Erondagi Ktesifonga ko'chirilgan. Parfiya davlati Mitridat II (123-87) davrida juda kuchayib, Sharqning qudratli davlatiga aylanadi. Salavkiylar qo'shini tor-mor etilib, Eron va Mesopotamiya hududlari podsholikka qo'shib olinadi. Parfiya davlatining g'arbga tomon kengayishi Rim imeriysi bilan urushni keltirib chiqardi. Miloddan avvalgi 53 yilda Karri jangida Orod II (55-36) Rimning mashhur sarkardasi Karass qo'shinlarini qaqshatqich mag'lubiyatga uchratadi. Parfiya davlati Falastin, Suriya, Sharqiy Kichik Osièni ham ishg'ol etib, zamonasining eng buyuk davlatiga aylanadi. Milodimizning birinchi asridan Parfiya davlati asta-sekin inqirozga yuz tuta boshlaydi. Arshakiylar sulolasi Eron Sosoniylar sulolasi tomonidan 224 yilda tugatiladi. Parfiya davlati podsholari: Arshak (250-247), Tiritad (248-211), Artaban I (211-191), Prianat (191-176), Fraat I (176-170), Mitridat I (170-138), Fraat II (138-128), Artaban II (128-123), Mitridat II (123-87), Fraat III (87-57), Orod II (57-36), Mitridat IV (128-147), Vologez III (148-192), Vologez V (208-222), Artaban V (222-224).

Amir (ar. — amir, ya’ni hokim, amir) — VII asrgacha arablarda qabila boshlig’i va harbiy boshliqlar. Arab xalifaligitashkil topgach, xalifalikka bo’ysundirilgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokim, qo’shin qo’mondoni va yirik lashkarboshilar amir deb atala boshlangan. Oltin O’rda davlatida, keyin O’rtta Osiè va Eronda mo’g’ul va turk qabilalari birlashmasi ulus boshlig’ining unvoniham amir deb yuritilgan. Sohibqiron Amir Temurning unvoni ham amir bo’lib, bu tushuncha hukmdor ma’nosida ishlatilgan. Buxoro xonligida 1753-1920 yillarda hukmronlik qilgan Mang’itlar sulolasining vakillari Chingiziylardan bo’lmanliklari sababli xonmas, "amir" unvoni bilan yuritilgan.

Amir al-mo’minin (ar. — mo’minlar amiri) — ilk Islom davridagi xalifalarning unvoni. Usha davrda diniy na dunèviy hokimiyat xalifalarning qo’llarida jamlangan. Bu vazifalarni bajaruvchilar "xalifa", "imom", "amir" unvonlari bilan birga, har uchala mazmunni ifodalovchi amir al-mo’minin unvoni bilan atashgan.

Amiri lashkar — Temuriylar, Shayboniylar va xonliklar chiirida keng tarqalgan eng yuqori harbiy unvon, bosh • .umondon. Masalan, Qo’q°n xonljida amiri lashkar lavozimi yirik harbiy harakatlar davrida mavjud bo’lib, unga odatda Mingboshy, otaliq èxud shahzodalar belgilangan.

Amiri shikor — ma’lumki, ov barcha hukmdorlar haётida katta o’rin tutar edi. Bu lavozim egasi xon va sultonlarning pilarini uyuştirib turishi kerak edi. Shikorgoh atrofidagi qishloqlar aholisining o’z ot-ulovi, qurol-aslahasi bilan kelib xon va sultonlarning ov o’tkazishida ularga èrdam berishi, ular qo’nib qolganlarida qo’noq hamda oziq-ovqat bilan ta’minlash ishlari ham amiri shikorning vazifasi hisoblanar edi.

Amir ul-umaro (ar. — amirlar amiri, oliy amir) — O’rtta asrlarda Movarounnahrda keng tarqalgan eng yuqori harbiy unvonli amaddor. U oliy bosh qo’mondon hisoblanib, butun harbiy ishlari uning qo’lida bo’lgan. Chig’atoy ulusi davrida hukmdorning barcha bosh ijro idoralari (devonlar) ham amir unumaro qo’lida bo’lgan.

Ark — davlatchilikning ilk bosqichlaridan boshlab, to so’nggi o’rta asrlargacha bo’lgan davrlarda O’rtta Osiè hududlarida vujudga kelgan davlat hukmdorlarining qarorgohi. Tarixiy èzma manbalarda kuxandiz, diz, koh, qasr,qal’a, hisor, Arki a’lo, o’rda, sitadel deb ham yuritiladi. Arqda, asosan,xukumat idoralari, amaddorlarning uylari, devonxona, tanga zarb qilinadigan zarbxonalar joylashgan. Odatda ichki shahar -ark ham mudofaa devorlari bilan o’rab olingan.

Arkon (ar. — ustun.) — islomning beshta asosiy talabi iymon, namoz, ro’za, zakot, haj.

Arlot, arlat, allot — o’zbek urug’laridan biri. Manbalarga ko’ra, Chingizxon tomonidan Chig’atoy ulusini boshqarish uchun ajratilgan 4 ming

kishilik qo'shin boshliqlaridan biri ham arlot urug'idan bo'lgan.

Arna (qad. er.) — suv, sanskritcha arnas — suv oqimi) — O'rta Osièda keng tarqalgan tarixiy termin. Forishda bosh kanalni, Zomin, Jizzax, G'allaorol (tumanlarida kichik jarni, Qozog'istonda darè o'zanini, Zarafshon etaklarida quruq o'zanni, boshqa joylarda darè irmoqlarini arna deb atashadi.

Arxeologik madaniyat — o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan muayyan davrga va hududga doir arxeologik èdgorlikliklar birligi. Ayrim èki bir qancha belgilarga, sopol buyumlarining shakli, naqshi, marhumlarni ko'mish tartibi, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or anjomlari va boshqalarga ko'ra belgilanadi. Odatda, èdgorlik qaerdan topilsa, shu joyning nomi bilan yuritiladi (masalan: Qovunchi madaniyati, Zamonbobo madaniyati), Arxeologiya (yun. — qadimgi fan) — insoniyat o'tmish tarixini moddiy madaniyat èdgorliklari mehnat qurollari, asbob-anjomlari, qurol-yarog'lari, turar joylari, qurilishlari, qabrlari)ni qazishmalar èrdamida o'rganuvchi fan.

Arshakiylar — hozirgi Turkmanistonning janubi va Eron hududlarida miloddan avvalgi 250 yildan milodiy 11 yilga qadar hukmronlik qilgan

Parfiya davlatidagi sulola, Sulolaga dax qabilasining boshlig'i Arshak asos solganligi uchun shunday nomlangan. Arshakiylar davlatining ilk poytaxti Ashxabod yaqinidagi Niso shahri bo'lган. Keyinchalik u Erondagi Ktesifonga ko'chirilgan. Parfiya davlati Mitridat II (123-87) davrida juda kuchayib, Sharqning qudratli davlatiga aylanadi. Salavkiylar qo'shini tor-mor etilib, Eron va Mesopotamiya hududlari podsholikka qo'shib olinadi.

BADAXShON – Amudarèning yuqori oqimida, uning har ikki sohilida joylashgan tog'lik mamlakat. Fayzobod uning poytaxti bo'lgan.

BAYoNOT – xalqaro huquqda bir èki bir necha davlatning sièsiy partiyasi èki partiyalari, hukumati èhud hukumatlarining bir èki bir necha davlatlarga oid muhim masalalar yuzasidan o'z rasmiy fikrlari, qarashlari hamda maqsadlarini, ma'lum hatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlashlari èki aksincha, qoralashlarini, ularga e'tiroz bildirishlarini ifodalaydigan hujjat.

BAZZOZ – gilamfurush, ip-gazlama bilan savdo qiluvchi do'kondor.

"BAYT UL-HIKMAT" – Donishmandlar uyi. Arab xalifasi Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid zamonida (813-833) Bog'dodda tashkil etilgan islom Sharqining o'sha davrdagi fanlar akademiyasi. Buyuk vatandoshlarimizdan al-Xorazmiy (786-850) va Ahmad al-Farg'oniyilar (797-865) Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritganlar. Xususan al-Xorazmiy ushbu akademiyaning mudiri bo'lgan.

BAKOVUL – Buxoro amirligida saroy oshxonasini boshqaradigan amaldor.

BALX – Afg'onistonning shimolidagi o'rta asr shahri. Qadimgi Baqtra.

BAND – 1) to'g'on, suv ombori; masalan, X asrda hozirgi Forish tumani Pasttog' dasasida toshdan qurilgan Xonbandi, Nurota tumanidagi G'ishtband (XII asr), Abdullaxon bandi (XVI asr); 2) qum bosishni to'xtatish uchun qurilgan

to'siq, ihota; 3) tog' oralig'idagi juda tor yo'l (masalan, Darband aslida —Daraiband||).

**BANDAR** – port; kema to'xtaydigan joy.

**BANK** (frants. banque – tashkilot, muassasa) – pul mablag'larini o'zida saqllovchi, kredit (qarz, ssuda) beruvchi, pul hisobotlarini, pul chiqarishni (emissiyani), qimmatli qog'ozlar (banknotlar, cheklar, veksellar) chiqarishni amalga oshiruvchi va davlatlar, korxonalar, muassasalar va alohida shaxslar orasida o'zaro to'lovlarni va hisob-kitobni amalga oshirishda vositachi vazifasini bajaruvchi maxsus iqtisodiy institut.

**BANNO** – o'rta asrlarda imorat quruvchi usta.

**BANOKAT**, Sharqiya, Shohruhiya – Sirdarèning o'ng sohilida, Ohangaron (Iloq) darèsining Sirdarèga qo'shilish joyidagi karvon yo'li èqasida joylashgan qadimi shahar xarobasi (I-XVIII asrlar). Tadqiqotlarga ko'ra, dastlab (I a.) uning mudofaa devorlari bo'lmay, atrofdagi darè va jarliklar tabiits mudofaa vazifasini bajargan. Ilk o'rta asrlar(V-VI a.)da burjli mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. XII-XIII asr boshlarida shahar yanada kengaygan. Mo'g'ullar istilosiga davrida Banokat vayron bo'lgan. 1392 yilda Amir Temur Banokatni qayta tiklab, o'g'li Shohrux sharafiga Shohruxiya deb atagan.O'zaro urushlar oqibatida XVIII asr boshlarida vayron bo'lgan.

**BARANG'AR**, barang'or, burong'or (turkiycha – o'ng) – qadimgi turkmemo'g'ul

xalqlari haётida ishlatilgan harbiy-ma'muriy tushuncha. 1) Chingiziyalar sultanati barpo etilguniga qadar mo'g'ullar mamlakati o'ng qanot – barang'ar va so'l qanot – juvang'arga taqsimlangan. Chingizzon sultanatida ham bunday bo'linish saqlangan. Jo'ji ulusi ham o'ng va chap qanotlarga bo'lingan. O'ng qanot –Oq O'rda Botu va Shaybon, so'l qanot Ko'k O'rda Jo'jining katta o'g'li O'rdaga tegishli mulklardan iborat bo'lgan; 2) Amir Temur va Temuriylar, o'zbek xonliklari davrida qo'shining o'ng qanoti.

**BARGUSTIVON** – qadimda jangovor otlar ustiga èpiladigan èpinchiq, himoya vositasi.

**BARID** – 1) Chopar, xat eltuvchi, pochtalion. Somoniylar davlat boshqaruvi tizimida barid devoni mavjud bo'lib, u maktubot va axborot, ya'ni pochta vazirligi hisoblangan; 2) XIV-XVI asrlarda O'rta Osiё xalqlarida keng qo'llanilgan masofa o'lchov birligi bo'lib, ikki farsah, ya'ni taxminan 12 km. Ga teng yo'l bo'lgan.

**BARIMTA**, baranta – ko'chmanchi qabilalarda bir urug'ga boshqa bir urug' tomonidan yetkazilgan zararni to'lashga èki tahqir qilingan tomonning izzatnafsi qondirish maqsadida aybdor urug'ga tegishli mol-mulkni olib ketish èki bosib olish odati.

**BAQTRA** – qadimgi shahar. Baqtriyaning markazi, Afg'onistonidagi

Vazirobod (Balx) shahri yaqinida joylashgan. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan ma'lum. Rivoyatlarga ko'ra, zardushtiylik tarqalgan joy, keyinchalik kushonlar sultanati davrida Markaziy Osièda buddizmning yirik markazlaridan biri bo'lган.

**BAQTRIY**a – geografik hudud. Qadimgi Baqtriyaga hozirgi Janubiy O'zbekiston (Surxondarè), Janubiy-G'arbiy Tojikiston va Shimoliy

Afg'oniston yerlari kirgan. Baqtriya Eroncha Boxtar so'zidan kelib chiqqan bo'lib, quesh chiqadigan o'lkal demakdir. Mazkur hudud qadimgi yunon muarixlari asarlarida Baqtriana, Baqtriya deb atalgan. Ilk o'rta asrlar davriga kelib qadimgi Baqtriya yerlarida ko'chmanchi turkiy qabila – toxarlar keng èylishi munosabati bilan Tohariston deb yuritilgan.

**BAQTRIY**a YoZUVI – miloddan avvalgi IV asr oxirigacha qadimgi Baqtriya hududlarida oromiy èzuvi ishlatib kelingan. Keyin Baqtriyada mahkama tili va èzuvi yunoncha bo'lган. Keyin miloddan avvalgi III-II asrlar chegarasida oromiy va qadimgi yunon alifbosiga asoslanib Baqtriya èzuvi ishlab chiqiladi. Bizgacha yuzdan ortiq baqtriya èzuvi na'munalari va so'zlari yetib kelgan. Baqtriya èzuvi topilmalari asosan miloddan avvalgi I asr va milodiy I asrlarga taalluqli bo'lib, baqtriya tili va èzuvi uncha yaxshi o'rganilmagan.

**BAQQOL** (arab. – ko'katfurush, sabzavotfurush, g'allafurush) – o'rta asrlarda

bozor, guzar va mahallalardagi do'konchalarda mayda-chuyda ro'zg'or mollari,

kundalik yegulik oziq-ovqat maxsulotlarini sotuvchi mayda savdogar.

**BEGOR** – O'rta Osièda o'rta asrlarda mavjud bo'lган majburiy ishlab berish majburiyati bo'lib, mehnatkash xalq xon va mahalliy hukmdorlar tarafidan davlat va feodallarning turli qurilishlarida tekinga 12 kunlik ishlab berish majburiyati (hashar). Begor O'rta Osiè va Eronda VIII asrdan, Hindiston va Afg'onistonda esa X asrdan mavjud. Begor majburiyati XVIII-XIX asrlarda ham bo'lган. Begorni o'rta asr yevropasidagi barshchinaga qièslash mumkin.

**BEKLARBEGI** – yuqori ma'muriy unvon va lavozim; viloyat va katta shahar hokimlari. Bu lavozim O'rta Osiè, Kichik Osiè va Zakavkazье turkiy xalqlarida XIX asr oxirigacha saqlangan. Beklarbegining asosiy vazifasi soliq va majburiyatlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, hukmdor farmonlarini amalga oshirish edi. Beklarbegi o'z qo'l ostidagi viloyat (beklarbegilik)larda o'ziga bo'y sunuvchi alohida vazir, shayxulislom, sadr kabi mansabdorlarga ega bo'lган.

**BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASI (BXSR)** – Buxoro Amirligida amir hokimiyyati ag'darilgach 1920 yil 2-sentyabrda Bolsheviklar andozasida tashkil etilgan Respublika. 1921 yil sentyabr oyida BXSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. BXSRda keng ijtimoiy-iqtisodiy va sièsiy islohotlar amalga oshirila boshlandi.

**BUXORO XONLIGI** – Temuriylar davlatining inqirozidan boshlab

Vatanimiz tarixining Xonliklar davri boshlandi. Buxoro xonligi rasman 1510 yildan 1920 yilgacha mavjud bo'ldi. Buxoro xonligida uchta sulola hukmronlik qildi. Bular: Shayboniyalar sulolasi (1510-1601), Ashtarkoniylar sulolasi (1601-1753) va Mang'itlar sulolasi (1753-1920). Shayboniyalar va Ashtarkoniylar sulolasidan chiqqan hukmdorlar nasl-nasabi jihatidan Chingizzon (1151-1227) ning uzoq avlodlari hisoblanardilar. Shuning uchun ham ular —xon unvoni bilan yuritilganlar.

**BUYUK IPAQ YO'LI** – G'arb bilan Sharqni bir necha asr mobaynida bir biriga bog'lab kelgan yo'llardan biri bo'lib, bu yo'l fanga 1877 yilda nemis olimi K.Rixtgoen tomonidan shunday nom bilan kiritildi.

**Baqtriya** — tarixiy-geografik hudud. Kadimgi Baqtriyaga hozirgi Janubiy O'zbekiston (Surxondarè), Janubiy-G'arbiy Tojikiston va Shimoliy

Afg'oniston yerlari kirgan, Baqtriya eroncha "boxtar" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "quesh chiqadigan o'lka" demaqdirdi.

**Baqqol** (ar. — oziq-ovqat mollari, sabzavot sotuvchi) -o'rta asrlarda bozor, guzar va mahallalardagi do'konchalarda mayda-chuyda ro'zg'or mollari, kundalik yegulik oziq-ovqa mahsulotlarini sotuvchi mayda savdogar.

**Begor** (f. — majburiy va bepul xizmat) — o'rta asrlard O'rta Osièda mavjud bo'lgan majburiy ishlab berish majburiyati bo'lib, xalqning xon va mahalliy hukmdorlar tarafidan belgilangan turli qurilishlarida 12 kunlik, tekinga ishlab berish majburiyati (hashar).

**Beklarbegi** — yuqori ma'muriy unvon va lavozim, viloyat va katta shahar hokimlari. Bu lavozim O'rta Osiè, Kichik Osiè va Zakavkazье turkiy xalqlarida XIX asr oxirigacha saqlangan. Beklarbegining asosiy vazifasi soliq va majburiyatlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash hukmdor farmonlarini amalga oshirish edi. Beklarbegi qo'l ostidagi viloyat (beklarbegilik)larda o'ziga bo'y sunuvchi alohida vazir, shayxulislom, sadr kabi mansabdrrlarga ega bo'lgan.

**Buxoroi sharif** (Sharofatli Buxoro) — qadimgi Buxoroning keng tarqalgan nomlaridan biri. O'rta asrlarda jahondagi 7 shahar: Makka, Madina, Quddus, Buxoro, Bog'dod, Damashq, Mozori Sharifga diniy markaz sifatida shuxrai qozonganligi uchun "Sharif" unvoni berilgan.

**VASSAL** – Ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada xo'jayin(senyor, feodal)ga qaram bo'lgan xizmatkor (dehqon); XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlari bir davlat tomonidan ikkinchi davlatni siésiy jihatdan o'ziga to'la qaram qilib olib, u yerda o'z siésatini yurgizish vassallik deb atalgan.

**VAQF** (arab. – to'xtash, pauza) – o'rta asrlarda masjid, mozor, xanaqo, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar.

**VAQFI-DAHYAK** – Davlat hazinasi uchun soliq undiriladigan vaqf yerlari

**VAQFI-HOLIS** – soliqlardan ozod qilingan vaqf yerlari

**VAHDONIYaT** (arab. – yakkalik, yagonalik) – Ollohnning yakka-yagonaligini tanish va e'tirof etish. Vahdoniyat islomning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

**VERNIY** – hozirgi Olmaota shahri. Turkiston General Gubernatorligiga qarashli Yettisuv viloyatining markazi bo'lgan.

**VETO** (lot. veto – ta'qiqlayman) – davlat huquqida davlat hokimiyatining biror organi tomonidan qabul qilingan qarorning uning boshqa bir organi (davlat boshlig'i) tomonidan bekor qilinishi.

**VIDEVDAT** - Avesto kitobining bizgacha saqlanib qolgan qismi bo'lib, Videvdat kitobi — Avestoning birmuncha èsh, lekin to'liq saqlangan kitobidir. U 22 bobdan iborat bo'lib, unda — devlarga qarshi kurash qoidalari haqida gap boradi.

**VOLIY** (arab. – hokim, noib) – o'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida viloyat hokimi (noibi). Voliylar xon èki podshoh tomonidan tayinlanib, viloyatning mutlaq hokimi hisoblangan.

Vag'n, fat, bat — "Avesto"da ibodatxona nomi. X-XI asrlardagi ko'pgina tarixchilarining asarlarida So'g'ddag'i qishloqlar nomida "fag'n" ("bag'n", "vag'n") qo'shimchasi borligi kuzatiladi. Ibodatxona rahbari (kohini) -"vag'npat" deb atalgan.

Vadoriy — o'rta asrlarda Samarqand yaqinidagi Vad qishlog'ida to'qilgan pishiq, sariq rangdagi mashhur mato. Vadoriy qimmatbaho va ko'rkarli sababli undan tikilgan kiyimlarni Xuroson noiblari, oliy martabali vazirlar va qozilar kiyib yurishgan.

Vazir (ar. — yuk ko'taruvchi) — o'rta asrlarda Yaqin Sharq v O'rta Sharq davlatlarida, shu jumladan O'rta Osiè davlatlarida hukumat idorasini èki kengashi (devon) boshlig'i. Arab xalifaligida birinchi bo'lib vazir lavozimini xalifa al Mansur (754-775) joriy etgan.

Vaysa — "Avesto" da biron-bir urug' xizmatkori, huquqi chegaralangan urug' a'zosiga nisbatan ishlatilgan tushuncha.

**GANDIMIYoN ShARTNOMASI** – Xiva xonligi bilan Chor Rossiyasi o'rtasida 1873 yil 23 avgustda imzolangan shartnoma.

**GANChKOR** – ganch (alebastr) bilan bino èki narsa buyumlarga bezak beruvchi xunarmand usta.

**GEGEMONIYa** (yunon. hegemonia – hukmronlik, ustunlik) – jamiyat va davlat boshqaruvida, shuningdek xalqaro munosabatlarda biron bir sièsiy kuch èki ijtimoiy guruhning ustunligi va rahbarligini anglatuvchi sièsiy tushuncha.

**GENERAL-GUBERNATOR** – Rossiya Imperiyasi (1721-1917)da mahalliy ma'muriyatning 1703-1917 yillardagi oliy mansabi; fuqarolik va harbiy hokimiyatga ega bo'lган.

"Mustaqillik deklaratsiyasi" — O'zbekiston. Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi dastlabki huquqiy hujjatlardan biri. "Mustaqillik

deklaratsiyasi" 1990 yil 20 iyunda O'zbekiston Oliy kengashining II sessiyasida qabul qilingan bo'lib, 12 banddan iborat ushbu tarixiy hujjatda o'zbek xalqining davlat qurilishi tarixi, tajribasi, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi asosida davlat

mustaqilligi ilk bor e'lon qilingan edi.

"Mustaqillik" ordeni — O'zbekiston Respublikasining yuksak

mukofotlaridan biri. Bu orden bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mustaqil huquqiy davlat barpo qilish va uni mustahkamlashga, respublikada tinchlik va taraqqietni ta'minlashga qo'shgan ulkan hissalar uchun mukofotlanadalar.

**DAVATDOR** (arab. davar – sièhdon) – sultonlikda èzuv qurollarini tashuvchi odam. Hukmdorning èzuv-chizuv asboblari shay bo'lishi va saqlanishi uchun javobgar shaxs.

**DAVLAT TUZILISHI ShAKLI** – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida davlat èki ittifoqni tashkil etuvchi davlatlarni hududiy tashkil qilish usuli. Davlat tuzilishi shaklining ikki xil farqlanadi: federatsiya va unitar davlat.

**IXROJOT** – Buxoro xonligi (Shayboniylar) davrida davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq.

**IXShIDLAR** – ilk o'rta asrlarda (V-VIII a.) Sug'd va Farg'ona hukmdorlari unvoni.

**KADIVAR** – O'rta asrlarda qishloq zirotkor jamoasining feodal dehqonlarga qaram bo'lib qolgan, yersiz, qullik asoratiga tushirilgan qismi.

**KADXUDO** – qishloq va shahar oqsoqoli.

**KAShKUL**, kachkul, satil – mis idish, odatda, masalliqlar saqlanadi.

Chuqur, qopqoqli, dastali bo'ladi. Sirti turli xil naqshlar bilan bezatiladi.

**KAShOVARZ** (fors. – ekinzor, dehqon) – ilk o'rta asrlarda Xuroson va Movarounnahrdagi oddiy, erkin dehqonlar.

**MUBOSHIR** (arab. – ish yurituvchi) – biror ishga boshchilik qiluvchi, boshqaruvchi, boshliq.

**NOZIR** (arab. – nazoratchi) – O'rta Osiè xonliklarida saroy ta'minoti va uning xarj qilinishini nazorat qilib turuvchi mansabdar;

**OZOD** – ilk o'rta asrlarda Sug'd mulkdor zodagonlari tabaqasi.

**PEShKASH**, pishkash (fors. – tuhfa, in'om) – o'rta asrlarda mahalliy hokimlar, badavlat shaxslar tomonidan xonlar, sultonlar va oliv darajadagi mansabdar shaxslarga tortiq qilinadigan sovg'a. Peshkash qimmatbaho zebu-ziynat, asbob-anjom, mato, kiyim-kechak, ba'zan arg'umoq otlar, kitob va nullardan iborat bo'lган.

**SALG'UT** – Xiva xonligidagi asosiy soliq turi – yer solig'i.

**SATRAP** (qad.fors. – hshatrapavan – viloyat hazinachisi) – qadimda va ilk o’rta asrlarda Erondagi viloyat (satrapiya) boshlig’i. Satraplar odatda forslardan tayinlangan. Satrap satrapiyaning oliv sudbysi vazifasini ham o’tagan. U kumush va mis tanga, chaqa pullar zARB etish huquqiga ega bo’lgan.

**TASHTXONA** – O’rta asrlarda podsholar saroyida idish-tovoq va boshqa mehmonorchilik anjomlari saqlanadigan xona.

**TAQVIM** – sayeralarning holati va harakatini ko’rsatuvchi maxsus jadval,kalendarъ.

**TUG’RO** (turkiycha) – Sharq mamlakatlarda podshoh va xonlarning farmonlari boshida ularning unvoni – nom va amallarini ko’rsatuvchi maxsus bezakli èzuv, ramziy belgi, sarlavha o’rnidagi so’z, jumlaning bezak sifatida èzilishi.

**FULUS** – mayda mis chaqa.

**XANDAQ** – qal’a tevaragiga qazilgan va suv to’latilgan zovur; maxsus mudofaa inshooti.

“**XANCHAMANA**” –Avestoъ kitobiga ko’ra ezgulik xudosi Axuramazda yaratgan mamlakatlarda oqsoqollar kengashi.

**XARVOR** – bir eshak ko’tarishi mumkin bo’lgan yuk; taxminan 103-150 kg atrofida bo’lgan.

**CHIBIK PULI** – Xiva xonligida ommaviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to’lanadigan haq.

**SHINAK** – shahar, qal’a, qo’rg’on kabi mudofaa inshootlari devoridan dushmanni kuzatish, undan saqlanish va hujumni qaytarish maqsadida o’q otish uchun devorning maxsus tuynukchasi, pana joy.

**SHIXNA** – Buxoro xonligida mirshablarning ikkinchi bir nomi.

**SHULEN** – mo’g’ullar hukmronligi davrida davlat hazinasi uchun undiriladigan oziq-ovqat solig’i. Shulen har bir podadan ikki yashar qo’y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan.

**SHURAT** – Somoniylar davlatida davlat boshlig’i amir tomonidan o’zini himoya qilish uchun turk g’ulomlaridan tashkil etilgan maxsus saroy gardiyasi.

**ERSHI** – miloddan avvalgi III milodiy II asrlarda mavjud bo’lgan Dovon (Farg’ona) davlati poytaxtining xitoy manbalaridagi nomi.

**YANICHARLAR** (turkcha – yangi qo’shin) – Usmonli Turk imeriyasida (1299-

1922) davlat xazinasidan maosh olib turgan muntazam pièda qo’shinlar.

## KEYS

Modulni ukitishdagт poydalanadigan interaktiv ta’lim metodlari

Talabalarga yo’riqnomalar

Ish bosqichlari

Maslahatlar va tavsiyanomalar

1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish Avvalo keys bilan tanishing. "O'zbekistonning o'z istiqlol taraqqiyot yo'li" haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang

2. Berilgan vaziyat bilan tanishish Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalg qiling. Ushbu muammoli vaziyatni yechishda o'quvchi Prezident I.A.Karimovning "O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" va "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarlaridan foydalanishi tavsiya etiladi.

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalg qiling.

Asosiy muammo: "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'liga erishish omillari"

Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling.

1. Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan muammolar turini ayting?
2. O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'lining ishlab chiqishda nimalar asos bo'lganligi haqida fikr yuriting.
3. Muammolarni yechimining borishini aniqlang. Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish - ob'ektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e'tibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling.

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash

Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishslash natijalarini yozma shaklda ilova eting

Keys bilan ishslash natijalari yozma shaklda ilova etiladi

Keys - stadi uchun yozma ish talablari:

Ish A4 standartdagi varaqning bir tomonida (2-varaqdan oshmagan holda) tezis shaklida yozilishi kerak.

Yozma ishni jihozlash tartibi:

birinchi betda, o'ng tomonda o'quvchi ismi, sharifi va guruhini yozishi kerak; varaqning markazida keysning mavzusi yoziladi, keyin esa keys bilan ishslash natijalari tezis shaklida yoziladi.

Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta'minoti har xil hajmda bo'lishi (bir varaqdan bir necha yuz varaqqacha), tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha bo'lishi, axborot ko'pligi darajasi ham o'zgarishi mumkin bo'lган - tahlilga aloqasi bo'lмаган ма'lumotlar ham bo'lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida:

-taklif etilayotgan axborotlarni ko'rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang;

-vaziyatni tor istiqbolda ko'rib chiqmang: muammo bordaniga kichiklashib yoki umuman g'oyib bo'lishi mumkin;

-harakatlar rejasini vaziyatning tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan so'ng shakllantiring.

Keys bilan ishslash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun) Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

O'quvchilar ro'yxati Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan mak. 6 b. Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan mak. 4 b. Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

aniq ko'rsatilgan mak. 10 b. Jami mak. 20 b.

Guruhlari	Guruh faol	Ma'lumotlar	Javoblar to'liq	Jami
ro'yxati	mak. 1 b.	ko'rgazmali	va aniq berildi	mak. 10
	taqdim etildi		mak. 5 b.	b.
	mak. 4 b.			

1

2

3

Keysning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi va tarix darslarini o'qitish jarayonida keyslarni ishlab chiqish.

O'quv-uslubiy hujjatlar

O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiya asoslari

■ Respublikaning ajoyib tabiiy iqlim sharoitlaridan samarali foydalanish;

■ Erlarning irrigatsion va meliorativ holatini yaxshilash masalalariga e'tiborni kuchaytirish;

- O'zbekistonning gaz kondensanti, ko'mirga bo'lган talab-ehtiyojini to'la- to'kis ta'minlash;
- respublikaning eng katta boyligi bo'lган uning mehnatsevar xalqi uchun keng imkoniyatlar yaratish
  - Qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi vazifalar
  - respublikaga Markaz tomonidan zo'r lab qabul qildirilgan paxta yakka hokimligiga qarshi izchillik bilan ko'rash olib borish;
  - paxta xomashyosini respublika ichida qayta ishlashni yo'lga qo'yish (2200 so'm/ga =18-20 ming so'm/ga, ya'ni o'n barobar ko'p daromad hamda qariyib 100 xilga yaqin mahsulot olinishi mumkin);
  - paxta homashyosidan samarali foydalanish ( hatto, g'o'zapoya sharoitidan to'g'ri foydalanib, amaldagi daromad hajmini 3-5 barobar ko'paytirish mumkin);
  - paxtachilikda almashlab ekishni joriy etishga asoslangan ilmiy yo'ldan borish;
  - aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun oziq-ovqat kompleksini ustun darajada rivojlantirish;
  - qayta ishlash sanoati korxonalari qurilishini jadallashtirish

- Aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha amalgam oshirilgan tadbirlar
- ishlayotgan bir oyda 600 000 so'mdan, ishsiz nafaqa oladiganlarga 650 000 so'mdan to'landi;
  - bolali oilalar uchun mavjud nafaqalar miqdori salkam 2 barbar oshdi;
  - bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa 550 000 so'mga, ishlayotgan onalarga bolalariga qarash uchun beriladigan nafaqa esa 700 000 so'mdan 1100 000 so'mgacha ko'paydi;
  - balog'atga yetmagan bolalari bo'lган oilalarga ham pul yordami belgilandi;
  - talabalarga beriladigan o'quv stipendiyalari, ularning oilaviy ahvoli va darslarni o'zlashtirishiga qarab, 1200 000 so'mdan 2100 000 so'mgacha belgilab berildi;
- o'rta hisobda uch kishidan iborat oila 2500 000 so'm, olti kishilik oila 400 000 so'm, to'qqiz kishilik oila esa 600 000 so'mdan ko'proq qo'shimcha mablag' olish imkoniga ega bo'ldi;

## TALABA TOMONIDAN KEYSNI YeChISh VA TAHLIL QILISH VARIANTI

Keysdag'i asosiy muammo: "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'liga erishish omillari"

Muammoli vaziyatni yechish yo'llari

## 1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishamiz.

Avvalo, keys bilan tanishib chiqamiz. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'liga erishish omillari" haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqamiz. Muammoni yechish darajasini aniqlaymiz.

Tanlangan mavzu bo'yicha "O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li" buyicha yangi yo'lni tanlash zarurati va milliy taraqqiyotning "O'zbek modeli" to'g'risida ma'lumot berish orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g'oya kabi his-tuyg'ularini shakllantirish, yurtga sadoqat, xizmat qilish va ayniqsa, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash nazarda tutiladi.

## 2. Berilgan vaziyat bilan tanishamiz.

Ma'lumotlarni yana diqqat bilan o'qib chiqib, biz uchun muhim bo'lgan satrlarni tagiga chizib olamiz. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagি muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'yamiz. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatimizni jalg qilamiz:

- o'zbek modeli; -davlatning rej ali rivojlanishi;
- bozor iqtisodiyoti - shok terapiyasi;
- taraqqiyot yo'li; - regress;
- milliy boylik; - qashshoqlik;
- mulkchilik shakllari; - davlat mulkchiligi;
- evolyutsion rivojlanish; - inqilobiy sakrash.

## 3. Muammoli vaziyatning tahlili.

Muammoli vaziyatni yechimini topishga harakat qilamiz. Iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi Prezident I.A.Karimov asaridagi asosiy g'oyalarni aniqlaymiz.

1. O'zbekistonda bozor munosabatlari o'tish muammolari va ularning hal etilishi.

- 2. Investitsiya va tarkibiy siyosat.
- 3. Aholi ijtimoiy himoyasining aniq va ta'sirchan mexanizmlari.
- 4. Qo'shma korxonalar tashkil etish ishini faollashtirish.

Mazkur holatda qabul qilinishi mumkin bo'lgan muammoning barcha yechimlarini topamiz:

"Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring

Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan muammolar turi O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'lining ishlab chiqishda nimalar asos bo'ldi  
Muammolarning yechimini borishi

Bozor munosabatlari mexanizmining yaratilmaganligi, iqtisodiy hayotning normal emasligi, iqtisodiy erkinlik yo'q va korxonalar yo'q mavjud korxonalar talabga javob bermasligi. Respublikaning qulay geografik-siyosiy imkoniyatga ega

ekanligi, tabiiy xomashyoga boyligi, moddiy va ma'naviy hamda ishlab chiqarish potensiali va kadrlar qudratiga egaligi. Milliy boylikni ko'payishini ta'minlaydigan barqaror iqtisodiyot barpo etish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyillariga amal qilish, mulk egalarini huquqini ta'minlash.

#### 4. O'tkazilgan tahlillar va natijalar

Muammoli vaziyatni tahlil qilish - ob'ektning holati aniqlangandan so'ng, muammoning asosiy qirralariga e'tibor qaratib, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab olib, "T - sxema" jadvalini to'ldiramiz.

Mustabid davrda iqtisodiyotdagi salbiy holatlar va xatoliklar nimadan iborat edi ? Mustaqillik davrida bozor iqtisodiyotiga o'tgach iqtisoddagi ijobiliy tomonlarni aniqlang ?

- Xalq iste'moli uchun tovarlarning taqchilligi;
- Xususiy tadbirkorlik qonun yo'li bilan bo'g'ilgan edi;
- Raqobat yo'q edi;
- Xalq xo'jaligida sonlar ketidan quvish bor edi;
- Xususiy mulkchilik yo'q edi;
- Xalqaro iqtisodiy hamkorlik markazga bo'ysundirilgan edi;
- Tabiiy resurslardan nooqilona foydalanildi;
- Ishlab chiqarishda asbob uskunalarda modernizatsiya yo'q edi. • Xalq iste'moli uchun tovarlar ishlab chiqildi;
- Xususiy tadbirkorlikka yo'l ochildi;
- Xalq xo'jaligida raqobatbardosh tovarlar ko'paydi;
- Xorijiy sarmoyalalar kiritildi;
- Xususiy mulkchilikka keng yo'l ochildi;
- Xalqaro iqtisodiy hamkorlik kengaydi va xorijiy sarmoyalalar kirib keldi;
- Tabiiy resurslardan oqilona foydalanildi;
- Ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarning kiritilishi

#### Yakuniy xulosa

Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, ma'naviy barkamol va komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini a'lo darajada his etaditgan shaxs bo'lishi darkor. Sodda qilib aytganda, har bir o'zbekistonlik fuqaro O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lidagi iqtisodiy masalalarini bilishi kerak. Barkamol va komil inson, har birimiz: "Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?" deb emas, balki: "Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?" deb o'yashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

- 1.Keys texnologiyasi nima?
- 2.Keys texnologiyasi dastlab qaerda qo'llanilgan?

3. Keys yechish texnologiyasining qanday bosqichlari bor?
4. O'quv keyslarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad?
5. Keyslardan foydalanishning qanday usullari mavjud?
6. Keys muhokamasi tartibi qanday?
7. Keys muhokamasida e'tiborni nimalarga qaratish tavsiya etiladi?
8. Keys usulidan foydalanib biror bir mavzu yuzasidan muommoni hal eting?  
Test topshiriqlari.
1. Temuriylar davlati inqirozi qachondan kuchaydi?
    - A) Shohrux Mirzo vafotidan so'ng
    - B) Mirzo Ulug'bek vafotidan so'ng
    - V) XV asr o'rtalarida
    - G) A va V
    - D) A, B, V.
  2. Temuriylar davlati inqiroziga nimalar sabab bo'ldi?
    - A) Shahzodalarning o'zaro kelisha olmaganligi
    - B) Toj-taxt uchun kurash
    - V) Urug'-aymoqchilik, mahalliychilik
